- Pre-fabricated sections assembled on-site, reducing construction time and cost.

4. Vertical Building:

- Skyscrapers and high-rises to address space constraints in urban areas.

5. Energy-Efficient Design:

- Buildings optimized for natural ventilation, daylight, and insulation.

Famous Buildings Around the World

1. Burj Khalifa (Dubai, UAE):

- The tallest building in the world, known for its innovative design and engineering.

2. Eiffel Tower (Paris, France):

- A global cultural icon, originally built as a temporary structure for the 1889 World's Fair.

3. Taj Mahal (Agra, India):

- A UNESCO World Heritage Site and an architectural masterpiece of Mughal design.

4. Sydney Opera House (Sydney, Australia):

- Famous for its unique shell-like design, blending modernist and organic architecture.

5. Empire State Building (New York, USA):

- A historic skyscraper symbolizing the Art Deco style.

Importance of Buildings

- **Shelter:** Protect people from environmental elements.
- **Economic Activity:** Provide spaces for businesses and industries.
- **Cultural Identity:** Represent a region's heritage, history, and values.
- **Social Interaction:** Facilitate communal activities and gatherings.
- **Technological Advancement:** Reflect engineering innovations and architectural trends.

Buildings are essential to human civilization, combining form, function, and innovation to create spaces that improve quality of life and reflect societal progress.

Architectural Education

Becoming an architect typically involves:

1. Completing a degree in architecture (Bachelor's or Master's).
2. Gaining practical experience through internships.
3. Passing licensing exams to become a certified professional.

Architecture is a dynamic field that combines art, science, and technology to create spaces that enhance human life. It continues to evolve, reflecting changes in culture, technology, and the environment. Architecture is more than just constructing buildings—it's about shaping the environments where people live, work, and interact. It combines artistic vision with practical problem-solving, leaving a lasting impact on society and culture.

REFERENCES:

1. "Modern Architecture Since 1900" - William J.R. Curtis
2. "A History of Western Architecture" - David Watkin
3. "The Death and Life of Great American Cities" - Jane Jacobs
4. "Complexity and Contradiction in Architecture" - Robert Venturi

ANTONIM SO`ZLAR- O`QUVCHILARDA MILLIY MA`NAVIYATNI SHAKLLANTIRISH VOSITASI SIFATIDA

Axmedova Dildora Dilshodovna

Qarshi davlat universiteti magistranti

Annotatsiya: Maqolada o`zbek tilidagi antonimlarning tabiatini, uning o`rganilishi borasida yangicha yondashuvlar tahlili berilgan. Maktab darsliklarida antonimlar haqidagi mavzularda o`quvchilarning yanada teranroq fikrlashi, mavzuni mustahkamlash uchun qo`shimcha sifatida yangi talqindagi mashqlar tavsiyasi keltirilgan.

Kalit so`zlar: zid ma`noli so`zlar, milliy ma`naviyatni shakllantirish, antonimik lug`at tuzish, darslarda antonimlar mavzusi yuzasidan o`quvchilar uchun qiziqarli topshiriqlar ishlab chiqish, o`zbek xalq maqollari.

Bugungi tezkor va shiddatli davr til ta`limidan har qanday sharoitda muammoga yechim topa oladigan, nutqiy salohiyati yuqori bo`lgan, muammoga, vaziyatga xolis nuqtai nazar bilan qaray oladigan, lisoniy birliklardan unumli va samarali foydalana oladigan shaxsni kamol toptirishni maqsad qilib qo`ydi. Bu ustuvor maqsadlarni amalga oshirishda til ta`limi asosiy va yetakchi o`rin tutadi. Negaki, insonning shaxsiy rivojlanishi uchun leksik bazasi yetarli darajada boy bo`lishi, fikrlash salohiyati rivojlanishi uchun o`z tilidagi leksema va leksik birliklarni mazmun-mohiyatini chuqur bilmog`i, nutq sharoitiga mos tarzda so`zlash malakasiga ega bo`lmogi lozim .

Ma`lumki, jamiyatni inson tebratadi. Uni buyuk kelajak sari yetaklash ham, tubanlik qa`riga tortish ham insonning qo`lida. Shu sabab jamiyat a`zolarining, ayniqsa, o`sib kelayotgan avlodning ma`naviy kamoloti yangilanayotgan O`zbekistonda davlat ahamiyatiga molik dolzarb masalaga aylandi. Bugungi kunda o`zbek o`quvchilarini ham ruhan, ham aqlan, ham jisman yetuk qilib shakllantirish uchun milliy o`quv dasturlar, oila, maktabgacha tarbiya muassasalari va maktabda tamomila yangicha yo`sinda ish olib borilishi kerak bo`ladi.¹

Taniqli leksikograf, pedagog, bir necha zamонави о`кув lug`atlari muallifi L.A.Vvedenskaya o`zining mashhur “Ritorika va nutq madaniyati” nomli kitobida shunday kirish qilgan edi: “Bizning davrimiz faol, uddaburon, ishbilarmon odamlar davri. Mamlakatimizda ijodiy tashabbuslarni rivojlantirish uchun zarur shart-sharoitlar yaratildi., fikrlar xilma-xilligi, qat`iyat, ishonch, munosabat bildirish uchun imkoniyatlar eshigi ochiq. Bularning barchasi zamонави insonning kommunikativ

¹ Q. Husanboyeva. Tahlil-adabiyotni anglo-uzbek tiliga o`zishni monografiya. Toshkent, .Muhammadiy nashr, 2013y

imkoniyatlarini rivojlantirishni talab qiladi. Muloqotning eng muhim vositasi so`zdir.”² Darhaqiqat, so`zning quadrati haqida antik dunyo olimlaridan tortib bugungi davr filosof va filologlari ham yetarlicha bahs yuritmoqdalar. Tadqiqotlar shuni ko`satadiki, antonimlik hodisasi abstarkt otlar tabiatida uchraydi. Abstarkt otlar o`rtasidagi ma`noviy ziddiyatlar talqini xalqimizning madaniyati, ma`naviyati, dunyoqarashi, e`tiborli jihatni qadriyatlar tizimi bilan bog`liq. Zero, yaxshilik va yomonlik, yorug`lik va zulmat,adolat va haqsizlik, hayot va o`lim, rost va yolg`on, sog`lik va kasallik, do`stlik va dushmanlik, mehnatkashlik va dangasalik, boylik va kambag`allik, aql va ahmoqlik kabi qadriyatlar tizimi har bir xalq hayotining ajralmas qismiga aylangan.

Aql, farosat, topqirlik, chaqqonlik kabi fazilatlar insoniyat uchun azaldan qadriyatlarga aylanib ketgan hodisalar hisoblanadi. Bu tushunchalar xalq og`zaki ijodida ham, badiiy va publitsistik adabiyotda ham o`z ifodasini topgan. Uzoqdagi ovni ko`rib, Yaqindagi yovni ko`rmas bo`lma maqolida ham farosat, aql bilan harakat qilish lozimligi antinomiyadan mohirona foydalanish orqali xalqona usulda aks ettirilgan³

Maktab darsliklarida sistemaviylikdan voz kechib, o`quvchilarning nutqiy sharoitlarga tayyorlash, ularning nutqiy rivojlanishini shakllantirishga ilk qadamlar qo`yildi. Shuning bilan bir qatorda, til sathlarining nutq jarayonida eng ko`p qo`llanadigan bo`limlarini atroficha ko`rib chiqish, maktab darsliklarida ularga ko`proq ahamiyat qaratmoq lozim. Leksikologiya bo`limida o`rganiladigan sinonimlar, antonimlar, omonimlar, shular jumlasidandir. 5-sinf darsligida bu bo`limga yetarlicha ahamiyat qaratilmagan.(amaldagi 5-sinf ona tili darsligi 2020-y) Zid ma`noli so`zlar yuqorida to`xtalganidek, biri aytilganda ikkinchisi ya`ni zidi inson ongida tayyor turadi. Zid ma`noli so`zlarning ahamiyatini maqollar, iboralar, so`zlar, qo`shimchalar misolida keng tushuntirib berilgani bilan o`quvchilar hayotida amaliy ahamiyat kasb etmasa, bugungi til ta`limi oldidagi ustuvor maqsad amalga oshmagan hisoblanadi. Qachonki,berilayotgan mavzu asosida amaliy –nutqiy fikrlashga yo`naltirilgan maqsadli mashqlar, topshiriqlar ishlab chiqilsa o`quvchilarda tanqidiy va tahliliy fikrlash, nutq vaziyatiga ko`ra fikr bildira olish ko`nikmalari shakllantiriladi. Ularda zukkolik, topqirlik, o`ziga bo`lgan ishonch, berilganlar ichidan munosibini tanlash, ularni tekshirish, zidlash, tahlil qilish kabi ongda bajariladigan bilish jarayonlari bevosita amalga oshadi.Jahon tilshunosligi va tajribasiga nazar tashlansa, zid ma`noli so`zlar o`quv izohli lug`ati rus, ingliz va turk tillarining o`zida o`quvchilarning yosh nuqtai nazaridan bir necha turi nashr etilgan,

² Введенская Л.А. Риторика и культура речи / Л.А.Введенская, Л.Г.Павлова. – изд. 12-е. – Ростов н/Д: Феникс, 2012. – С. 3.

³ G.Komilova. A.Navoiy nomidagi TDO`TAI mustaqil tadqiqotchisi.Antonim so`zlar vositasida qadriyat va bahoning ifodalanishi. ACADEMIC RESEARCH IN EDUCATIONAL SCIENCES VOLUME 2 ISSUE3 2021

ulardan foydalanib kelinmoqda. O`quvchilarga bu lug`atlarning amaliy ahamiyati juda katta. Yangi avlod darsliklariga yordamchi sifatida turli o`quv lug`atlarini joriy etish va ulardan nutq o`stirish bo`yicha samaralarga erishish mumkin. Bugungi kundagi maktab ta`limida yangi avlod darsliklari nashr etildi. Bu darsliklarni yaratishdagi asosiy tamoyillar o`quvchining fikrlash salohiyatini o`stirish, nutqini ravon va til unsurlaridan to`g`ri va oqilona foydalanishga yo`naltirish, grammatikadan qochish va tildan amaliy foydalanishga asoslangandir. O`quvchilar nutqiy ko`nikmmalarini shakllantirishning dastlabki omillari darslikda berilayotgan mashqlar va unga qo`shimcha lug`atlar hisoblanadi. Amaldagi 5-sinf ona tili darsligida (2020y) “Zid ma`noli so`zlar ” mavzusi uchun 1-soat vaqt ajratilgan va bu mavzu yuzasidan mashqlar 10-sinfga borib 1 soat berilgan. O`quvchilarda amaliy ahamiyatini oshirish, milliy ta`limning ular ongida rivojlanishini ta`minlash uchun mashqlar salmog`ini oshirish va qiziqarli topshiriqlar bilan boyitish lozim. Buning uchun o`zbek xalq maqollaridan foydalanilsa, maqsadga muvofiq bo`ladi.

“Yaxshi so`zi psixolingistik talqin qilinganda yaxshilik, yaxshilanmoq kabi so`zlar bilan anglatayotgan tushuncha bilan bitta yadro atrofida birlashadi va “yomon” tushunchasiga nisbatan qaramoq- qarshilik hosil qiladi.

Ma`naviy- axloqiy aksilogemalar ichida do`stlik-dushmanlik munosabatlari nafaqat insonlar, balki butun borliqdagi o`zaro aloqalarni ko`rsatuvchi hodisadir. Uning tildagi ko`rinishi, tilda voqelanishi ham ma`lum bir xalqning aksiosferasi, qolaversa dunyoqarashi, moddiy va ma`naviy olami bilan uzviy bog`liq. Ablah do`st dushmanidan yomon, Ne hiyla bilsa, ishlatar oson, Burgut kuchi oyog`ida-Odamniki-do`stlikda, Dushmanning do`sti-mening dushmanim, Dushmanimning dushmanimening do`stim; Jahi dushman-aql do`st kabi maqollarda qadriyatga aylangan holatlarni yoki uning aksini ko`rish mumkin bo`ladi.

DO`ST-DUSHMAN ot-antonim juftlik. Tarkib jihatdan tub so`z-tub so`z.

Dushman (forscha) leksemasining semantik strukturasi quyidagicha:

1.Dunyoqarashi, manfaatlari, xatti-harakatlari bir-biriga to`g`ri kelmaydigan, o`zaro g`anim, raqib sifatidagi tomonlarning har biri.

2.Urushda o`zaro biri ikkinchisi bilan jang qiluvchi, bir-biriga qarshi urush e`lon qilgan tomonlardan har biri.

3.Insonga va umuman biror narsaga zarar keltiruvchi kimsa, narsa, hodisa.

Do`st (forscha shavqatli o`rtoq, yor, oshna, mahbub(a)) leksemasining semantik strukturasi quyidagi sememalardan iborat:

1.Qarashlari, dili, ish faoliyati yaqin bo`lgan, axillik bilan bog`langan ikki yoki undan ortiq kishining har biri (dushman leksemasining birinchi ma`nosiga antonim);

2.Yaqin, tanish, oshna. Shuningdek, lug`atda leksemaning ko`chma ma`nolari do`stingdan topjon do`st, ish do`sti, mol do`sti tarzida;

- 1.Murojaat qilish shakli
- 2.Undov so`z sifatida izohlangan

Mazkur antonim juftlikning semantik xususiyatlari haqida yana shularni qo`shimcha qilish mumkin.: antonim bo`lishi uchun kontekst shart emas; bir semantik zanjirga aloqador: do`s-t-dushman (inson) kabi; o`z sinonimlariga ega; boshqa turkum yasalganda ham antonimligini saqlab qoladi: do`s-tlashmoq-dushmanlashmoq; nutqimizda ham faol qo`llanadi; o`z va ko`chma ma`nolarida ham ziddiyat hosil qiladi; grammatik bir so`z turkumiga mansub.

Maqollar tarkibidagi antonimlarning leksik-semantik, funksional-uslubiy xususiyatlarini o`rganish o`zbek xalqi madaniyati, urf-odat, an`analari, dunyoqarashi, milliy qadriyatlar haqida muhim ma`lumotlar berishi bilan ahamiyatli. Shuningdek, insoniyat uchun muhim hodisa va holatlardagi qarama-qarshiliklarni, kishilarning ichki dunyosidagi ziddiyatlarni nomlab kelishi bilan tilning aksiologik tomoni bilan uzviy bo`g`liqdir”⁴.

Maktab o`quvchilarini antonim so`zlar bilan chuqurroq tanishtirish uchun o`zbek xalq maqollaridan foydalanishning bir necha afzallikkleri mavjud. Eng avvalo, o`quvchilar ongida mavjud, nutqida tayyor, va uning mohiyati mazmuni tarbiyaviy ahamiyatga ega. Zero xalq og`zaki ijodi bilimdoni, yozuvchi G`afur G`ulom aytganidek:”Har qirrasida yetti rang oftob tovlanib turgan xalqimiz ijodi unchamuncha kishining zehni yetmaydigan darajada boydir ”. Dono fikrlarni, o`tkir haqiqatni, teran mazmunni, so`z xazinasining duru-javohirlarini o`zida mujassam etgan rang-barang maqollar nutqimizning ta`sir etuvchi vositalari orasida eng ta`sirchan, eng esda qoluvchi, kishini o`ylashga, fikr-mulohaza yuritishga beixtiyor majbur qiluvchi kuchga egadir.ularning kishilik jamiyati va har bir inson hayoti uchun naqadar qimmatli ahamiyatga molik ekanligini jahon donishmandlari qadim-qadimdan e`tirof etib, qayta-qayta uqtirib kelganlar: “Barcha kishining kuchi ovqatdandir, aqlning kuchi esa hikmatdandir”(Aristotel);

“Agar aqli bo`lishni istasang, hikmat o`rgangilki, aql hikmat bilan kamol topadi”(Kaykovus);

“Qisqa ifodalangan o`tkir fikrlar hayotni yaxshilashga ko`p xizmat qiladi”(Sitseron);

“Men qadimgi donishmandlarning... bizga qoldirib ketgan aql durdonalarini ko`zdan kechiraman; agarki biz ulardan nimadir yaxshi bir narsaga duch kelsak,uni o`zlashtirib olamiz va juda katta foya orttirgan bo`lamiz”(Suqrot).

⁴ G.Komilova. A.Navoiy nomidagi TDO`TAI mustaqil tadqiqotchisi.Antonim so`zlar vositasida qadriyat va bahoning ifodalaniishi. ACADEMIC RESEARCH IN EDUCATIONAL SCIENCES VOLUME 2 ISSUE3 2021

Har bir xalq asrlar davomida juda katta hayotiy tajriba to`playdi, shu tajribani turli vositalar bilan keljak avlodlarga meros qilib qoldiradi. Maqol va hikmatli so`zlar ana shunday bebaho ma`naviy merosimiz hisoblanadi. Dunyoda hikmat durdonalari yaratmagan, ularni asrlar osha ko`z qorachig`idek asrab, avaylab, sayqal berib, dilida , tilida dilida saqlab kelmayotgan biror xalq yo`q. O`zbek xalqi ana shularning biridir. Jahon madaniyatining ravnaqi uchun Al Xorazmiy, Abu Nasr Forobiy, Abu Ali ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy, Mirzo Ulug`bek, Alisher Navoiy singari ko`plab buyuk olim va allomalar yetishtirib bergan xalqimizning madaniyatini, donishmandligini, umuman, kamolotini yer yuzining jamoatchiligi qadimdan e`tirof etib kelgan. Shunday ekan, bu bebaho ma`naviy merosimiz bilan yosh avlodni qurollantirishimiz lozim. Bunda ikki asosiy maqsadga erishgan bo`lamiz. Til nuqtai nazaridan o`quvchilar maqollar orqali antonim so`zlar haqida chuqur bilimga ega bo`ladilar, amaliy jihatdan shu maqollar vositasida ma`naviyati, dunyoqarashi kengayib, o`sib boradi.

Avval o`yla, keyin so`yla.

Do`scht achitib gapirar, dushman kuldirib.

Adabni beadabdan o`rgan.

Aytmoq oson- qilmoq qiyin.

Zarar ko`rmay, foyda qayda?!

Zaharning ozi nima-yu, ko`pi nima?

Mehr temirni eritar, qahr toshni yorar.

Yaxshi so`z –jon ozig`I, yomon so`z-bosh qozig`i.

Yaxshi topib gapirar, yomon qopib gapirar.

Yaxshidan –vafo,

Yomondan –jafo.

Yaxshini ko`rib fikr qil,

Yomonni ko`rib shukur qil.

Qari o`lsa –ne davlatdir,

Yosh o`lsa-qiyomatdir.

G`ayratlining yuragi qaynar,

G`ayratsizning yuragi o`ynar.

Haddidan oshgan kulgidan-yig`i yaxshi.

Yuqorida keltirilgani kabi maqollar o`zbek xalq og`zaki ijodining bebaho boyliklaridir. Maqollarda ifodalangan qarama-qarshilik, leksema semasidagi zidlik o`quvchini mulohazaga chorlaydi. O`qituvchi maqollardan namunalar keltirib xattaxtada yoki elektron doskalarda yozib ularni ham leksik, ham mazmun jihatdan izohlab, o`quvchilarga shunday zid ma`noli maqollar izlashga topshiriq bersa maqsadga muvofiq bo`lar edi. Yoshlar boy ma`naviy merosimizdan bahramand bo`lar edi hamda tafakkuri birmuncha kengaygan bo`lar edi. Bundan tashqari, ona tili

darslarida foydalananish uchun mazkur ishda ba`zi metodik tavsiyalar, namuna mashqlari, lug`atlardan tavsiya namunalar ilova qilindi. (1-ilovaga qarang)

1-ilova

МАКТАВ ДАРСЛИКЛАРИДА ЗИД МА`NOLI СО`ZLARNING О`QITILISHI VA О`РГАНИЛИШИ ЮЗАСИДАН МАШQLAR

ZID MA`NOLI SO`ZLAR mavzusi yuzasidan 5-sinf o`quvchilari uchun mo`ljallangan tavsiya va topshiriqlarni ko`rib chiqamiz:

1- mashq Berilgan so`zlar va ramziy chizgilar o`rtasida bir-biriga bog`liqlik bor, kuzating! (antonim so`zlar moviy rangli belgida, sinonim so`zlar rangsiz belgi bilan ko`rsatilgan).

Uzoq-yaqin




osmon-fazo



Quyidagi so`zlarning ramziy chizgilarga mosini belgilang

YAXSHI-YOMON| TOZA-POK BALAND-PAST| KATTA-KICHIK|



2-mashq.

BIRINI TANLANG!


mayjud **va** **dagi** **so`zlar** **o`rtasida** **ma`noshlik**

mayjud **va** **dagi** **so`zlar** **o`rtasida** **zid** **ma`nolilik**

Shunga ko`ra qaysi to`g`ri?



A) qiyin	kuch	oson
B) iflos	pok	toza
C) kichik	ayol	katta
D) yomon	ochko`z	yaxshi



3-mashq.

Zaynab bir so`z o`yini o`ynamoqda. O`yinning qoidasiga ko`ra so`zlarni zid ma`nolilarini topib juftlash kerak. Qaysi do`sti vazifani to`g`ri bajargan deb o`ylaysiz?

1. **Aziza** ► obod-xaroba, jazo- mukofot, sevindi-xafa bo`ldi
2. **Sardor** ► olis-xabarsiz, jazo-mukofot, yaqin-sevindi
3. **Soliha** ► jazo-mukofot, obod-xroba,sevindi-xafa bo`ldi,olis-yaqin.

4-mashq. So`zlarning zid ma`noli juftini topib joylashtiring.

G	KO'P
	ANIQ
	MAXFIY
	MAMNUN
	LOQAYD
	KUNDUZ
	ZAIF
	MAYIN
	G'OLIB
	MUKOFOT
	QO'POL
	NODON
	OLIS
	BEOQIBAT
	ODDIY
	YASHIRIN
	OXIRGI
	OG'IR
	PAST

A	BALAND
B	YENGIL
V	DASTLBKI
G	OZ
D	NOANIQ
E	OSHKORA
J	XAFA
Z	FAOL
I	KECHA
K	KUCHLI
M	DAG'AL
H	MAG'LUB
O	JAZO
P	MULOYIM
C	DONO
T	YAQIN
U	OQIBATLI
F	MURAKKAB

Yuqorida ko`rib o`tganimiz mashqlar, boshqotirma ko`rinishidagi topshiriqlar o`quvchini mulohaza qilishga, kreativ fikrlashga ongda zidlik, qarama-qarshilik hodisalarini leksik birliklardan izohlash, aniqlash malakasiga ega bo`ladilar. Leksikologiya bo`limida o`rganiladigan o`quv materialllarini o`quvchilarning nutqiy taraqqiyotiga xizmat qildirish uchun bir qator amaliy-ijodiy ishlardan foydalanishga to`g`ri keladi. Bu lug`atlardan to`g`ri va o`rnida foydalanish, ma`nodosh so`zlar va zid ma`noli so`zlarning ustida ishslash jarayonida ularning har birini ajratish, bu so`zlar tilning leksik boyligi, nutqimiz go`zalligi va ko`rki ekanligini anglab yetishlari, o`z nutqlarida undan to`g`ri va amaliy ishlarni bajarish tavsiya etiladi. Shu kabi mashqlar bilan darslar boyitilsa, yoki alohida mashqlar to`plami sinflar kesimida mavzulashtirilsa o`quvchilar nutqini o`stirish yanada yaxshilanadi. Nutq o`stirishning eng samarali usullaridan biri lug`atlar ekanligini ko`p bora tilga oldik. O`quvchilarning ona tili darslarida oz muddat bo`lsa-da, lekin muntazam lug`at ustida ishslashlari nutqning boyish, ko`rkamlashishi kuzatiladi va kutilgan samaradorlikka erishiladi.

Yuqorida ko`rib o`tganimiz mashqlar, boshqotirma ko`rinishidagi topshiriqlar o`quvchini mulohaza qilishga, kreativ fikrlashga ongda zidlik, qarama-qarshilik hodisalarini leksik birliklardan izohlash, aniqlash malakasiga ega bo`ladilar. Leksikologiya bo`limida o`rganiladigan o`quv materialllarini o`quvchilarning nutqiy taraqqiyotiga xizmat qildirish uchun bir qator amaliy-ijodiy ishlardan foydalanishga to`g`ri keladi. Bu lug`atlardan to`g`ri va o`rnida foydalanish, ma`nodosh so`zlar va zid ma`noli so`zlarning ustida ishslash jarayonida ularning har birini ajratish, bu so`zlar tilning leksik boyligi, nutqimiz go`zalligi va ko`rki ekanligini anglab yetishlari, o`z nutqlarida undan to`g`ri va amaliy ishlarni bajarish tavsiya etiladi. Shu kabi mashqlar bilan darslar boyitilsa, yoki alohida mashqlar to`plami sinflar kesimida mavzulashtirilsa o`quvchilar nutqini o`stirish yanada yaxshilanadi. Nutq o`stirishning eng samarali usullaridan biri lug`atlar ekanligini ko`p bora tilga oldik. O`quvchilarning ona tili darslarida oz muddat bo`lsa-da, lekin muntazam lug`at ustida ishslashlari nutqning boyish, ko`rkamlashishi kuzatiladi va kutilgan samaradorlikka erishiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

5. .Bahriiddinova B.M. O`zbekistonda o`quv lug`atchiligi: lingvistik asoslari, tarixi va istiqbollar: Filil.fan.dokt.(DSc)...diss.-Samarqand.2020.-B65
6. To`rayeva U,Shodmonova D. O`zbek tilining zid ma`noli so`zlar o`quv lug`ati,T-Yangi asr avlodi-2007
- 7.Qarama- qarshilikning lingvistik aspekti. B.Jo`rayeva f.f.dok,H.Ubaydova, O`zMU xabarlari,2022y 1/1/2.
- 8.Shukurov R . O`zbek tilida antonimlar.-T;Fan,1977.-154b,-16b

9.Hoziyev A.O`zbek tili sinonimlarining izohli lug`ati.-Tosh;O`qituvchi,1974-B3-6

10.O`zbek tilining izohli lug`atini tuzish uchun qo`llanma.C.F.akobirov tahriri ostida-Toshkent:Fan, 1964-B.62

11.Bahriiddinova B.M. O`zbekistonda o`quv lug`atchiligi: lingvistik asoslari, tarixi va istiqbollar: Filil.fan.dokt.(DSc)...diss.-Samarqand.2020.-B69

ERGONIMLARNING FUNKSIONAL-SEMANTIK TAHLILI

(Mehmonxona nomlari misolida)

*Abdurasulova Dilso'z Sherzod qizi**Qarshi davlat universiteti magistri*

Annotatsiya: Maqolada ergonimlar tahlil qilingan bo‘lib, ularning shakllanishi va funksional-semantik xususiyatlari ochib berilgan. Shuningdek, ergonimlarning tilda assotsiativ aloqa hosil qilishi, nom tanlashdagi yutuq va muammolar, shuningdek, vazifalar bugungi kunda mavjud mehmonxona nomlari misolida o‘rganilgan.

Kalit so’zlar: onomastika, ergonim, mehmonxona, milliy nom, informativlik, lingvistik mezon

Har bir millatning milliy o‘zligini ifodalovchi mezonlaridan biri uning ona tilidir. Odatda tilni ko‘zguga mengzaydilar. Aniqroq aytganda, til har bir xalqning o‘zligi, o‘tmishi va madaniyatining aksini ko‘rsatib turuvchi millatning bebafo boyligi hisoblanadi. Tilshunos olim N.Mahmudov ta’kidlaganidek, ”Xalqning dunyoni ko‘rish tarzi va idrok intizomi, eng avvalo, shu xalqqa oid olamning lisoniy manzarasida qayd etiladi”¹. Demakki, millatning turmush tarzi va madaniyatini ifodalovchi makon nomlari ham bunda alohida ahamiyatga ega.

Ma’lumki, tildagi jamiki so‘zlarni o‘rganuvchi soha bo‘lgan leksikologiya bo‘lsa, unga bog‘liq holda lug‘aviy birliklarni nomlash va tushuncha anglatish prinsiplarini tadqiq etuvchi tilshunoslik bo‘limi onomasiologiyadir.

Tilshunoslik nuqtayi nazari bilan qaraganda muayyan ob’ekt va hudud nomlari zamonaviy tilshunoslikda lingvistik birliklar sifatida qaraladi. Nafaqat hudud, balki barcha atoqli otlar ham tilshunoslikning “nom qo‘yish san’ati” deb izohlanuvchi onomastika bo‘limida o‘rganiladi. Tilimizda atoqli ot sifatida shakllangan barcha birliklar ham ayni shunday birliklar qatorida qaraladi.

Til o‘ziga xos murakkab sistema ekan, birliklari esa tarkibidagi tasnif va munosabatlar ichida tizimli holatda bo‘ladi. Shuningdek, haqiqiy va faraziy ob’ektlarning nomlari tizimi bo‘lgan onomastik makon etnos tasvirida mavjud bo‘lgan dunyo modeli bilan belgilanadi. A.V.Superanskaya ta’kidkaganidek, onomastik makon turli madaniyatlar, davrlar, hududlarga mansub odamlarda turli xil to‘ldirishga ega va tilning leksik tizimidagi sinflarga tegishli ob’ektlarning belgilari tufayli boyitiladi. Ilk bor ”Ergonom” termini 1978-yilda N.V.Podolskayaning ”Rus onomastik terminologiyasi lug‘ati”da qo‘llanilgan. U joriy etilishidan oldin tadqiqotchilar

¹ Mahmudov N. Olamning lisoniy manzarasi va so‘z o‘zlashtirish. O‘zbek tili va adabiyoti jurnali. –Toshkent. 2015. 14-bet.

”Urbanonim” atamasini ishlatalishgan. Ergonimlar termin sifatida kishilarning mehnat birlashmalari nomlarini ifoda etadi. Ergo so‘zi yunon tilida mehnat ma’nosini bildiradi². Aynan shu bo‘limda tashkilot, muasssasa, koorporatsiya, birlashma, jamiyat, do’kon va idoralarning nomlari o’rganiladi.

Har bir mahsulot ishlab chiqarayotgan korxona ushbu mahsulotni mijozlarga tanitish va etkazish uchun uning mohiyatini anglatuvchi nomga ega bo‘lishi kerak. Munosib tanlangan nom esa korxona bilan mijoz o‘rtasidagi aloqaning faol bo‘lishini ta’min etadi. Tanlangan nomning iste’molchida assotsiativ munosabat hosil qila olishi – bevosita uning xizmat yoki tovarga qiziqishini uyg‘otadi. Bunda mahsulot to‘g‘ridan-to‘g‘ri nomlanmaydi. Nom assotsiativlik darjasasi yuqori bo‘lgan so‘zlardan tashkil topadi. Masalan, ”Mezbon” mehmonxona nomi shu turdagи xizmat ko‘rsatish mavjudligiga ishora qiladi. Shuning uchun ham har bir korxona, tashkilot o‘ziga nom tanlar ekan uning ma’nosi, mazmun-mohiyatiga, albatta, e’tibor qaratishi zarur.

Barchamizga ayonki, nomlash murakkab bo‘limgan hodisa emas. Unda xalqning milliy manfaatlaridan tashqari, respublikamizda istiqomat qilayotgan boshqa millat vazillarining ham manfaatlari hisobga olinishi lozim. Ta’kidlanganidek, neyming murakkab vazifaga ega jarayon. Munosib neym ijod etish esa til uchun ham, millat madaniyati uchun ham manfaatli hisoblanadi³. Mulk egalari uchun o‘z mulkclarini boshqalarga jozibador, sodda, qisqa nomlar orqali tanitish muhim hisoblanadi.

Nomlash o‘ziga xos san’at va ijod turi bo‘lib, maqsadli auditoriyaga ta’sir o‘tkazgan holda xaridorlarni ma’lum brend va kompaniyalarga ustunlik berish uchun undaydi. Chunki zamonaviy dunyoda brendlар korporatsiyalarga tegishli so‘zlar kabi tasodifan yoki atayin holatda lug‘at boyligimizning bir qismiga aylandi.

Ergonimlarning kelib chiqish masalasi ham tildagi alohida bir jarayondir. Bizning nuqtayi nazarimizga ko’ra, ergonomik birliklarning kelib chiqishi ikki turga bo’linadi:

- 1) xorijiy tilidagi lug‘at asosida hosil bo‘lgan ergonimlar;
- 2) o‘z qatlam birliklari asosida hosil bo‘lgan ergonimlar.

Aksariyat hollarda, nom tanlovchilar ob’ekt nomini xorijiy tilda nomlash orqali iste’molchilarni jalg qilish va reklama qilishni maqsad qilishadi. Masalan, bugungi kunda uchrayotgan ”Maxwell”, ”Intercontinental Tashkent”, ”Hotel Inspira-S Tashkent”, ”Lumiere”, ”Grand Mir Hotel” ergonimlarining hosil qilinishda mehmonxona nomlarining jarangdor bo‘lishi, go’yoki ”o’zimizniki emas, xorijniki”

² Словарь иностранных слов. –М. Русский язык. 1987, –С. 591.

³ Shukurov O. O’zbek tili zamonaviy o’zlashmalarining evolyutsiyasi, trasformatsiyasi va zamonaviy talqini masalalari: Filol. fan. d-ri...diss. –Qarshi, 2022. 68-bet.

ekanligini targ‘ib qilish maqsad qilinadi. Bu kabi ergonimlar, ehtimol, diqqatni jalg qilishi mumkindir, ammo aksariyat hollarda informativ xususiyatga ega bo’lmaydi.

Afsuski, bugungi kunda yurtimizda tadbirkorlar nom tanlashda milliy tilimizdan ko’ra xorijiy tildagi so’zlardan ko’proq foydalanishmoqda. Achinarli jihat shundaki, neym tanlashda o’zbek xalqining ma’naviy-madaniy merosi bo’lgan tarixiy obidalarimizning nomlaridan foydalangan holatda ularni o’z ona tilimizda emas, xorijiy tillarda ifodalash holatlari ham uchraydi. Misol tariqasida Toshkentdagi mehmonxonalardan biri ”Ak Saray” neymiga e’tibor qarataylik. Ushbu onomastik birlikni mehmonxona nomi sifatida tanlanganini xato deb bo’lmaydi. Oqsaroy – Shahrисabzdagi me’moriy yodgorlik (1380-1404), shaharning shimoli sharqidagi bosh maydonda joylashgan bino.

Millatimizning milliy o’zligini ifoda etuvchi yodgorliklardan birining nomi o’z milliy tilimizda ifodalansa, milliy madaniyatni ham targ‘ib etishga hissa qo’shilgan bo’lardi. Masalaning boshqa tarafi esa, neym tanlashda balki mehmonxona xizmatidan faqat o’zbeklar emas, xorijiy millat vakillarining ham foydalanishi hisobga olingan holatda shu tarzda yozilgandir, ammo ”Oqsaroy” nomining o’zbek tili orfografik qoidalariga muvofiq yozilishi bilan tilimizning tanilishiga ham oz bo’lsa-da hissa qo’shilgan bo’lar edi.

Toshkent shahridagi mehmonxonalardan birining nomi – ”Huzur”. Nazarimda, ushbu nom o’rinli tanlangan va ijobiylit kasb etgan. Ushbu so’zning izohiga to’xtaladigan bo’lsak, huzur (arabcha – bor, mavjud bo’lish, hozir bo’lish; kelish, ko’rinish, namoyon bo’lish) yuqori darajadagi qanoat, qoniqish hissi, kishi vujudi, a’zolarining yayrash holati; rohat⁴.

Ta’kidlash joizki, mehmonxona xizmatidan foydalanuvchilar faqatgina boshipana topishni emas, balki hordiq chiqarish, vaqt ni maroqli o’tkazishni ham maqsad qiladilar, shu jihatdan xizmat turi va qo’yilgan nom o’rtasida assotsiativ aloqa hosil qilish mumkin. Yuqoridagi nom ham mehmonxonada mehmonlarning xavfsiz va xotirjamligi ta’minlanishi, xizmat qilish madaniyatining professionalligining yuqori darajada ekanligiga ishora qilmoqda. Shuningdek, nom mag’zida iste’molchi foydalanishi mumkin bo’lgan yuqori darajadagi sifat va qulaylik ma’nolari ham aks etadi va bularning barchasi ushhbu xizmatdan foydalanuvchilarning mammun va xotirjam bo’lishlari uchun qilinganligiga ishora etiladi.

Yuqorida ko’rib o’tganimizdek, ergonimlarning tanlanishida obyekt mohiyati ifodasini topsa, u o’ziga xos reklama vazifasini ham bajaradi. Shu kabi yana obyekt xarakteriga mos tanlangan va e’tibor tortadigan ergonimlardan biri – ”Mezbon” mehmonxonasi. Shu kabi obrazli nomlar iste’molchiga ta’sir o’tkazishni kuchaytirish

⁴ O’zbek tilining izohli lug’ati. Beshinchchi jild. O’zbekiston milliy ensiklopediyasi. –558 b.

maqsadida tanlanadi va, sir emaski, bunday nomlar obyekt mohiyati haqida tushuncha, tasavvur uyg'otadi. Ushbu nomning lug'aviy ma'nosiga to'xtalsak, "Mezbon" forscha mehmonlarni kutib oluvchi; aynan: stol (dasturxonni qo'riqlovchi) mehmon kutuvchi, ziyofat, to'y egasi⁵. So'z yuritilayotgan „Mezbon” mehmonxonasi O'zbekistonda eng yaxshi mehmonxonadan biri sanaladi. Mehmonxonaning nafaqat nomi, balki dekoratsiyasida ham milliylik ufurib turadi. Mezbon mehmonlarni tayyorgarlik va iliqlik bilan kutib olishi, mehmondorchilikning bekam-u ko'st bo'lishi uchun sidqidildan harakat qilishiga mehmonxona xizmatlarining professionalligi mengzalgandek, nazarimda. Ushbu nom ilk tanishishda tasavvur va tushuncha uyg'ota olishi bilan kishi assotsiativ maydonidagi chastotasi yuqori assotsatsiyalar sifatida "Mehmonxona xizmati" stimul so'zining maydon yadrosidan o'rinn oladi, ham originallik kasb etadi, obyekt mazmuniga mos tanlangan.

Yana bir mehmonxonaning "Safar" deb nomlanishida ham ergonimlarning ta'sirchanlik xusuyati namoyon bo'ladi. Albatta, mehmonxona xizmatidan o'z makonidan olisda bo'lgan sayyoohlар va musofirlar foydalanishini inobatga olsak, ushbu neym iste'molchida tasavvur tug'diradi. Safar so'zining izohiga to'xtaladigan bo'lsak, arab tilidan olingan bo'lib, sayohat, sayr, biror joyga borish kabi ma'nolarni bildiradi⁶. Umuman olganda, stimul so'zni "Safar" deb oladigan bo'lsak, xizmat turi va unga tanlangan neym bir-biri bilan assotsiatsiya hosil qiladi va obyekt xarakteriga mos tanlangan deyish mumkin.

Albatta, mehmonxona xizmatidan faqatgina mahalliy aholi emas, xorijdan kelgan mehmonlar ham foydalanishini inobatga olsak, ushbu ergonimlarga munosib neym tanlashda chet tilidagi so'zlardan ham foydalanishni qoralab bo'lmaydi. Ammo mazmun-mohiyat va iste'molchini jalb etish neym ijod etishda juda muhim.

"Green", "White" kabi mehmonxonalarining nomlanishida ushbu ranglarning ramziy ma'nosiga ishora qilinganligi yoki faqatgina so'zlarning engil va jarangdor talaffuziga ahamiyat qaratilganligini anglash biroz mushkul . Ularning ramziy ma'nosiga to'xtaladigan bo'lsak, oq rang – poklik, beg'uborlik, soflik timsoli, yashil rang esa navqironlik, umid va shodumonlik ramzi bo'lib hisoblanadi. Ko'rinish turibdiki, til egasining mehmonxona haqidagi tasavvuri ushbu ramziy ranglar timsollari bilan assotsiatsiya hosil qilishi ehtimoldan yiroq, ya'ni ushbu nomlar ifoda etayotgan assotsiativ ma'no mehmonxona haqidagi assotsiativ maydonning chegara qismidangina o'rinn olishi mumkin xolos.

Ma'lumki, savdo, ishlab-chiqarish obyektlari, korxona va tashkilotlar nomi u joylashgan hudud nomi bilan ham atalishi mumkin. Mehmonxona nomlari ham hududlar onomastikoniga mansub turli ergonimlarni qamrab oladi. Masalan, "Golden

⁵ O'zbek tilining izohli lug'ati. Ikkinci jild. "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" davlat ilmiy nashriyoti. -578 b

⁶ O'zbek tilining izohli lug'ati. Uchinchi jild. "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" davlat ilmiy nashriyoti. -460 b

Samarkand”, ”Registan Center”, ”Gur Emir Palace”, ”Marokanda”, ”Kosh Havuz butik” (Samarqand shahri), ”Beshchinor”, ”Old City”, ”Shosh Butik”, ”Chorsu” (Toshkent Shahri), ”Garden Plaza Bukhara”, ”Vardonze”, ”Zargaron”, ”Labi Rud Butik”, ”Poykent Bukhara Naqshband” (Buxoro Shahri) ”Naxshab”, ”Nasaf Trtavel” (Qarshi shahri) kabi ergonimlar bevosita joy nomi bilan bog‘liq holda hosil qilingan. Yuqoridgia ”butik” so’zi qo’shib hosil qilingan bir nechta ergonimlarni sanab o’tdik. Ushbu so’zning asl ma’nosini nomlanayotgan xizmat turiga uyg’un deb bo’lmaydi, albatta. Butik (fransuzcha: [butik]) – moda liboslari yoki aksessuarlari sotiladigan kichik do’kon. Bu so’z fransuzcha ”do’kon” degan ma’noni anglatadi, uning kelib chiqishi qadimgi yunoncha ”omborxona” so’ziga tegishli. ”Butik” atamasi 1960-yillarning oxirida umumiy ingliz tiliga kirdi. Yevropada Montaigne avenyusi va Bond ko’chasi davrning eng zamonaviy do’konlariga ega bo’lgani uchun ommaviy axborot vositalarining diqqat markazida bo’lgan. Ba’zi ko’p do’konli korxonalar , agar ular kichik, yuqori darajadagi bozorlarni maqsad qilgan bo’lsa, butiklar deb atash mumkin, garchi ba’zi butiklar qo’lda yasalgan buyumlar va boshqa noyob mahsulotlarga ixtisoslashgan bo’lsa-da. Boshqalari shunchaki futbolkalar, stikerlar va boshqa moda aksessuarlarini sun’iy ravishda kichik seriyalardi.⁷

Shuningdek, ”Oscar Butik”, ”Salam Inn Butik”, ”Altair Boutique Butik”, ”Sahar Butik”, ”Golden Minaret Butik”, ”Oasis Butik”, ”Ansi Butik” kabi nomlar bilan tanishganda ma’nosini nafaqat o’zbekzabon insonlar, balki inglizlar ham mehmonxona xizmati haqidagi axborotga ega bo’lmaydi.

Yuqorida qayd etilganlar orasidan ”Old city” ergonimining nomlanishida ham aynan ma’lum hudud onomastikoniga mansub ekanligiga ishora qilinishini anglash mushkul. Chunki ushbu so’zni to’g’ridan-to’g’ri ingliz tilidan tarjima qiladigan bo’lsak, ”eski, qadimiy shahar” ma’nosini anglatuvchi tobe bog’lanishli bitishuvli so’z birikmasi hosil bo’ladi. O’zbek tilida, mahalliy aholi orasida, ”Eski shahar” atamasi atoqli ot sifatida tushuniladi va ayni bir hududni anglatuvchi nom sifatida qaraladi. Nominatorlar tomonidan Toshkent shahrining Eski shahar mavzesidagi mehmonxona ekanligi ta’kid etilib nomlangan ”Old city” mehmonxonasi xorijliklar tomonidan to’g’ridan-to’g’ri tushunilishini hisobga olsak, hech qanday informativ xususiyat kasb etmaydi. Asl ma’nosini to’liq tushunmasdan obyektlarni xorijiy tildagi so’zlar bilan nomlash oqibatida uslubiy jihatdan noto’g’ri ifodalar yuzaga kelayotganligi o’zbek tilining nufuziga putur etkazmoqda.

Tilshunos olima M.Saparniyazova ta’kidlaganidek⁸, ergonimlarni hosil qilishda quyidagi qat’iy mezonlarga amal qilinishi lozim:

⁷ <https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Butik>

⁸ Saparniyazova M. ”O’zbek tili ergonimlarining struktur-semantik, lingvomadaniy va pragmatik tadqiqi” (DSc ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya). Toshkent – 2023. -23 b.

1. Ergonomim tadbirkorlik faoliyati obyektlari, korxona, firma, iste'mol tovarlari, uning markasi (brendi) haqidagi eng muhim ma'lumotlarni aks ettirishi.
2. Ergonomini yaratishda tilning adabiy me'yorlari (fonetik, leksik, orfoepik, grammatik, uslubiy me'yorlar)ga rioya etilishi.
3. Ergonomimning til egalarining umummilliy madaniy qarashlari, an'analari, mentaliteti, dunyoqarashi, psixologiyasiga zid kelmasligi.
4. Ergonomimning ijtimoiy-siyosiy tizim tamoyillariga zid kelmasligi.
5. Ergonomimning insonda yolg'on tasavvur uyg'otmasligi, aksincha, uni o'ziga jalg etishi, tasavvurida ijobiy munosabat hosil qilishi hamda xotirasida tez va oson saqlanib qolishi.
6. Ergonomimning til egalari uchun tushunarli, aniq hamda talaffuzga oson bo'lishi.
7. Ergonomimning samarali kommunikativ muloqot uchun xizmat qilishi.
8. Ergonomimning mahsulot va iste'molchi o'rtasida aloqa ko'prigi vazifasini bajarishi.
9. Ergonomimning boshqa nomlar bilan o'xshash bo'lib qolmasligi, ular anglatgan mahsulotlarni yodga solmasligi.

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, tilda ergonimlarning hosil bo'lishida nafaqat lingvistik, balki psixologik, milliy-madaniy mezonlar ham muhim ahamiyat kasb etadi. Har bir obyektga mohiyati jihatidan mos keladigan nom qo'yish har tomonlama ahamiyatga egadir. Nom tanlashda milliylik tamoyili ustuvorlik kasb etsa, tabiiyki, bu insonlarga milliy g'urur baxsh etibgina qolmay, milliy tilimizning ham tanilishida muhim rol o'ynaydi. Qolaversa, ohangdor, mazmundor, chiroyli nomlar yurtimizga bezak bo'lishdan tashqari, kishilarga ruhiy ko'tarinkilik ham bag'ishlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Shukurov O. O'zbek tili zamонави о'злашмаларининг еволютсијаси, трансформатсијаси ва замонави талқини масалалари: Филол. фан. ...доктори (DSc) дисс. автoref -قارши: 2022. -B. 62
2. Saparniyazova M. O'zbek tili ergonimlarning struktur-semantik, lingvomadaniy va pragmatik tadqiqi: Filol. Fan. ...doktori (DSc) diss. avtoref - Toshkent: 2023. -B. 75
3. Mahmudov N. Olamning lisoniy manzarasi va so'z o'zlashtirish // O'zbek tili va adabiyoti. 2015. №3. -B. 3-12
4. Ro'zimoyev S. Yangibayeva S. Ergonimlarning ma'no qirralari // Ilm sarchashmalari. 2017. -B. 92-96
5. Lutfullayeva, D. E., Assotsiativ tilshunoslik nazariyasi (Monografiya) "Merius" Toshkent: 2017. -B. 140
6. <https://www.dictionary.com/e/borrowed-words>
7. O'zbek tilining izohli lug'ati. Beshinchi jild. – Toshkent: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" davlat ilmiy nashriyoti, 2006. -B. 591
8. O'zbek tilining izohli lug'ati. Ikkinchchi jild. – Toshkent: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" davlat ilmiy nashriyoti, 2006. -B. 671

LINGVISTIK EKSPERTIZA TALQININING QADIMIY ASOSLARI

*Axmedov Ro‘zibek To‘raqul o‘g‘li
Qarshi davlat universiteti magistranti*

Annotatsiya. Matnda lingvistik ekspertizaning tarixiy rivojlanishi, uning huquqiy tizimlar bilan bog‘liq o‘rni va zamonaviy ahamiyati haqida so‘z boradi. Qadimgi Misr va Rimda huquqiy matnlarni ehtiyyotkorlik bilan talqin qilish zarurati sezilgan, bu tilning huquqdagi o‘rni haqida muhim tushunchalarni shakllantirgan. O‘rtalarda va ma’rifatparvarlik davrida huquqiy matnlarni aniq talqin qilish zarurati kuchaygan, bu esa lingvistik ekspertizaning rasmiylashishiga olib keldi. 19-asrda, ayniqsa, sud-tibbiy tilshunoslikning alohida soha sifatida shakllanishi, tilshunoslik nazariyasining huquqiy amaliyotga integratsiyalashuvi bilan bog‘liq muhim o‘zgarishlarni keltirib chiqardi. 20-asrda tilshunos mutaxassislar sud ishlarida, ayniqsa tuhmat, jinoiy tergovlar va ijtimoiy muammolar bo‘yicha faol ishtirok etishgan. Bugungi kunda lingvistik ekspertiza global va raqamli muloqotning murakkabliklari bilan bog‘liq muammolarni hal qilishda muhim vosita bo‘lib qolmoqda, bu soha huquqiy, ijtimoiy va texnologik taraqqiyotga qarab rivojlanishda davom etmoqda.

Kalit so‘zlar: Lingvistik ekspertiza, huquqiy tizimlar, talqin, tilning huquqdagi o‘rni, huquqiy matnlar, sud-tibbiy tilshunoslik, tilshunoslik nazariyasi, huquqiy amaliyot, sud ishlarida tilshunoslari, tuhmat, jinoiy tergovlar, ijtimoiy muammolar, global muloqot.

Huquqiy kontekstdagi lingvistik ekspertizaning dastlabki namunalarini til va huquq bir-biri bilan chambarchas bog‘langan qadimgi sivilizatsiyalarda ko‘rish mumkin. Masalan, Qadimgi Misrda ulamolar qonunlar va qonuniy qarorlarni yozib olish uchun mas’ul bo‘lgan juda muhim lavozimlarni egallagan. Ushbu dastlabki mutaxassislar huquqiy hujjatlarda aniq tilning kuchini tushunishgan, chunki noto‘g‘ri talqin qilish jiddiy oqibatlarga olib kelishi mumkin.

Xuddi shunday, Qadimgi Rimda kodifikatsiyalangan huquqning dastlabki namunalaridan bo‘lgan O‘n ikki jadval qonunlari diqqat bilan lingvistik talqinni talab qilgan. Odil sudlovni amalga oshirishda tushunarli tilning muhimligini ta’kidlab, ushbu qonunlarni tushuntirish va sharhlash uchun ko‘pincha huquqshunoslari yoki juris konsulti chaqirilgan. Bu esa tilni ehtiyyotkorlik va aniqlik bilan talqin qilish zarurligi

haqidagi g‘oyaga zamin yaratdi, bu g‘oya asrlar davomida sezilarli darajada rivojlanib boradi.¹

Lingvistik talqinning qonunchilikdagi ahamiyati islom huquqshunosligida ham yaqqol namoyon bo‘ldi. Arab tilini chuqur bilgan olimlar islom huquqining asosiy matnlari bo‘lgan Qur’on va Hadislarni sharhlash uchun zarur edi. Ushbu olimlar so‘zlarning ma’nosi kontekst, auditoriya va tarixiy sharoitga qarab o‘zgarishi mumkinligini tan olib, ushbu matnlarni talqin qilishning murakkab usullarini ishlab chiqdilar. Tilni talqin qilishning murakkabligini erta anglash zamonaviy lingvistik tajribaning kashshofidir.

O‘rta asrlar: sud tilshunosligining yuksalishi

O‘rta asrlarda, xususan, Yevropada lingvistik ekspertizaning huquq sohasidagi roli yanada rasmiylashtirildi. Masalan, Angliyada umumiy huquq tizimining rivojlanishi huquqiy pretsedentga va sud qarorlarini sharhlashga ko‘proq e’tibor qaratdi. Til bu jarayonda muhim vositaga aylandi, chunki advokatlar va sudyalar o‘tmishdagi qarorlarning aniq ma’nolarini yangi ishlarga qo‘llash uchun talqin qilishlari kerak edi.

Bu davrda huquqiy hujjatlarning murakkablashuvi kuchayib borishi bilan tilning huquqdagi o‘rni yanada ta’kidlandi. Sharhnomalar, nizomlar va boshqa huquqiy hujjatlar keng tarqalib borgani sari, bu matnlarni sharhlashda tajribaga ehtiyoj ortdi. Yuridik mutaxassislar tilni tahlil qilishga ixtisoslasha boshladilar, bu esa oxir-oqibat sud-tibbiy tilshunoslikka aylanishi uchun zamin yaratdi.

Islom olamida lingvistik ekspertiza an’anasi rivojlanishda davom etdi, olimlar huquqiy talqinda tilning nozik jihatlariga ko‘proq e’tibor qaratdilar. "Ilm al-lug‘at" yoki til haqidagi fan huquqiy ta’limning muhim qismiga aylandi, olimlar so‘zlarning nafaqat to‘g‘ridan to‘g‘ri ma’nolarini, balki ularning ta’siri va maqsadini ham o‘rganishdi. Tilshunoslik talqiniga bunday yaxlit yondashuv zamonaviy sud-tibbiy tilshunoslikning aniq kashshofidir.

Ma’rifat va huquqning kodifikatsiyasi

Ma’rifatchilik davri qonun va tilni tushunish va qo‘llash usullariga jiddiy o‘zgarishlar kiritdi. Aql, ilm-fan va empirik dalillarga e’tibor qaratish qonunga nisbatan tizimliroq yondashuvlarni, jumladan, ko‘plab Yevropa mamlakatlarida huquqiy tizimlarning kodifikatsiyasini ishlab chiqishga olib keldi. Bu davr samarali bo‘lishi uchun aniq va aniq tilni talab qiladigan Fransiyadagi Napoleon kodeksi kabi keng qamrovli huquqiy kodlar nashr etildi.²

¹ Umrzaqova, G., & To‘rayeva, D. (2022). MUAMMOLI YOZISHMALARDA TAHIDIGA DOIR SO‘ZLARNING LINGVISTIK EKSPERTIZASI. *Prospects of Uzbek applied philology*, 1(1).

² Olsson J. Forensic Linguistics. 2nd.ed. London: Continuum International Publishing Group, 2008. 256 p.

Huquqiy kodekslarning keng tarqalishi bilan lingvistik ekspertizaga bo‘lgan ehtiyoj ortdi. Advokatlar va sudyalar ushbu kodekslardagi so‘zlarning nafaqat so‘zma-so‘z ma’nolarini, balki ular yetkazish uchun mo‘ljallangan kengroq tamoyillarni ham tushunishlari kerak edi. Bu davrda yuridik germenevtikaning ham yuksalishi, huquqiy talqinni o‘rganish, huquqiy matnlarni izohlashda kontekst, tarix va maqsad muhimligini ta’kidlagan.

Ma’rifatparvarlik davri tilshunoslik nazariyasining rivojlanishiga ham ta’sir ko‘rsatdi. Jon Lokk va Jan-Jak Russo kabi faylasuflar til haqida ko‘p yozganlar, ular so‘zlar shunchaki o‘zboshimchalik belgilari bo‘lmay, balki inson tafakkuri va jamiyati bilan chuqur bog‘langanligini ta’kidlaganlar. Tilni murakkab, ijtimoiy hodisa sifatida tushunish keyinchalik lingvistik ekspertiza, xususan, semantika sohasidagi rivojlanish uchun zamin yaratdi.

19-asr: Zamonaviy sud-tibbiy tilshunoslikning tug‘ilishi

19-asr zamonaviy sud-tibbiy tilshunoslikning alohida soha sifatida boshlanishini belgilab berdi. Huquqiy tizimlar rivojlanishda davom etar va murakkablashib borar ekan, huquqiy kontekstlarda ixtisoslashgan lingvistik ekspertiza zarurati tobora ortib bordi. Ommaviy axborot vositalarining paydo bo‘lishi va ommaviy muloqotning ahamiyati ortib borishi huquqiy nizolarda tilni talqin qilishda yangi muammolarni keltirib chiqardi.

Bu davrdagi muhim voqealardan biri tuhmat, yolg‘on axborot va nafrat qo‘g‘atuvchi so‘zlar bilan bog‘liq huquqiy tartib-qoidalarning rasmiylashtirilishi bo‘ldi. Gazetalar va ommaviy kommunikatsiyaning boshqa shakllari keng tarqalib borgani sari tilning zarar yetkazish imkoniyatlari ortdi. Sudlar muayyan bayonotlar tuhmat yoki yolg‘on axborot ekanligini aniqlash uchun tilni ekspert tahlili zarurligini tan olishni boshladidi.

Shu bilan birga, tilshunoslik sohasining o‘zi ham jiddiy o‘zgarishlarni boshdan kechirdi. Vilgelm fon Gumboldt va Avgust Shleyxer kabi olimlar boshchiligidagi tarixiy tilshunoslikning rivojlanishi til evolyutsiyasi va uning jamiyatdagi rolini tushunish uchun yangi vositalarni taqdim etdi. Bu o‘zgarishlar lingvistik tahlilni huquqiy kontekstda qo‘llash uchun zamin yaratdi, chunki mutaxassislar ushbu yangi lingvistik nazariyalarni huquqiy matnlarni sharhlashda qo‘llay boshladilar.³

19-asrning oxirlarida, xususan, Ferdinand de Sossyur ijodida strukturaviy tilshunoslikning ham yuksalishi kuzatildi. Sossyurning belgining o‘zboshimchalik xususiyati (so‘z va uning ma’nosi o‘rtasidagi munosabat) va til tuzilishining tizim

³ Musulmonova, K. X. (2023). LINGVISTIK EKSPERTIZANING OBYEKTI VA PREDMETI, MAQSAD VA VAZIFALARI. *Theoretical aspects in the formation of pedagogical sciences*, 2(13), 89-93.

sifatidagi ahamiyati haqidagi g'oyalari huquqiy talqinga chuqur ta'sir ko'rsatdi. Bu g'oyalari so'zlarning o'zgarmas, o'ziga xos ma'noga ega ekanligi haqidagi tushunchaga qarshi chiqди, buning o'rniga ma'no til tizimidagi so'zlar o'rtasidagi munosabatlardan kelib chiqadi. Tushunishdagi bu o'zgarish huquqiy kontekstda lingvistik ekspertiza uchun yanada nozik yondashuvlar uchun yo'l ochdi.

20-asr: Sud zalida lingvistik ekspertiza

20-asrda lingvistik ekspertiza huquq tizimida tan olingan va hurmatga sazovor soha sifatida shakllangan. Bu davr sud-tibbiy tilshunoslikning rasmiy lashtirilishi, tilshunoslik nazariyasining huquqiy amaliyatga integratsiyalashuvi va til huquqlarining inson huquqlari sifatida e'tirof etilishi kabi bir qancha muhim o'zgarishlar bilan ajralib turdi.

Ushbu davrdagi eng muhim o'zgarishlardan biri lingvistik ekspertizadan yuqori darajadagi sud ishlarida qo'llanilishi bo'ldi. Masalan, Qo'shma Shtatlarda tilshunos mutaxassislar tuhmat, tovar belgilariga oid nizolar va hatto jinoiy tergov bilan bog'liq ishlarda qo'llaniladigan tilni tahlil qilishga chaqirilgan. 1930-yillardagi mashhur Lindbergning odam o'g'irlash ishi, bu yerda to'lov eslatmalarining lingvistik tahlili hal qiluvchi rol o'ynagan, jinoiy tergovda qo'llanilgan sud-tibbiy tilshunoslikning eng dastlabki namunalaridan biridir.

Bu davrda tilshunoslikning o'zi ham kengayib, rang-barang bo'lib bordi. Ijtimoiy lingvistika, psixolingvistika va nutq tahlili kabi yangi kichik sohalarning rivojlanishi huquqiy kontekstda tilni tahlil qilishning yangi vositalari va usullarini taqdim etdi. Ushbu ishlanmalar tilshunoslarga kontekst, so'zlovchi niyati va tilning ijtimoiy oqibatlari kabi omillarni hisobga olgan holda tildan foydalanishning yanada murakkab tahlillarini taklif qilish imkonini berdi.

20-asr o'rtalarida kontekst tilni talqin qilishga qanday ta'sir qilishini o'r ganuvchi pragmatikaning ham yuksalishi kuzatildi. Pragmatika tilshunoslар uchun muhim vositaga aylandi, ayniqsa noaniq yoki bilvosita til bilan bog'liq hollarda. Misol uchun, ko'zda tutilgan tuhmat yoki yashirin tahdidlar holatlarida pragmatik tahlil bayonotning asl ma'nosi va maqsadini aniqlashga yordam beradi.

Shu bilan birga, 1960- va 1970-yillardagi fuqarolik huquqlari harakati til va hokimiyat masalalariga, xususan, kamsitish va nafrat nutqiga e'tibor qaratdi. Tilshunos mutaxassislar marginal guruhlarga nisbatan kamsitish yoki zo'ravonlikni qo'zg'atish uchun ishlatilgan til bilan bog'liq huquqiy ishlarda ko'proq rol o'ynay boshladilar. Bu davrda tilning ijtimoiy kuch tuzilmalarini aks ettirish va mustahkamlash usullarini tahlil qilish usuli bo'lgan tanqidiy nutq tahlili ham rivojlandi. Ushbu ishlanmalar lingvistik ekspertiza doirasini an'anaviy yuridik matnlardan tashqari kengroq kommunikativ amaliyotlarni o'z ichiga olgan holda kengaytirishda muhim rol o'ynadi.

20-asr oxiri va 21-asr boshlari: baynalmilallahuv va texnologik taraqqiyot.

20-asr oxiri va 21-asr boshlarida dunyo tobora o‘zaro bog‘lanib borar ekan, lingvistik ekspertiza sohasi globallashuv va raqamli aloqaning yuksalishi bilan bog‘liq muammolarni hal qilish uchun kengaya bordi. Xalqaro huquqning, xususan, inson huquqlari, savdo va atrof-muhitni muhofaza qilish kabi sohalarda tobora ortib borayotgan ahamiyati tilshunoslar uchun yangi imkoniyatlar va muammolarni keltirib chiqardi.

Xalqaro huquqiy organlar, masalan, lingvistik huquqlar, tilni kuchaytirish vositasi va zulm vositasi bo‘lishi mumkinligini tan oladi.

Bu davrda sha’n, qadr-qimmat, daxlsiz huquqlarni himoya qilishda lingvistik ekspertizaning o‘rni yanada yaqqol namoyon bo‘ldi. Mutaxassislar nafrat so‘zları, kiberbullying va onlayn ta’qib holatlarida tilni tahlil qilishga ko‘proq chaqirildi, bu erda ko‘pincha yuqori xavf va oqibatlari og‘ir edi. Ijtimoiy media va boshqa raqamli platformalarning yuksalishi til tez tarqalib, global auditoriyaga yetib borishi mumkin bo‘lgan onlayn muloqotning murakkabliklaridan o‘tishga majbur bo‘lgan tilshunoslar uchun yangi muammolarni keltirib chiqardi.⁴

Texnologik taraqqiyot tilshunoslar uchun mavjud vositalar va usullarni ham o‘zgartirdi. Tabiiy tilni qayta ishlash (TTQ) va boshqa hisoblash texnikasining rivojlanishi katta hajmdagi matnlarni tahlil qilish imkonini berdi, bu mutaxassislarga qo‘lda tahlil qilish orqali aniqlash qiyin bo‘lgan tildan foydalanishning naqshlari va tendensiyalarini aniqlash imkonini berdi. Ushbu texnologiyalar, shuningdek, bugungi globallashgan dunyoda tobora keng tarqalgan ko‘p tilli va ko‘p madaniyatli muloqotni tahlil qilishga yordam berdi.

Raqamli ma’lumotlarning ortib borishi, shuningdek, lingvistik ekspertizadan foydalanish bo‘yicha yangi axloqiy va huquqiy savollarni tug‘dirdi. Maxfiylik, rozilik va avtomatlashtirilgan tahlilda tarafkashlik ehtimoli kabi masalalar tilshunoslar va huquqshunoslar uchun assosiy muammolarga aylandi. Tilshunoslik ekspertizasida texnologiyadan foydalanish bo‘yicha aniq ko‘rsatmalar va standartlarga bo‘lgan ehtiyoj ushbu sohaning rivojlanishi davom etar ekan, yanada dolzarb bo‘lib qoldi.

Lingvistik ekspertiza standartlari evolyutsiyasi

Lingvistik ekspertiza standartlari evolyutsiyasi huquqiy, ijtimoiy va texnologik omillarning kombinatsiyasi bilan shakllangan. Huquqiy tizimlar murakkablashgani sari ixtisoslashgan lingvistik ekspertizalarga bo‘lgan ehtiyoj ortib, bu soha uchun rasmiy standartlar va yo‘riqnomalarni ishlab chiqishga olib keldi. Bugungi kunda

⁴ DmitryV. BaktheeV Forensic examination of anonymous handwritten documents in order to obtain data on the identity of their author and performer. ORCID: 0000-0002-0869-601X Criminalistics Department Ural State Law University Yekaterinburg, Russia. P-11

lingvistik ekspertiza huquqiy kontekstda shaxs huquqlarini himoya qilishda, xususan, sha'n, qadr-qimmat va boshqa daxlsiz huquqlarni buzishda hal qiluvchi rol o'ynaydi.

Lingvistik ekspertiza standartlarining tarixiy evolyutsiyasi tilning qonundagi ahamiyati tobora ortib borayotgan e'tirofini aks ettiradi. Qadimgi sivilizatsiyalardagi dastlabki ildizlardan tortib xalqaro huquq va raqamli aloqadagi zamonaviy qo'llanilishigacha lingvistik ekspertizaadolatni ta'minlash va shaxs huquqlarini himoya qilishning muhim vositasiga aylandi. Soha rivojlanishda davom etar ekan, lingvistik ekspertiza huquqiy tizimning muhim tarkibiy qismi bo'lib qolishini ta'minlash, yangi texnologiyalar va globallashgan dunyoning murakkabliklari bilan bog'liq muammolarni hal qilish tobora muhim ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Umirzaqova, G., & To'rayeva, D. (2022). MUAMMOLI YOZISHMALARDA TAH DIDGA DOIR SO'ZLARNING LINGVISTIK EKSPERTIZASI. Prospects of Uzbek applied philology, 1(1).
2. Olsson J. Forensic Linguistics. 2nd.ed. London: Continuum International Publishing Group, 2008. 256 p
3. Musulmonova, K. X. (2023). LINGVISTIK EKSPERTIOZANING OBYEKTI VA PREDMETI, MAQSAD VA VAZIFALARI. Theoretical aspects in the formation of pedagogical sciences, 2(13), 89-93.
4. DmitryV. BakhteeV Forensic examination of anonymous handwritten documents in order to obtain data on the identity of their author and performer. ORCID: 0000-0002-0869-601X Criminalistics Department Ural State Law University Yekaterinburg, Russia. P-11

МАКТАБГАЧА ТА'LIM TASHKILOTLARIDA TA'LIM OLUVCHI BOLALARING SOG'LOM OVQATLANISH TEXNOLOGIYASI

Sadullayeva Dilfuza Murodilloyevna

Toshkent amaliy fanlar universiteti Maktabgacha ta'lismetodokasi kafedrasini o'qituvchisi

Annotatsiya: Maktabgacha ta'lism tashkilotlari bolalar uchun muhim ta'lim muassasalari bo'lib, ularning sog'lom ovqatlanishi, jismoniy va ruhiy rivojlanishida muhim rol o'ynaydi. Tarbiyachilar bolalarning sog'lom ovqatlanish texnologiyalarini bilishi va ulardan foydalanishi zarur, chunki bu bolalarning sog'lig'i va o'sishiga bevosita ta'sir qiladi. Ushbu maqolada maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tarbiyachilarning sog'lom ovqatlanish texnologiyasini amalga oshirish usullari va ahamiyati haqida so'z yuritamiz.

Kalit so'zlar: maktabgacha ta'lim tashkilotlari, bolalar, tarbiyachilar, sog'lom ovqatlanish texnologiyasi, to'g'ri ovqatlanish, jamiyat, ota-onalar.

Аннотация: Дошкольные образовательные учреждения являются важными образовательными учреждениями для детей и играют важную роль в их здоровом питании, физическом и умственном развитии. Педагогам необходимо знать и использовать технологии здорового питания детей, поскольку оно напрямую влияет на здоровье и рост детей. В данной статье мы поговорим о методах и значении внедрения педагогами технологии здорового питания в дошкольных образовательных организациях.

Ключевые слова: организации дошкольного образования, дети, воспитатели, технология здорового питания, правильное питание, общество, родители.

Abstract: Preschool educational institutions are important educational institutions for children and play an important role in their healthy nutrition, physical and mental development. Educators need to know and use healthy eating technologies for children, because it directly affects children's health and growth. In this article, we will talk about the methods and importance of teachers' implementation of healthy eating technology in preschool educational organizations.

Key words: preschool education organizations, children, educators, healthy food technology, proper nutrition, society, parents.

KIRISH

Sog'lom ovqatlanish texnologiyasi, avvalo, bolalarning ovqatlanishiga doir bilimlarni o'z ichiga oladi. Tarbiyachilar bolalarga sog'lom ovqatlanishning

ahamiyatini tushuntirishlari, ularni to'g'ri ovqatlanish qoidalari bilan tanishtirishlari kerak. Bu jarayonda tarbiyachilar bolalarga turli xil oziq-ovqat mahsulotlarining foydali va zararli tomonlarini ko'rsatishlari, shuningdek, ularni qanday qilib sog'lom ovqat tayyorlashni o'rgatishlari muhimdir. Maktabgacha ta'lif tashkilotlarida sog'lom ovqatlanish texnologiyasini amalga oshirish uchun bir qator usullar va metodlar mavjud. Tarbiyachilar bolalar bilan birgalikda ovqat tayyorlash jarayonida ishtirok etishlari mumkin. Bu nafaqat bolalarga ovqat tayyorlashni o'rgatadi, balki ularning qiziqishini oshiradi va sog'lom ovqatlanishga bo'lgan qiziqishlarini rivojlantiradi. Masalan, bolalar sabzavotlar va mevalarni to'g'rakash, salat tayyorlash yoki oddiy taomlar pishirish jarayonida ishtirok etishlari mumkin.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA TADQIQOT METODOLOGIYASI

Sog'lom ovqatlanish texnologiyasini amalga oshirishda tarbiyachilar bolalarga oziq-ovqat mahsulotlarining xilma-xilligini ko'rsatishlari zarur. Bolalarga turli xil sabzavotlar, mevalar, donli mahsulotlar va sut mahsulotlarini tanishtirish, ularning sog'lom ovqatlanishdagi o'rnini tushuntirish muhimdir. Bu jarayonda tarbiyachilar bolalarga oziq-ovqat mahsulotlarining vitaminlar, minerallar va boshqa foydali moddalar bilan boyligini ko'rsatishlari kerak. Sog'lom ovqatlanish texnologiyasini amalga oshirishda tarbiyachilar bolalarga ovqatlanish rejimini o'rnatishlari zarur. Bolalar uchun to'g'ri ovqatlanish rejimi ularning sog'lig'i va rivojlanishi uchun muhimdir. Tarbiyachilar bolalarga kun davomida qachon va qanday ovqatlanish kerakligini o'rgatishlari, shuningdek, ovqatlanish vaqtida qoidalarni belgilashlari muhimdir. Bu bolalarning ovqatlanish odatlarini shakllantirishga yordam beradi. Tarbiyachilar sog'lom ovqatlanish texnologiyasini amalga oshirishda bolalarning ovqatlanishiga doir qiziqarli o'yinlar va faoliyatlar tashkil etishlari mumkin. Masalan, bolalar uchun sog'lom ovqatlar haqida viktorinalar, o'yinlar yoki san'at faoliyatları o'tkazish orqali ularning qiziqishini oshirish mumkin. Bu jarayon bolalarning sog'lom ovqatlanishga bo'lgan qiziqishini yanada kuchaytiradi. Maktabgacha ta'lif tashkilotlarida sog'lom ovqatlanish texnologiyasini amalga oshirishda tarbiyachilarining o'zlari ham sog'lom ovqatlanish qoidalariiga amal qilishlari zarur. Tarbiyachilar bolalar uchun namuna bo'lishlari, o'zlari sog'lom ovqatlanish odatlarini shakllantirishlari muhimdir. Bu bolalarga sog'lom ovqatlanishning ahamiyatini ko'rsatadi va ularni sog'lom turmush tarziga rag'batlantiradi.[1]

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Sog'lom ovqatlanish texnologiyasini amalga oshirishda ota-onalar bilan hamkorlik qilish muhimdir. Tarbiyachilar ota-onalar bilan sog'lom ovqatlanish bo'yicha maslahatlar berishlari, ularni bolalarining ovqatlanishiga e'tibor berishga chaqirishlari zarur. Ota-onalar bilan birgalikda sog'lom ovqat tayyorlash va ovqatlanish odatlarini shakllantirish jarayonida hamkorlik qilish bolalarning sog'lom

ovqatlanishiga ijobjiy ta'sir ko'rsatadi. Natijada, maktabgacha ta'lism tashkilotlarida tarbiyachilarining sog'lom ovqatlanish texnologiyasi bolalarning sog'lig'i va rivojlanishi uchun muhim ahamiyatga ega. Tarbiyachilar sog'lom ovqatlanish qoidalarini bilishlari, bolalarga ularni o'rgatishlari va o'zлari namuna bo'lishlari zarur. Sog'lom ovqatlanish texnologiyasini amalga oshirishda ota-onalar bilan hamkorlik qilish, bolalarning qiziqishini oshirish va ovqatlanish rejimini o'rnatish muhimdir. Bu jarayon bolalarning sog'lom ovqatlanish odatlarini shakllantirishga yordam beradi va ularning jismoniy va ruhiy rivojlanishiga ijobjiy ta'sir ko'rsatadi.[2]

Maktabgacha ta'lism tashkilotlarida sog'lom ovqatlanish texnologiyasini amalga oshirish orqali bolalar sog'lom, baxtli va muvaffaqiyatli hayot kechirishlari uchun zarur bo'lgan asosiy bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishadi. Tarbiyachilar ushbu jarayonda muhim rol o'ynaydi va ularning mehnati bolalarning kelajagi uchun katta ahamiyatga ega. Sog'lom ovqatlanish texnologiyasining muvaffaqiyati bolalar uchun sog'lom va baxtli hayot kechirish imkoniyatlarini yaratadi. [3]

Shu bilan birga, maktabgacha ta'lism tashkilotlarida sog'lom ovqatlanish texnologiyasini amalga oshirishda tarbiyachilar o'z bilim va ko'nikmalarini doimiy ravishda yangilab borishlari zarur. Oziq-ovqat mahsulotlari va sog'lom ovqatlanish bo'yicha yangi tadqiqotlar, usullar va yondashuvlar haqida ma'lumot olish, tarbiyachilarining professional rivojlanishida muhim ahamiyatga ega. Bu ularning bolalar bilan ishlash jarayonida yanada samarali bo'lishlariga yordam beradi. Maktabgacha ta'lism tashkilotlarida sog'lom ovqatlanish texnologiyasini amalga oshirishda tarbiyachilar, ota-onalar va jamiyat o'rtasida hamkorlikni rivojlantirish muhimdir. Ota-onalar bolalarining ovqatlanishiga e'tibor berishlari, sog'lom ovqat tayyorlashda tarbiyachilar bilan birqalikda ishlashlari zarur. Bu jarayon bolalarning sog'lom ovqatlanish odatlarini shakllantirishga yordam beradi va ularning jismoniy va ruhiy rivojlanishiga ijobjiy ta'sir ko'rsatadi.[4]

XULOSA


Xulosa qilib aytganda, maktabgacha ta'lism tashkilotlarida tarbiyachilarining sog'lom ovqatlanish texnologiyasi bolalarning sog'lig'i va rivojlanishi uchun muhim ahamiyatga ega. Tarbiyachilar sog'lom ovqatlanish qoidalarini bilishlari, bolalarga ularni o'rgatishlari va o'zлari namuna bo'lishlari zarur. Sog'lom ovqatlanish texnologiyasini amalga oshirishda ota-onalar bilan hamkorlik qilish, bolalarning qiziqishini oshirish va ovqatlanish rejimini o'rnatish muhimdir. Bu jarayon bolalarning sog'lom ovqatlanish odatlarini shakllantirishga yordam beradi va ularning jismoniy va ruhiy rivojlanishiga ijobjiy ta'sir ko'rsatadi. Maktabgacha ta'lism tashkilotlarida sog'lom ovqatlanish texnologiyasini amalga oshirish orqali bolalar sog'lom, baxtli va muvaffaqiyatli hayot kechirishlari uchun zarur bo'lgan asosiy bilim va ko'nikmalarga

ega bo'lishadi. Tarbiyachilar ushbu jarayonda muhim rol o'yнaydi va ularning mehnati bolalarning kelajagi uchun katta ahamiyatga ega.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Ахмедова Д. (2021). «Здоровое питание и развитие ребенка». Ташкент: Министерство образования Республики Узбекистан.
2. Исмаилова Н. (2022). «Важность здорового питания в дошкольном образовании». Самарканд: Издательство СамДУ.
3. Турсынова, М. (2020). «Здоровое питание детей: теория и практика». Бухара: Бухарский государственный университет.
4. Джумаева, С. (2023). «Технологии здорового питания: применение в дошкольном образовании». Ташкент: Национальный университет Узбекистана.
5. Кадирова Л. (2021). «Инновационные подходы в детском питании». Фергана: Ферганский государственный университет.
6. Сайдова Р. (2022). «Здоровое питание в дошкольном образовании: методическое пособие». Андижан: Андижанский государственный университет.
7. Холматова А. (2023). «Здоровое питание и детская психология». Наманган: Наманганский государственный университет.

TARJIMADA LEKSIK ALMASHTIRUVDAN FOYDALANISH



Bolliyeva Shodiya Rustam qizi
TerDu talabasi +998947077818
[**bolliyevashodiya0@gmail.com**](mailto:bolliyevashodiya0@gmail.com)

Annotatsiya: Ushbu maqolada tarjimonlik transformatsiyalarining biri bo‘lgan Almashtiruv turining Leksik almashtirushi haqida so‘z boradi va leksik almashtiruvning turlari va bu turlar turli namunalar bilan tushuntirilib berilgan .

Kalit so‘zlar: Tarjimonlik transformatsiyalari , leksik almashtiruv, konkretlashtirish, umumlashtirish, sabab - natija , ekvivalent.

Almashtiruvning bu turida asl matn tilining leksik birliklari (so‘zlar va so‘z birikmali) tarjima tilida boshqa , ularning lug‘aviy ekvivalentlari bo‘lmagan leksik birliklari bilan almashtiriladi. Bunday almashtiruvda uchta hol uchraydi — konkretlashtirish , umumlashtirish, sabab- natija munosabatlariga asoslangan almashtiruv (natijaning sabab bilan ,sababning natija bilan almashtirilishi) . [3.P27]

Bu uchta holat bo‘yicha tushuntirishni davom etar ekanmiz, har biriga alohida to‘xtalib o‘tishimiz kerak. Birinchi bo‘lib konkretlashtirishdan boshlaymiz.

Konkretlashtirish deb asl matn tilidagi ma’nosini keng so‘z va so‘z birikmalarining tarjima tilidagi ma’nosini tor bo‘lgan so‘z va so‘z birikmali bilan almashtiruvga aytildi .

Konkretlashtirishning ikki turi turini farqlash mumkin: tilga oid konkretlashtirishi va kontekstual konkretlashtirishni . [3.P27] Tilga oid konkretlashtirishda ma’nosini keng so‘zning ma’nosini tor so‘z bilan almashtirushi ikki tilning qurilishidagi mavjud farqlarga bogliq boladi. Birinchidan, tarjima tilida asil matndagi leksik birlikka ma’nosini kengligi jihatidan mos keladigan leksik birlik yo‘q bo‘lishi mumkin.

Ikkinchidan, ikki tilidagi leksik belgilarning stilistik xususiyatlari bir-biriga to‘g’ri kelmasligi mumkin.

Uchinchidan, bunday almashtiruvning sababi grammatik xususiyatlarga bog‘liq bo‘lishi mumkin.

Biz konkretlashtirish va uning turlari bilan tanishib chiqdik endi uni misollar bilan tushuntiramiz .

Masalan : Ingliz tilida do fe’li ko‘p ma’nolarda qo‘llaniladi. Act, perform, or undertake kabi tarjimalari bor [13]. Tarjima jarayonida biz uni o‘zbek tilidagi turli so‘zlar bilan konkretlashtirishimiz mumkin : ishlamoq , tozalamoq , yuvmoq va hakozolar . Keling biz buni gaplarda tahlil qilib chiqamiz .

-Will you do the room?

- Sen xonani nima qilasan ?

Bu noaniq bo'lib qoldi hamma uchun, shuning uchun tarjima jarayonida uni
“ Sen xonani tozalaysanmi ?”

deb berishimiz mumkin. Asliy matndagi do tarjimada konkretlashtirishib
tozalaysanmi bo'lyapti.

Yana misollar ko'radigan bo'lsak, ingliz tilidan

-What do you do? ni

-Sen nima qilasan

deb tarjima qilamiz va buni yana ham aniqroq qilib

“Sening kasbing nima?”

deb tarjima qilishimiz maqsadga muvofiqdir .Bu yerda do fe'li kasb ma'nosida
konkretlashyapti .

Kontekstual konkretlashtirish asl matn tili va tarjima tili o'rtasidagi sistemali
farqlarga bog'liq bo'lmasdan, balki konkret kontekstga, stilistik xususiyatlarga,
masalan, gapni tugallash zarurligi , takrorlashlardan qutilish ,obrazlilik , anqlikka
erishish maqsadga bog'liq bo'ladi. [3.P28] Umulashtirish deb konkretlashtirishga
qarama - qarshi bo'lgan hodisaga aytildi : ma'nosi tor so'zlar tarjimada ma'nosi keng
so'zlarga almashtiriladi . Masalan : “Men oilam uchun sho'rva , manti , palov
pishirdim” gapini tarjima jarayonida “ I make a meal for my family”. deyishimiz
mumkin . Bu yerda sho'rva ,manti , palov tor ma'nodagi so'zlar bo'lib ularni keng
ma'noda meal ya'ni ovqat so'zi bilan umumlashtirilib ifodalashimiz mumkin .

Shuningdek , “I look after dogs ,cats ,goats” ni o'z ona tilimizga tarjima qilar
ekanmiz “Men uy hayvonlariga g'amxo'rlik qilaman” shaklida berishimiz mumkin.
Ya'ni bu yerda dogs, cats, goats umumlashtirilib uy hayvonlari bo'lib kelyapti.

Natijaning sabab bilan ,sababning natija bilan almashtirilishi bu — bir qaragandan
tushunarsiz va murakkab tuyilishi mumkin , ammo siz- biz o'ylaganchalik emas.
Bunga ta'rif beradigan bo'lsak, tarjima jarayonida sodir bo'ladigan leksik almashtiruv
turli tushunchalar orasida mavjud bo'lgan sabab - natija munosabatlariga asoslangan
bo'lishi mumkin. Masalan asl matnda ma'lum bir ish - harakat, hodisa yoki holatini
ifodalovchi leksik birlik tarjima matnida ushbu ish harakat , hodisa yoki holatni emas,
balki uning sababini ko'rsatuvchi leksik birlikka almashtiriladi.[3.P30]

Masalan : I don't blame it . Men uni tushunaman tarzda tarjima qilinadi.

Bu misolda tarjima matnida asl matndagi ish - harakatning sababi ko'rsatilgan :
Men uni ayblamayman chunki men uni tushunaman .

Shuningdek,

-He passed exam with a high score .

Bu misolni biz “ u qattiq o'qiydi “ deb tarjima qilamiz , ya'ni uning imtihondan
yaxshi natija bilan o'tishining sababi uning qattiq o'qishidadir . (U imtihondan yuqori

baho bilan o'tdi chunki u qattiq o'qiydi .) Endi sababning natija bilan almashishiga misol : A computer didn't work . Men uyga vazifani bajara olmadim. Bu misolda Kompyuter ishlamaganligi (sabab bo'lyapti) sababli, men uyga vazifani bajara (bajara olmagani natija bo'lyapti) olmadim .

Leksik almashtiruv tarjima jarayonida matnning aniqligi va chiroyli chiqishini ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. U matnni tarjima tilida tushunarli va uslubiy jihatdan mos bo'lishiga yordam beradi. Uning 3 ta turi bor : konkretlashtirish, umumlashtirish va sabab-natija va har biri turli maqsad va kontekstlarda ishlatalidi: Konkretlashtirish: Asl matndagi keng ma'noli so'zlarning tor ma'noli so'zlar bilan almashtirilishi.

Umumlashtirish: Tor ma'noli so'zlarning keng ma'noli so'zlar bilan almashtirilishi.Sabab-natija almashtiruvi: Biror hodisa yoki harakatning sababi va natijasi o'rtasidagi bog'liqlikni ifodalovchi almashtirish.

Ushbu almashtirish usullari tarjima tilida lug'aviy moslik yo'qligi, uslubiy farqlar yoki grammatik talablardan kelib chiqib qo'llaniladi. Masalan, konkretlashtirish va umumlashtirish matnni yanada aniqlashtiradi, sabab-natija almashtiruvi esa mantiqiy va semantik bog'liqlikni ta'minlaydi.

Umuman olganda ,leksik almashtiruv tarjima jarayonida tushunarilikni oshirish, matnning tabiiyligini saqlash va ikki til o'rtasidagi tafovutlarni muvozanatlash uchun asosiy vositalardan biridir. Ushbu usulni samarali qo'llash tarjimonning til va madaniyatga oid bilimiga, shuningdek, matn kontekstini chuqr tushunishiga bog'liq.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

- 1.Wisdom, electronic dictionary app version: 3.2.4
- 2.Oxford Advanced Learner's Dictionary, 10th edition (app edition)
Version 1.0.2374
Web: www.oxfordlearnersdictionaries.com
3. Allayorova .R.R "Tarjima nazariyasi va amaliyoti " Urganch 2008 .
4. " The adventures of Sherlock Holmes " Arthur Conan Doyle, 2004 p. 55
- 5.Nafisa, A. Using Stylistic Devices in Translation as an Example of the Story a Christmas Carol. JournalNX, 40-43.
6. Kizi, A. N. O. (2019). Lexical problems in rendering the story "A Christmas Carol" by Charles Dickens into uzbek. ЕВРАЗИЙСКИЙ НАУЧНЫЙ, 34.

7. Nabi, F. (2024). OFFICIAL DOCUMENTS IN DARI LANGUAGE, ITS TRANSLATION CHALLENGES. Philological research: language, literature, education, 4(4), 73-76.

8. Nabi, F., & Xudayqulov , A. (2024). GRAMMATICAL RULES OF PRINCIPLES OF ENGLISH TO DARI TRANSLATION. Interpretation and Researches, (8)(30). извлечено от <https://interpretationandresearches.uz/index.php/iar/article/view/2459>
9. Aliboyeva, N. A. Q. (2023). LITERARY TRANSLATION OF CHILDREN'S LITERATURE. CURRENT RESEARCH JOURNAL OF PHILOLOGICAL SCIENCES, 4(07), 21-25.
10. Aliboyeva, N. A. Q. (2022). The direct translation of roald dahl's novel "matilda" into Uzbek language. Asian Journal of Research in Social Sciences and Humanities, 12(9), 77-80.
11. Safarova, D. A., & Khasanova, K. B. (2022). ENGLISH TOPONYM TRANSLATION METHODS IN RUSSIAN LANGUAGE. Central Asian Research Journal for Interdisciplinary Studies (CARJIS), 2(5), 37-40.
12. Khasanova, K. B., & Safarova, D. A. (2023). BASICS OF LINGUODIDACTICS AND IT'S CONNECTION WITH OTHER SCIENCES. Builders Of The Future, 1(01), 50-52.
13. Vocabulary.com, Inc. A division of IXL Learning

GRAFIK VA GEOMETRIK SHAKLLARNING POETIK MATNLARDAGI MAZMUN XUSUSIYATLARI

Muhammadxon Hakimov

Filologiya fanlari doktori, professor.

Nargizaxon Xudoyberdiyeva


Farg'ona davlat universiteti 2-bosqich magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada o'zbek tilshunosligi uchun yangi yo'naliш hisoblangan grafikli she'rlar lingvokulturologik jihatdan tadqiq qilingan. Kompyuterda yaratilgan shakllarning poetik matn tarkibidagi o'ziga xos xususiyati misollar bilan yanada mustahkamlangan.

Kalit so'zlar: geometrik shakl, kompyuter texnologiyalari, grafik bezak, mavhum she'rlar, mualliflik belgisi.

Bugungu kunda texnologiyalar yordamida har qanday masalaning yechimi topilmoqda. Shuningdek, texnologiya kirib bormagan biror bir soha ham yo'q. So'nggi yillarda vizual poetik matnlarda ham texnologiyaning ta'sirini uchratish mumkin. Bu jihatdan turk va o'zbek tillarida kompyuter texnologiyalari natijasida vizual unsurlardan foydalangan holda vizual poetik matnlarning yorqin namunalari yaratilmoqda. Poetik matnning bunday turi turk tilida "Kompyuterda yaratilgan mavhum she'rlar" deb nomlansa, o'zbek tilida "Grafik bezak" deb yuritiladi. Buning o'ziga xos xususiyati shundaki, poetik matn semasi grafik shakllar orqali bir butunlikni tashkil qiladi. Matndan anglashilgan ma'no shaklda o'z imkoniyatlarini yanada ochib beradi. Bu turning asosiy xususiyati ham shakllar matnning qo'shimcha vositasi sifatida qo'llanilganlidadir. Biroq turk tilida ushbu turning shunday namunalarini uchratish mumkinki, faqat grafik shakllar iborat bo'lib hech qanday so'z yoki grafika ishlatalmaydi. Undagi butun mazmun faqatgina shakl orqali tushuniladi. Tarik Gunersel ijodiga oid bo'lган ushbu misollar faqat izohi bilan tushunilishga qartilgan. Chunki bir qarashda siz muallif bermoqchi bo'lган axborotni tushunishga qiyinalasiz va u turli xil izohlanishlarga olib kelishi mumkin. Turk tilidagi "Quyoshlar kilimi" deb nomlangan vizual poetik matn ana shunday turning yaqqol bir misoli bo'lib, u turli shakllardan tashkil topgan va kompyuter texnikasi yordamida yaratilgan she'rdir. "Gaia" iborasi yunon mifologiyasida yerning ramzi bo'lган va yerning timsoli bo'lган ma'buda sifatida tanilgan. Gesiodga ko'ra, Gaia hamma narsaning yaratuvchisi. U paydo bo'lган yer- ona, barcha xudolar va titanlarning onasi. Matnda Gaya nomi oldidagi belgi (Mualliflik belgisi) yer hamma narsaning yaratuvchisi sitafida qabul

qilingan Gaiaga tegishli ekanliginin bildiradi. Quyosh chiqqan va botgan har bir joy xudoning ishi ekanligi haqidagi fikr gilam naqshlari tarzida vizuallilikni hosil qiladi.



Ko'rib turganingizdek, agar ushbu misolning izohi keltirilmasa uni anglash ancha mushkul sanaladi.

Shuningdek, Turk poeziyasidagi kompyuterda yaratilgan vizual matnlar orasida "Xazina ortidan oquvchi sperma" ham o'z o'rniغا ega. Bu matn insonning paydo bo'lishini ko'rsatuvchi tasviri yana qo'shilishi shesha. Matn ramziy ishora bilan boshlangan bo'lib, unda juda ko'p yuqoriga qaratilgan o'qlar ota-ona kodlari sifatida tasvirlanadi. Turli yo'nalishga ishora qiluvchi o'qlar samarasiz va ishlamay qolgan spermatozoidlarni ifodalasa-da, spermalarning asosiy maqsadi juftlashish orqali yangi tananing tug'ilishiga vositachilik qilishdir. Ushbu tug'ulish lahzasi vizualizatsiya bilan ifodalanadi.

"Bobil minorasi" she'ri esa muqaddas kitob va rivoyatlarda tez-tez tilga olingan e'tiqodning vizual ifodasıdır. E'tiqodga ko'ra, Bobil minorasi xudoga erishish uchun qurilgan inshoatdir. Tavrot, Injil, Qur'onda tilga olingan minora odatda insonning nomukammalligini va yaratuvchining mukammalligini ifodalash uchun ishlatiladi. Bundan tashqari, din olimlaridunyodagi yuzlab tillarning kelib chiqishini tushuntirish uchun Bobil minorasi haqida gapirishadi. Matnda timsollar bilan yaratilgan shakl tillarning kelib chiqishini ifodalovchi sifatida talqin qilinishi mumkin. Shuningdek, Bobil minorasining dunyoning yeti mo'jisidan biri sanalishi bilan she'rdagi shakl o'rtasida bo'sh joy qo'yilgan holda yaratilgan 8 raqami o'rtasida ham bog'lanish mavjud. Bu o'rinda "Bobil minorasi"ning yozilishi ham sakkizinchı mo'jiza sifatida e'tirof etilayotgan bo'lsa ajab emas. Bobil minorasining qurilganligiga ming yillar

o'tgan bo'lsa ham, Yaratganning komilligi oldida insonning nomukammal xatti-harakati davom etmoqda. Bu ma'no haqida odamlarni o'ylantirish uchun adresant tasviriylikdan foydalanadi. Xuddi shundan tasviriylik "Xirosima minorasi" vizual poetikasida ham qo'llaniladi. Tinchlik monumenti sifatida qurilgan yodgorlik she'riyatdagi timsollar bilan yaratilgan.

Ushbu turdan ko'zlangan maqsad xabarni so'z ishlatmasdan, shakllar bilan eng ajoyib tarzda ifodalaydi. Shakl va predmetning sahifada o'ziga xos ma'no bilan paydo bo'lishi ma'no zichligini ham olib keladi. Ba'zan so'z bilan ifodalamoqchi bo'lган his-tuyg'u va fikrni ifodalashning hojati yo'q.

"Harbiy to'ntarish" deb nomlangan tasviriy she'rda qo'llanilgan yo'l belgisi harbiy to'ntarish natijasida jamiyatda va mamlakatda yuzaga kelgan qisqarish va zerikishni eng aniq shaklda ifodalaydi. Adresat adresant bermoqchi bo'lган semantikani bir qarashdayoq tushunadi.

"Yangi alifbo" she'rida yuqoriga yoki pastga cho'zilgan harflar olib tashlangan va "o'ta uchli harflar ham taqiqlangan" deb so'z erkinligini cheklanganini aytadi.

"Bir xil xalq" matni esa qora to'rtburchakdan iborat. Ko'p millatli dablatlarda bir xil struktura ko'plab elementlarning yonma-yon yashashi natijasida paydo bo'ladi. Turkiyada bo'lagani kabi tarixiy va geografik birlikdan kelib chiqqan bir xil millat turli un surlarning birlashishi bilan shakllanadi. Vizualda to'rtburchak sifatida ifodalangan bu bir xillik makonning birligidan kelib chiqadi. Bitta to'rtburchak ichida tomonlarning birlashishi natijasida yogona e'tiqod hosil bo'ladi.

Hozirgi zamondagi ishq va muhabbat munosbatlar shubha ostiga olingan "Munosabatlar davri bormi" deb nomlangan matn nuqta va vergullardan iborat. Ayniqsa, yosh avlod o'rtasida o'zaro munosabatlar keskinlashganda qo'llaniladigan "munosabatga nuqta qo'yish" yoki "munosabatga vergul qo'yish" iborasi kinoya bilan ishlataladi. Nuqtalar va vergullar bilan davom etib boruvchi munosbatlarning charchoq va noaniqliliqi vizual tarzda ifodalilanadi. Nuqta va vergullar ketma-ketligi, ma'lim ma'noda, tugaydigan munosabatlar va doimiy qiziqishning aniq ko'rsatkichidir.

"Ichki atirgul" deb nomlangan navbatdagi vizual matnda esa adresantning ichki dunyosini talqin qilish mumkin. ichkariga qargan kichik uchburchak hosil qilgan kvadrat va so'roq belgilaridan yasalgan o'zak qismini modernizmning tanqidi sifatida talqin qilish mumkin. hamma narsa mexanik bo'lib, go'zallik yo'qolib, tabiiylik iste'mol qilinadigan davrda atirgul ham mexanik shaklga ega. Bu shakldagi atirgul shoir uchun go'zallik emas, balki introversiyaning konkret ko'rsatkichidir. U tashqi tomonidan ochilgan haqiqiy atirgul o'rniga introvert haqida shubha ostiga olinadigan ma'no yaratadi.

Terrorizmga e'tibor qaratib, "Biz yo'q qila olmaganlar orasida siz ham bormisiz?" vizual matni jamiyatni qonga botirgan terroristik haraktlarga bag'ishlanadi.

Terrorizmning halokat va vayron bo'lishi so'zlari qora rangga bo'yash va ma'nosiz qilish bilan ifodalaniladi. Terrorizmning halokatli tasiri qora rangga bo'yalgan va qoplangan harflar va bo'g'lnlarda naiq ifodalangan. Terrordan holi bo'lish mumkin bo'lgan juda oz sonli hududlar o'z-o'zidan mantiqiy emas. Terrorizmning har bir sohadagi ta'siri jamiyatda bo'linish va yo'qotishlarni keltirib chiqaradi. Matnda esa aynan mana shun narsa urg'u beriladi.

Gunersalning "Nyu-York" vizual poeziyasi esa 11-sentabr kuni Amerikada yuz bergen hujum haqidagi ma'lumotlarni yetkazib berish maqsadida yartilgan. 11-sentabr kuni Amerikning ramziy binolari bo'lgan egizak minoralarga qilingan hujum dunyoda ko'p narsalarnin o'zgarishiga olib keldi. Butun dunyo terrorizmga qarshi xavfsizlik strategiyalarini ishlab chiqayotgan bir paytda hujum sodir etilgan Nyu-York uchun yangi davr boshlandi. U endi oldingilariga o'xshamagan, kamchiliklarsiz yangi davrni boshlaydi. Matnda "newer-york" tarzida ifodalangan bu holat terror sabab bo'lgan yangi holatni tasavvur qilish uchun berilgan.

*Sevinçle "Bir dakika," diyor,
gidip oradaki polise beni gösteriyor,
belli ki izin alıyor

sonra
gelip kıvançla çeviriyor:
"Barış."*

*-Dokun şu düğmeye,
barış için
Bas, bu savaş bitsin.

-Bu düğme mi?*

*Bi' düğmeye bastım sadece
Hiroshima üzerinde.*

"Tugma" deb nomlangan ushbu poetik matnda ham kompyuter texnologiyasi natijasida hosil qilingan yumaloq va qora tasvir "tugma" tarzida ifodalanadi. Muallif bu matnda o'sha paytdagi his-tuyg'ularini aks ettirish uchun bir so'z bilan chekinishni xohlamaydi. Bunday holda o'sha hissiy holat bo'lgan misralarda yo'jim bo'lib, misrani bo'sh qoldiradi. Yoki misraga tegishli tinish belgilarini qo'yadi. Bu satrlarni bo'sh qoldirish deb ataladi. Yuqoridagi "Tugma" she'rida misralar orasida bo'shliq bordek. Bu Xirosimaga tashlangan atom bombasiga ishora qbo'shliq matndagi kishining

tugmani bosish yoki bosmasligi haqidagi ikkilanishni ifodalasa, ikkinchi va kattaroq bo'shliq o'zi bilmagan holda yuzaga keladigan noxush holatga afsuslanishni ifodalarydi.

She'riyat shoirning ifodaga bo'lgan ehtiyojini qondirish maqsadida o'z imkomniyatlarini muttasil rivojlantirib, yangilab boradi. Vizual poetik matnni shu davrning zamонавиy imkoniyatlaridan biri sifatida ham ko'rish mumkin. Tarik Gunersel ham adresatga pragmatik nuqtayi nazardan murojaat qilib, axborotni lison vositasida emas, aksincha, nolisoniy vositalar yordamida taqdim qilishni afzal biladi. Gunersel ijodining boy namunalari joy olgan va an'anaviy she'riyatni inkor qilgan butur turk adabiyotida "konkret she'riyat" nomi bilan yuritiladi. His-tuyg'ularini so'z bilan ifodalash orqali cheklanib qolishlikni istamagan adresant kompyuter texnologiyasi natijasida axborotni butunligicha arrestga havola etadi. Bu esa o'quvchiga berilgan mavzu doirasiga o'zi mushohada qilishga choraydi. Shu bilan birgalikda konkret she'riyatning ko'p o'qishli tuzilishga ega bo'lishi biroz ikkilanishlarga ham olib kelishini aytib o'tish joiz.

O'zbek tilida ham grafik vositalar yordamida ifodalangan bir necha poetik matnlar bo'lib, ularning ayrimlari turk tili bilan mutanosiblikni anglatса, bazilari bir-biriga qarama-qarshi mazmunda ishlatiladi. Geometrik shakllardan foydalanib, vizuallilikning o'ziga xos janrini hosil qilgan ijodkorlardan biri Faxriyor sanaladi. Uning "Geometrik bahor" deb nomlanuvchi she'ri tamomila grafik she'r turiga mansubdir.

I

- (Тўртбурчак ва шин-шийдам) боғларга қайтади баҳор
- ▷ (учта бурчаги) билан.
Боғ аслида Δ (икки баҳор) дан иборатдир,
▷ – бири қайтиб келган,
 Δ – бири қор остида қишлигани баҳор.
Бир-биридан чангланган икки гул янглиғ улар бир-бирига қовушганида (☒) кўкаради боғ (■)*.
- Баҳор боққа майсанинг тили (\blacktriangle) билан кирап билдирамай
↳ (илон) нинг оғзида жаннатта кирган шайтон сингари.
- Унинг учи игнадай ўткир учбурчакнинг таянч тўғри чизиги орта йўл бермас,
учбурчак
→ (кўрсатиш чизиги)дай фақат олдинга юрар.

“Faxriyor bu asarida rassomchilik va she’riyat o’rtasidagi qardoshlikni yana ham mustahkamlashga intiladi: turli shakllarni (ular ma’lim darajada rassomlikka xos unsurlar deb qarasa bo’ladi) so’zga ko’makchi etib saylanadi. Shakllar so’zning imkoniyatlarini to’latadi, sezgilarimizga ta’sir etadi va pirovardida tasavvurimizda rangin va hassos surat joylanadi.

Kubizm yo’nalishidagi surat ma’lum geometrik figuralarni yodga solib, musavvir olamni shu shakllar vositasida anglashga urinadi. Bu yo’nalishning yetuk namoyondalari sifatida P.Pikasso, J.Gris kabi musavvirlar e’tirof etiladi. Kubizmning ifodaviy imkoniyati benihoya cheksiz esa-da, rassomlar uchun kartinada borliqning real xususiyatlarini aks ettirish chegaralab qo’yilgandi. Shu bois kubistlar tasviridagi shakl aniq estetik predmet sifatida ko’rilmaydi.”¹

Bir qarashda shaklbozlikdan boshqa narsa emasdek tuyulgan ushbu matn o’z ichiga chuqur ma’noni yashirgan bo’lib, geometrik shakllar orqali adresant bermoqchi bo’lgan axborot yana ham faollashadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:

1. Асадуллаев А. ва бошқалар. Бадиий санъат жозибаси. Тошкент: Янги аср авлоди, 2005, 21 б.
2. Жуманиёзов Р. Эски ўзбек ёзуви. Тошкент: Ўқитувчи, 1989, 243 б
3. Мамажонов А. Текст лингвистикаси, Тошкент, 1989 -Б5.
4. Мамажонов А. , Абдулаттоев М. Матн назарияси. -Фаргона 2016. Б5.
5. Qurbanova M., Yo’ldoshev M., Matn tilshunosligi. –Toshkent: Universitet, 2014. 5-bet
6. Usmonova Sh. Lingvokulturologiya –Toshkent: 2019. 21-bet
7. Халилова М. Ўзбек тили стлистикаси асослари. Фаргона. 2009.

TURK VIZUAL MATNLARINING LEKSIK-POETIK XUSUSIYATI

Muhammadxon Hakimov

Filologiya fanlari doktori, professor.

Nargizaxon Xudoyberdiyeva

Farg'ona davlat universiteti 2-bosqich magistranti.

Annotatsiya: Ushbu maqolada tilshunosligimiz uchun yangi tur bo'lgan vizual poetik matnlarning leksik va fonetik xususiyatlari ochib berilgan. Mavzu o'zbek va turk tillaridagi misollar bilan mustajkamlangan.


Kalit so'z: mavhum she'r, vizual poetika, mutarraf, mudavvar, muakkad, geometrik shakl, mushajjar.

Vizual poetik matnlarning yana bir turi sifatida rasmga asoslangan badiiy poetik matnlar ham mavjud. Bu tur turk adabiyotida "mavhum she'r" deb yuritiladi. O'ziga xos o'qish tarziga ega bo'lgan misralardan tashkil topgan. Turk adabiyotida Melayi va Sadiqi ijodida ushbu turning beqiyos namunalarini uchratsak, o'zbek adabiyotida Faxriyorning bir talay she'rlari ushbu turga mansub sanaladi. Turk poetik matnshunosligida qaysi tasvir ifodalanganligiga qarab, vizual poetik matnlarning ushbu turi o'z ichida bir necha qismlarga bo'linadi. "Daraxt shaklida yozilganlar – mushajjar, hayvon timsolidagilar – mujassam yoki musavvar, aylana shaklidagilar – mudavvar, qush shaklidagilar – muakkad, kvadrat va geometrik shakldagilar esa mutarraf"¹ deb nomlangan. Muayyan uslubga ega bo'lgan bu she'rlarda so'zlarni teskari o'qiganda ham ma'noli bo'lishi, matnni to'g'ri o'qishda ba'zi so'zlarning harflaridan parol sifatida foydalanish, umumiy tovushlarni tasniflash kabi bir qancha tejamkorlikka asoslangan. Rasmlli vizual matnlarga oid bunday qarashlar o'zbek adabiyotida ham mavjud bo'lib, dastlab, Ataulloh Husayniyning "Badoyi us-sanoiy" asarida yuqoridagi kabi mushajjar, mudavvar, muaqqad shakllari haqida gapirib o'tadi. Bu shakllarning hammasini birlashtirib turuvchi xususiyatlari shundan iboratki, matn ekspressivligi, badiiy estetikasi tasvirning bevosita obyektivlashtirilishi natijasida vujudga keladi. Natijada matn shakl bilan uyg'unlashgan holda qo'llanilib, adresantga yetkazilishi kerak bo'lgan ta'sir kuchi bilan bir qatorda qo'shimcha axborot berish vazifasini ham bajaradi. Vizual poetik matnlarning tadqiqi borasidagi g'oyalarni ilgari surgan va shu maqsad bilan ushbu yo'naliishdagi qarashlar shakllanishining asoschisi

¹Akay, S. (2020). Görsel şiir ve Siirtli iki şairin müşeccer şiirleri. *Siirt Üniversitesi Sosyal Bilimler Enstitüsü Dergisi*, 8 (16), s. 289-303

bo‘lgan rus tadqiqotchilaridan biri “Viktor Sklovskiyning “mavhumlashish” tushunchasi turk adabiyotida yozilgan vizual she’rlardan ba’zilarining izohlanishi uchun asos bo‘lib xizmat qiladi. Tadqiqotchi ushbu “mavhumlashtirish” tushunchasini shunday izohlaydi: Yashash uchun ma’naviy quvvat berish, ba’zi narsalarni to‘laligicha his qilish, toshni qattiq jismdan yaratilganligini bilish uchun san’at deb ataladigan tur bor. San’atning maqsadi biror narsaga bo‘lgan tuyg‘uni ko‘rinadigan narsa sifatida tasvirlashdan iborat”². Haqiqatan ham vizual poetik matnlarning dastlabki bosqichida, asosan, shaklga e’tibor qaratilgan bo‘lsa, keyingi davrlarga kelib shaklga katta mazmun yuklatiladigan bo‘ldi, ya’ni endi ushbu tur ma’lum shakl orqali o‘quvchini mantiqiy fikrlashga tortadi. Shoirlar endi she’rlardagi poetik ekspressivlikni shaklga yuklay boshladи.

Mushajjar poetik matnlari. Mushajjar- daraxt shaklida tasvirlangan poetik matn turi. Arab tilidan olingan ushbu leksemaning ma’nosи “daraxt shaklida berilgan narsa” degan ma’noni anglatadi. Mushajjar arab tilshunosligining atamasi bo‘lib, uning mohiyati shundan iboratki, avval kelgan so’z keyingi kelgan so’z bilan izohlanadi. So’zlar marjonga taqilgan marvarid ipi kabi bir-biri bilan hayratlanarli tarzda tartibga solinadi va tushuntiriladi. Bu so’zlarni o’zaro bog’laydigan narsa ular o’rtasidagi sinonimlik, yaqin ma’no va ba’zan antonimlik kabi sematik munosabatlardir. Turk adabiyotida Molla Hamid ijodida ushbu turning yorqin namunasi yaratilgan.




Şekil 1. Molla Hamid Efendi'nin müşeccer şiiri

² Gökhan Tunç, Çağdaş Türk Edebiyatında Görsel Şiir, bilig, BAHAR 2015 / SAYI 73,251

Ushbu mushajjar poetik matnda Yaratgan ulug'lanib, unga baxshida shaklida bitilgan misralarda u Zotning ulug'vorligiga oid olqishlar ketma- ket darajalangan holda go'yo daraxt shoxlari kabi ta'riflar sinonimik qatorga tiziladi.

O'zbek vizual poetik matnlarida esa bunday turga oid birorta namuna yetib kelmagan, lekin Ataulloh Husayniyning "Badoyi us-sanoiy" asarida bu haqida ma'lumot keltirilgan.

Mujassam. Ushbu turga oid vizual poetik matnlarda tasvir ma'lum bir hayvon timsolida ifodalanib, matn mazmuni bevosita shu hayvon ramzi asosida yoritiladi.



Yusuf Bal ijodiga oid bo'lgan ushbu misolda bo'ri surati tasvirlangan. Matnda davlatlar o'rtasidagi ayovsiz kurashlar, qonli to'qnashuvlar bo'rining o'lja izlab uplashiga o'xshatiladi. Hatto matn so'ngida "a" tovushi orqali bo'rining uplashiga taqlid qilinadi. Bu o'rinda bo'ri ramzi yovuzlik timsoli hisoblanib, beshafqat urush qiyofasini ifodalab kelgan.



Ot shaklidagi ushbu tasvir shaxmat o'yinidagi "ot" donachasi deb nomlangan. Diniy mavzuda yozilgan ushbu poetik matn tangriga iltijo va jamiyatda bo'layotgan vaziyatga nisbatan munosabatlarni aks ettirgan. Muallif aynan shaxmat donachasini misol qilib olishining sababi shuki, jamiyatdagi oq va qora kuchlar o'rtasidagi o'zaro kurash ramziy ma'noda shu obrazlarga yuklatilgan. Poetik matn sarlovhasi "Qora ot" deb nomlanib, adresant ko'zlagan maqsad dinning buzilishiga olib kelayotgan qora kuchlarni shaxmat doskasidagi qora ot donachasi misolida berishni xohlaydi. Nima uchun aynan ot? Chunki turkiy madaniyatda ot "chopqirlik" ramzi sifatida belgilanadi. Ro'y berayotgan jirkanch voqeа – hodisalar go'yo ot singari chopib borayotganligi matnda ifodalangan.

atım	gözbebeğim
sadık-dostum0gel.	dertlerimi-dinle-benim.
yár gelmiyor	hasretliği-yetti canıma.
hangi-yüregin-hasretimi-anlamaya-gücü—yeter.	
özledim_yine-de-bir-türli-on-a-gel—diyemedim.	
sevdam_nefes-almamı-zorlaştı-bilemedim.	
söyle_nasıl-yárim-e-gel-diyebilirim-akıl-ver.	
kişne_ovalar-,dağlar-yankılansın-sesinden.	
of_güzelliğini-kim-görse-sana-tutulur.	
vereceğim_seni-yárimı-almak-için.	
ağlama-sen-de benim-gibi.	
berdel_gittin bir-köşke.	
can_atım affet,	
ne olur. atı_verirsen-yári	
alır sin dediler bana.	
rehin bit sin.	
yár gel sin.	
ya-da sen:	

Semono'g'li ijodiga oid bo'lgan ushbu vizual matnda ham chopib borayotgan ot tasviri ifodalanib, unda yor vasli mavzusi yetakchilik qiladi. Adresant otga "sodiq do'stim" deb murojaat qilar ekan, bu o'rinda otning sodiqligi bilan yorning bevafoligi antonimik munosabatlarni keltirib chiqaradi. Otni do'sti deb bilgan adresant "joni bo'g'ziga yetganligini , hasratlarini eshitgani kimsa yo'qligini, yoriga kel deb ayta olmayotganligini" faqat otga oshkor qiladi. Matn o'ziga xos o'qish usuliga ega emas. Matn ot shaklida berilishiga qaramay, undagi misralar bir qator holatida o'qilaveriladi.

Turk adabiyotida "Ikkinci yangi shoir"lar sirasiga kirgan namoyondalaridan biri Ilhan Berk bo'lib, shoirning turk adabiyotidagi o'ziga xosligi she'rlaridagi novatorligidir. Uning "Narsalar kitobi:Uy" nomli asaridan olingan quyidagi parchaga e'tibor qarataylik:

Duvar
Kapı
+ Pencere
EV (2008: 275)

3

³ Gökhan Tunç, Çağdaş Türk Edebiyatında Görsel Şiir, biling, BAHAR 2015 / SAYI 73,252

Vizual matnni tashkil qilayotgan “devor”(duvar), “eshik”(kapı) va “deraza”(pencere) so‘zlarining qo‘shilishidan “uy”(EV) so‘zi hosil bo‘lgan. She’rning bunday tarzda qurilishi uyning inson ongidagi tasvirini yaratadi. Ya’ni uyni tashlik etuvchi asosiy detallarning ongimizdagi hayoliy tasviri devor, eshik va derazadan iborat. Shu bilan birga “uy” (EV) so‘zining bosh harflarda yozilganligi yuqorida ko‘rsatilgan so‘zlarning umumiy vasfi ekanligini anglatadi. Bundan tashqari uyni tashkil qiluvchi unsurlar alohida tahlil qilinganida eshik mantiqan uyning tashqaridan berkligiga ishora qiladi. Chunki, turk tilining etimologik lug‘atlarida “eshik” so‘zi eski turk lug‘atlarida “birlashgan”, “bekilgan” degan fe’ldan hosil bo‘lgan⁴ degan qarash mavjud. Poetik matndagi bunday o‘ziga xoslik matndagi eskpressivlik xususiyatini oshiradi.

Ev

Yaprak

- Pencere

Pencere (2008: 309)

5

Ushbu she’rda esa uydan yaproq so‘zini olib tashlansa deraza paydo bo‘lishi haqidagi oddiy qarashni ko‘rishimiz mumkin. Bir qarashga oddiydek tuyulgan ushbu she’r maznunan siz va bizga mavhum bo‘lgan tushunchalarni ifodalab kelmoqda. She’rdagi uy tashqi dunyodan uzilganlik ma’nosini bersa, yaproq tabiatga ishora, deraza tabiat va uy o‘rtasidagi ko‘prik vazifasini o‘taydi. Ya’ni bu o‘rinda uy ichki dunyo, yaproq tashqi dunyo bo‘lib, deraza ikki dunyoni bog‘lovchi ko‘prikdir. Vizual poetik she’rlar zamiridagi mana shunday mavhumlik she’r maznunining o‘zgarishiga hech qanday aks ta’sir ko‘rsatmaydi.⁶

Shu bilan birgalikda Ahmet Tellining “Kichik yulduzning so‘ngi balladasi” nomli she’ri mana shunday vizual poetik matnlarning yorqin namunasi sifatida e’tirof qilinadi.

⁴nisanyansozluk.com

⁵ Gökhan Tunç, Çağdaş Türk Edebiyatında Görsel Şiir, *bilig*, BAHAR 2015 / SAYI 73,252

⁶ Gökhan Tunç, Çağdaş Türk Edebiyatında Görsel Şiir, *bilig*, BAHAR 2015 / SAYI 73,252

D ü s t ü y o r u m

t o
z s r a
a kd ü
t s l a o a
x s r y o r a
a k u m

D ü n y a o l m a s i n d a , 7

Vizual poetik matn namunasi bo‘lgan ushbu she’rda Somonyo‘lidan ayrılgan bir yulduzning osmondan yerga tushgungacha bo‘lgan o‘ylari tasvirlangan. Matnda “tushyapman”(Düşüyorum) va “xayol qilyapman” (Düslüyorum) so‘zlaridagi badiiy o‘ynoqilik matnning ham vizual, ham ma’no tomoniga jiddiy ta’sir ko‘rsatgan. Ya’ni bir qaraganda matnning birinchi jumlasidagi “tushyapman” (Düşüyorum) so‘zidagi sh(Ş) harfidan keyin 1 harfining biroz qiyavon qilib pastga joylashtirilishi bir paytning o‘zida ikki so‘zga ishora qilib kelmoqda. Bu o‘rinda 1 harfi mantiqan tushayotgan yulduz ramzi bo‘lsa ham ajab emas. Keyingi jumladagi muayyan tashqi omilar ta’sirida vaqt o‘tishi bilan o‘ziga xos yaxshi fazilatlarni yo‘qatish, tanazzulga yuz tutish, o‘z mohiyatidan uzoqlashish,buzilish, tanazzulga yuz tushish, ikkilanish ma’nosini beruvchi “Tozlaşarak” so‘zining betartib joylashishi bir vaqtning o‘zida so‘z ma’nosini ham tasvirlab kelgan. Keyingi jumlada esa “xayol qilyapman” (Düslüyorum) va “Tozlaşarak” so‘zleri qorishiq holatda tasvirlanib, yulduz shaklini hosil qilmoqda. Shu bilan birga “xayol qilyapman” (Düslüyorum) so‘zining qiyavon holda joylashtirilishi mohiyatan “tushyapman”(Düşüyorum) so‘ziga ishora qilib ham kelmoqda. Bu o‘rinda birinchi jumla bilan ikkinchi jumla nisbatan bir-birining o‘rnida almashib kelib biri ikkinchisining ma’nosini ham izohlab kelmoqda. Oxirgi jumladagi “dunyo butoq bo‘lmasisin”(Dünya olmasın dal) ifodasining butoq shaklda tasvirlanganligi ham matnga ajib bezak berib turibdi. She’r kapitalistik tuzum davriga ishora qilib kelmoqda. Ushbu vizual poetk matn Cho‘lponning “Mirrix yulduziga” nomli she’rini esga soladi.

⁷ Gökhan Tunç, Çağdaş Türk Edebiyatında Görsel Şiir, bilig, BAHAR 2015 / SAYI 73,255



Ko'rib turganizing ushbu vizual matn turk novator shoirlarining yirik namoyondalaridan biri Pazarkaya qalamiga mansub bo'lib, matn faqat "sevgi" so'zi va uni hosil qiluvchi harflarning takrorlanishidan hosil bo'lganligini ko'rishimiz mumkin. Asosiy yuk ham aynan mana shu so'z va harflarga tushadi. Bu o'rinda "she'rni vizual tarzda shaklantirib turgan "sevgi" so'zi tarkibidagi harflarning tepadan pastga alohida yozilishi natijasida bitta harfnинг ko'payishiga guvoh bo'lamiz. Bu esa sevgining tuyg'ularga boyligi va shirin azob ekanligi bilan hayotni boyitib turganligiga ishora qilib kelgan bo'lsa, buning aksi olaroq matn pastdan yuqoriga qarab o'qilganda ayri yozilgan harflarning bitta S harfiga borib taqalishi sevgining birlashtiruvchi kuch ekanligiga urg'u berib kelmoqda.⁸ Vizula poetika namunasining go'zal durdonasi hisoblangan ushbu matnda shoirning an'anaviy uslubdan qochganligi va fono-leksik vositalar orqali matn ta'sirchanligini oshirganligiga guvoh bo'lamiz.

Adresantning vizual poetik unsurlardan foydalangan holda yaratgan matnlari adresatga yetkazmoqchi bo'lgan axborotni to'liq yetkazib berish bilan birgalikda boshqalardan ajratib turadigan usullarni qidirib topishdir. Shuning uchun vizual poetik matn namoyondalari bir-biridan ajralib turadigan usul va yo'nalishlardan foydalanishga urinishadi.



⁸ Gökhan Tunç, Çağdaş Türk Edebiyatında Görsel Şiir, bilig, BAHAR 2015 / Sayfa 260

Ko'rib turganimiz ushbu vizual matn Turk vizual matn namoyondalaridan biri Ishinga oid bo'lib, matn XX asr boshlaridagi siyosiy vaziyatga nisbatan munosabat shaklida yozilgan. Matn faqatgina "trum trak" taqlid so'zlaridan iborat bo'lib, buning semaviy xususiyati tuzumga nisbatan norozilik tarzida ifodalangan. Ko'rib turganimizdek, matnda "trum trak"dan tashqari fotosurat ham berilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5 жилдлик. 2-жилд. –Т.: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2006. 587-б
2. O'zbek tilining izohli lug'ati. Birinchi jild-Toshkent, O'zbekiston. 2020
3. O'zbek tilining izohli lug'ati-Toshkent, G'afur G'ulom nomidagi nashriyotmatbaa ijodiy uyi, 2023. 3-jild,67-bet
4. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. Birinchi jild-Toshkent, O'zbekiston, 2000. 213.
5. Abdurahmon A.G'aroyib avtobus-Toshkent, O'qituvchi. 2012, 84-b
6. Фахриёр. Геометрик баҳор. – Т.: Маънавият, 2004. – Б. 192.

FINLANDIYA VA O'ZBEKISTON TA'LIM TIZIMINING QIYOSIY TAHLILI

Rustamova Charos Rustamovna

Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti
Ingliz tili va adabiyoti yo'nalishi talabasi

Annotatsiya. Ta'lismiz tizimi har bir mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida muhim rol o'ynaydi. Shuningdek har bir davlatning ta'lismiz tizimi o'zining madaniyati, tarixiy sharoitlari va iqtisodiy resurslariga asoslangan. Bugungi kunda ko'plab davlatlarda ta'lismiz tizimini rivojlantirishga katta e'tibor qaratilmoqda. Shuningdek Yaponiya, Amerika, Finlandiya, Niderlandiya, Germaniya va Singapur singari mamlakatlarda rivojlanish katta bo'lgani sabab, biz ham ushbu davlatlardan o'rganishimiz kerak bo'lgan omillar bor, albatta. Deylik, hozirgi kunda yana ko'plab davlatlarda ham Finlandiya ta'lismiz tajribalaridan foydalanib kelinmoqda. Ushbu sabablarga ko'ra mazkur maqola Finlandiya va O'zbekistondagi ta'lismiz tizimi darajasi, o'qitish usullari va ta'lismiz sohasidagi yutuqlari tizimli tarzda beshta mezon: metod, ta'lismiz dasturi, amaliyot, talaba tanlovi, o'quv dasturi asosida tahlil qilishga qaratilgan.

Kalit so'zlar: talim tizimi, metodologiya, talim dasturi, amaliyot, talaba tanlovi, STEAM, O'zbekiston, Finlandiya.

COMPARATIVE ANALYSIS OF EDUCATION SYSTEM OF FINLAND AND UZBEKISTAN

Annotation. The education system plays an important role in the socio-economic development of every country. Also, the education system of each country is based on its culture, historical conditions and economic resources. Today, in many countries, great attention is paid to the development of the education system. Also, countries such as Japan, America, Finland, the Netherlands, Germany and Singapore have great development, so there are factors that we should learn from these countries, of course. For example, many other countries are using the experiences of the Finnish education system. For these reasons, this article systematically analyzes the level of the education system, teaching methods and educational achievements in Finland and Uzbekistan based on five criteria: method, educational program, practice, student choice, curriculum aimed at analysis.

Key words: educational system, methodology, educational program, practice, student selection, STEAM, Uzbekistan, Finland.

СРАВНИТЕЛЬНЫЙ АНАЛИЗ СИСТЕМ ОБРАЗОВАНИЯ ФИНЛЯНДИИ И УЗБЕКИСТАНА

Аннотация. Система образования играет важную роль в социально-экономическом развитии каждой страны. Также система образования каждой

страны основана на ее культуре, исторических условиях и экономических ресурсах. Сегодня во многих странах большое внимание уделяется развитию системы образования. Кроме того, такие страны, как Япония, Америка, Финляндия, Нидерланды, Германия и Сингапур, имеют большое развитие, поэтому, конечно, есть факторы, которым нам следует поучиться у этих стран. Например, многие другие страны используют опыт финской системы образования. По этим причинам в данной статье систематически анализируется уровень системы образования, методы преподавания и образовательные достижения в Финляндии и Узбекистане на основе пяти критериев: метод, образовательная программа, практика, выбор учащихся, учебная программа, направленная на анализ.

Ключевые слова: система образования, методика, образовательная программа, практика, отбор студентов, STEAM, Узбекистан, Финляндия.

Hozirgi kunda Finlandiya ta'lim tizimi dunyoda muvaffaqiyatli va yuqori o'rirlarda turibdi. Buning sababi, ta'limda individual yondashuvi, o'quvchilarga berilgan imkoniyat, sharoit va ishonch, o'qituvchilarning malakasi kabi yana bir necha omillarga bog'liq.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Konflikt (lot. Conflictus - to`qnashuv) - tomonlarning o'z manfaatlari va maqsadlariga erishish yo'lida qarama-qarshi turishida ifodalanadigan odamlar (yoki shaxsning ichki tuzilishi elementlari) o'tasidagi o'zaro ta'sir sifati.

Ko‘pgina tadqiqotchilar konfliktlarni iqtisodiy, siyosiy, madaniy va psixologik omillardan kelib chiqqan holda tasniflashadi. Klassik sotsial teoriyalarga kelsak, Karl Marksning iqtisodiy tengsizliklar va sinf kurashiga asoslangan yondashuvi sotsial konfliktlarning iqtisodiy asoslari haqida muhim tushuncha beradi. Marksist yondashuv, ayniqsa, kapitalistik jamiyatlarda boylik va resurslarni taqsimlashdagi adolatsizliklarni keltirib chiqaradigan omil sifatida qaraladi.

Max Weber esa konfliktlarni nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy status va hokimiyatga asoslangan deb hisoblaydi. Weberning ijtimoiy qatlamlar, hukumat va siyosiy tashkilotlarga oid tahlillari sotsial ziddiyatlarning ko‘p tomonlama ekanligini ko‘rsatadi. Shuningdek, Emile Durkheim o‘zining ijtimoiy integratsiya va anomiya (jamiyatdagi tartibsizlik) haqidagi ishlari orqali, jamiyatda me'yorlar va qadriyatlar o‘zgarganda yuzaga keladigan konfliktlarni o‘rganishga alohida e'tibor qaratgan. Durkheimning fikricha, anomiya holatida odamlar o‘z ijtimoiy roli va qadriyatlarini yo‘qotishadi, bu esa ziddiyatlar va tartibsizliklarga olib keladi.

Zamonaviy konfliktologiyada “sotsial konflikt” tushunchasi keng va tor ma’noda qo‘llaniladi. Keng ma'noda, sotsial konflikt –sotsial hayotda sodir bo`ladigan va yuzaga kelishi mumkin bo`lgan barcha konfliktlarni o‘z ichiga qamrab oladi. Tor ma'noda, u jamiyat hayotining aynan bir sohasiga, ijtimoiy sohaning o'ziga ta'sir qiladi lekinsiyosat, iqtisod va boshqa sohalariga taalluqli bo`lmaydi. Amerikalik sotsiolog L.Koser o‘zining “Funktsiyalar sotsial konflikt” uni ijtimoiy guruhlarning intilishlari va hissiyotlarini aks ettiruvchi mafkuraviy hodisa sifatida belgilaydi. Uning fikricha, konfliktlarning qadri shundaki, ularijtimoiy tizimning ossifikatsiyasi(yemirilish)ni oldini olish, ochiqinnovatsiyalar sari yo'l ekanligini ko‘rsatadi. Sotsial konflikt deganda jamiyatdagi shaxslar yoki guruhlar o‘rtasidagi qarama-qarshi manfaatlar, qadriyatlar yoki harakatlar natijasida yuzaga keladigan keskinlik, kelishmovchilik yoki qarama-qarshilik tushuniladi. Bu sotsiologiyada asosiy tushuncha bo‘lib, shaxslararo nizolardan tortib keng ko‘lamli ijtimoiy harakatlarga bo‘lgan nizolarni shakllantirishda kuch, resurslar va ijtimoiy tuzilmalarning rolini ta’kidlaydi. Sotsial

konfliktlar sotsiologiyaning asosiy tushunchasi bo'lib, insoniyat jamiyatlariga kirib boradigan keskinliklar, nizolar va qarama-qarshi manfaatlarni qamrab oladi. Keng ma'noda ijtimoiy ziddiyat jamiyatdagi shaxslar yoki guruhlar o'rtasidagi qarama-qarshi manfaatlar, qadriyatlar yoki harakatlar natijasida kelib chiqadigan kelishmovchilikni anglatadi. U shaxsiy nizolardan tortib, jamiyatdagi g'alayonlargacha bo'lgan nizolar spektrini o'z ichiga oladi.

Sotsial konfliktlarni o'rghanish uchun bir nechta metodologik yondashuvlar mavjud. Bu usullar tadqiqotning maqsadiga, o'rganilayotgan jamiyat va konfliktning turiga qarab farq qiladi. Sotsiologik yondashuvda sotsial konfliktlar ko'pincha kvantitativ (sonli) va sifatli (narxli) tadqiqot usullari yordamida o'rganiladi. Kvantiativ tadqiqotlar so'rovnomalar, anketalar va statistik ma'lumotlar orqali konfliktlarning tarqalishini va ularning sabablarini o'lchashga imkon beradi. Sifatli tadqiqotlar esa intervylar, fokus-guruuhlar va ishtirok etuvchi kuzatuvlar orqali konfliktlarning chuqur sabablari va ularni hal etish usullarini tahlil qiladi.

Sotsial konfliktlarni hal etishda muzokaralar va boshqaruv yondashuvlari asosiy metodologik vosita sifatida ishlatiladi. Bu yondashuvlar muzokara jarayonlari, ishtirokchilarning qarorlar qabul qilishda qanday yondashuvlarni qo'llashini o'rganishga imkon beradi. Bu usulda ijtimoiy guruhlar o'rtasida muloqot va maslahatlar orqali yechimlarni topish maqsad qilingan. Tahliliy metodologiya turli ijtimoiy konfliktlar va ularning yechimlarini o'zaro taqqoslashni o'z ichiga oladi. Bu usul orqali turli jamiyatlar va davrlar o'rtasida yuzaga kelgan konfliktlarning o'xshashliklarini va farqlarini o'rghanish mumkin. Taqqoslash metodologiyasi, shuningdek, tarixiy kontekstda konfliktlarni tahlil qilishda ham qo'llaniladi. Sotsial konfliktlar va ularning ijtimoiy yechimlarini o'rganishning ilmiy ahamiyati katta. Konfliktlarning sabablari va oqibatlari haqida adabiyotlarda taqdim etilgan turli yondashuvlar va nazariyalar, konfliktlarni boshqarish va hal qilishda foydali yo'nalishlar beradi. Metodologik jihatdan esa, sotsiologik, muzokaraviy va tahliliy usullar orqali konfliktlarning sabablari va hal etish yo'llari o'rganilishi mumkin. Bu bilimlar, o'z navbatida, jamiyatlar uchun barqarorlik va taraqqiyot yo'lida muhim ahamiyat kasb etadi.

Natija va muhokama. Sotsial konfliktlar turli ijtimoiy guruhlar, sinflar yoki xalq o'rtasida yuzaga keladigan ziddiyatlarni ifodalaydi. Tadqiqot davomida, jamiyatdagi ijtimoiyadolatsizlik, tengsizlik, madaniy farqlar, iqtisodiy imkoniyatlar taqsimoti kabi omillar sotsial konfliktlarning asosiy sabablari sifatida aniqlangan. Shu bilan birga, konfliktlarning ijtimoiy tuzilmalarga ta'siri, ular jamiyatning barcha qatlamlarida qanday tarqalishi va oqibatlari tahlil qilingan. Ko'pgina sotsial konfliktlar ko'pincha qashshoqlik, ishlov berish sharoitlari, ta'lim va tibbiyotga kirishning cheklanganligi kabi masalalar bilan bog'liq. Tadqiqotda shuningdek, bu konfliktlarning tez-tez

ijtimoiy, siyosiy va iqtisodiy tizimlar tomonidan qanday boshqarilishi va ba'zan, qattiq repressiv choralar ko'riliishi haqida gapirildi. Biroq, ayrim ijtimoiy guruhlar konfliktlarni tinch yo'l bilan hal qilish, murosa va hamkorlikka asoslangan yechimlarni izlashda muvaffaqiyatga erishgan.

Sotsial konfliktlarning ijtimoiy yechimlari jamiyatning barqarorligi va rivojlanishi uchun zarurdir. Konfliktlar, bir tomonidan, ijtimoiyadolatning etishmasligi va iqtisodiy tengsizlikni ko'rsatadi, ikkinchi tomondan esa, ular yangi ijtimoiy tizimlar va normativ qadriyatlarni shakllantirishga xizmat qilishi mumkin. Shunday qilib, konfliktlarning ijtimoiy yechimlari faqat konfliktlarni bartaraf etish bilan cheklanmay, balki jamiyatdagi muammolarga asosli va uzoq muddatli yechimlar taklif etishni ham o'z ichiga oladi.

Sotsial konfliktlarning yechimlaridan biri, tenglik vaadolatni ta'minlashga asoslangan siyosiy va ijtimoiy islohotlardir. Bu islohotlar ta'lim, sog'liqni saqlash, ish bilan ta'minlash va ijtimoiy himoya tizimlarining yaxshilanishi orqali amalgalash oshirilishi mumkin. Shu bilan birga, meditatsiya va dialog usullaridan foydalanish, ijtimoiy guruhlar o'rtasidagi muloqotni oshirish, konfliktni hal etishning samarali yo'li sifatida qaraladi. Bu usullar nafaqat konfliktlarni kamaytiradi, balki ijtimoiy guruhlarning bir-birini tushunishi va hamkorlikda ishlashini rag'batlantiradi. Bundan tashqari, ijtimoiy yechimlar faqat davlat darajasida emas, balki jamiyatdagi har bir individualning ijtimoiy mas'uliyatini oshirishga ham bog'liqdir. Jamiyatda tenglik, bag'rikenglik va hurmatni targ'ib qilish, ijtimoiy tizimning barqarorligini ta'minlashga yordam beradi. Konfliktlarni hal qilishda, har bir guruhnинг manfaatlarini inobatga olish va ularning faol ishtirokini ta'minlash muhimdir.

Xulosa. Sotsial konfliktlar jamiyatning rivojlanish jarayonida tabiiy hodisa bo'lib, ular turli ijtimoiy guruhlar, sinflar yoki millatlar o'rtasida yuzaga keladi. Konfliktlar ijtimoiyadolatsizlik, iqtisodiy tengsizlik, siyosiy erkinliklar va madaniy farqlar kabi turli omillar tufayli yuzaga keladi. Bunday konfliktlarni hal qilishda ijtimoiy yechimlar muhim ahamiyatga ega bo'lib, ular sud-huquqiy, iqtisodiy va madaniy yo'nalishlarda amalgalash oshirilishi mumkin.

Birinchidan, ijtimoiyadolat va tenglikni ta'minlash, ijtimoiy xavfsizlikni kuchaytirish va resurslarni teng taqsimlash konfliktlarni kamaytirishda asosiy rol o'ynaydi. Ikkinchidan, madaniy va diniy farqlarni hurmat qilish, o'zaro tushunishni rivojlantirish va ijtimoiy integratsiyani qo'llab-quvvatlash muhimdir. Nihoyat, siyosiy islohotlar, demokratik ishtirok va fuqarolik jamiyatining faoliyatini kuchaytirish sotsial konfliktlarni oldini olishda samarali vosita bo'lib xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, sotsial konfliktlarni hal qilish uchun barcha ijtimoiy qatlamlarning manfaatlarini inobatga olgan holda,adolatli va teng huquqli jamiyatni

qurishga qaratilgan kompleks va ko‘p yo‘nalishli choralar zarur. Bu jamiyatda tinchlik va barqarorlikni ta'minlashning asosiy shartidir.

REFERENCES

1. Arthur, W. and Bennett, W. (1995), ``The international assignee: the relative importance of factors perceived to contribute to success", *Personnel Psychology*, Vol. 48, pp. 99-114.
2. Здравомыслов А. Г. Социология конфликта. -М.: Аспект-Пресс, 2021
3. The British Journal of Sociology, Vol. 8, No. 3 (Sep. 2018), pp. 197-207.
4. Кузнецов Н. С. Человек: потребности и ценности. — Свердловск: Изд-во Урал.Ун-та, 2017.
5. Firkola, P. (2006). Japanese management practices past and present. *Economic Journal of Hokkaido Univ.*, 35, 115-130.

GIPERBOLA VA UNGA DOIR MASALALARING SODDA ISHLANISH USULLARI URUNMA TENGLAMASINING TADBIQI

Saliyeva Sevara Ma'mirbek qizi

Matematika va Informatika kafedrasи o'qituvchisi,

Andijon davlat pedagogika instituti,

E-mail: saliyevasevara18@gmail.com,

Jo'rayeva Dilsora Zafarbek qizi

Matematika va Informatika yo'nalishi talabasi,

Andijon davlat pedagogika instituti

E-mail: dilsorajurayeva21@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada Giperbola — bu ikkita doira yoki elipsning kesishishidan hosil bo'ladigan konik shakl bo'lib, uni matematikada ko'plab turli sohalarda, jumladan, optika, astronomiya va fizikada qo'llaniladi. Maqolada giperbolaning umumiyligi ta'rifi, uning asosiy tenglamalari, simmetriyasi, va xususiyatlari, shuningdek, giperbolaning doimiy yoriqlari va tangensial chiziqlari haqida ma'lumotlar berilgan. Giperbolaning amaliy qo'llanilishi ham ko'rib chiqiladi, masalan, uning yoritish tizimlari, elektromagnit to'lqinlar va boshqa ilmiy tadqiqotlarda qanday ahamiyatga ega ekanligi haqida. Maqola, shuningdek, giperbolaning tasviriy misollarini va geometrik shaklini o'rganishni qiziqarli va tushunarli qilib taqdim etilgan.

Kalit so'zlar: giperbola, asimptota, radius-vektor, ekstsentriskiteti, mavhum o'q, haqiqiy o'q, tenglama, fokus, ordinata, absissa.

ПРОСТЫЕ МЕТОДЫ РАБОТЫ С ГИПЕРБОЛОЙ И СВЯЗАННЫМИ С НЕЙ ЗАДАЧАМИ, ПРИМЕНЕНИЕ УРАВНЕНИЯ ПРОИЗВЕДЕНИЯ

Аннотация: В этой статье гипербола представляет собой коническую форму, образованную пересечением двух кругов или эллипсов, и используется во многих различных областях математики, включая оптику, астрономию и физику. В статье дано общее определение гиперболы, ее основные уравнения, симметрия и свойства, а также сведения о сплошных трещинах и касательных гиперболы. Также рассматриваются практические применения гиперболы, например, насколько она важна в системах освещения, электромагнитных волнах и других научных исследованиях. Также в статье в интересной и понятной форме представлены наглядные примеры гиперболы и ее геометрической формы.

Ключевые слова: гипербола, асимптота, радиус-вектор, эксцентриситет, абстрактная ось, вещественная ось, уравнение, фокус, ордината, абсцисса.

SIMPLE WORKING METHODS OF HYPERBOLA AND PROBLEMS RELATED TO IT, APPLICATION OF PRODUCT EQUATION

Abstract: In this article, a hyperbola is a conic shape formed by the intersection of two circles or ellipses, and is used in many different areas of mathematics, including optics, astronomy, and physics. The article provides a general definition of a hyperbola, its basic equations, symmetry, and properties, as well as information about continuous cracks and tangent lines of a hyperbola. Practical applications of the hyperbola are also considered, such as how it is important in lighting systems, electromagnetic waves, and other scientific research. The article also presents illustrative examples of the hyperbola and its geometric shape in an interesting and understandable way.


Key words: hyperbola, asymptote, radius-vector, eccentricity, abstract axis, real axis, equation, focus, ordinate, abscissa

Giperbolaning ta’rifi: Har bir nuqtasidan berilgan ikki nuqtagacha masofalarining ayirmasi o‘zgarmas miqdor bo‘lgan geometrik o‘rin giperbola deyiladi.

$$\frac{x^2}{a^2} - \frac{y^2}{b^2} = 1 \quad (1)$$

(a- haqiqiy yarim o‘q, b-mavhum yarim o‘q)

Giperbolaning ko‘rinishi



$$\pm \frac{a^2}{c} = \pm \frac{a}{e}$$

Giperbola asimptotalari: $y = \pm \frac{b}{a} x$

Giperbolaning radius vektorlari:

$$\begin{cases} r = ex - a \\ r_1 = ex + a \end{cases}$$

Giperbolaga o’tkazilgan urinma tenglamasi: $\frac{x_1 \cdot x}{a^2} - \frac{y \cdot y_1}{b^2} = 1$

Giperbolaning ekstsentrisiteti:

$$e = \frac{2c}{2a} = \frac{c}{a} = \frac{\sqrt{a^2+b^2}}{a}$$

Giperbolaning direktrisalari: $x =$



MISOLLAR


1) Fokuslari orasidagi masofa $2\sqrt{11}$ bo‘lib, o‘zi (9 ; -4) nuqtadan o‘tgan giperbolaning tenglamasi tuzilsin.

Yechish: $2c = 2\sqrt{11} \quad c = \sqrt{11}$

$$a^2 - c^2 = -b^2 \quad (1),$$

$$\frac{x^2}{a^2} - \frac{y^2}{b^2} = 1 \quad (2)$$

c ning qiymatini (1) ga va berilgan nuqtani (2) ga qo‘yib Sistema hosil qilamiz.



$$\begin{cases} a^2 - \sqrt{11}^2 = -b^2 \\ \frac{81}{a^2} - \frac{16}{b^2} = 1 \end{cases} \Rightarrow$$

$$\begin{cases} a^2 + b^2 = 11 \\ 81b^2 - 16a^2 = (ab)^2 \end{cases} \Rightarrow a^2 = 11 - b^2$$

$$81b^2 - 16(11 - b^2) = b^2(11 - b^2) \Rightarrow 81b^2 - 176 + 16b^2 = 11b^2 - b^4$$

oxirgi tenglamadan b^2 ni topamiz.
 $b^2 = 2$ bundan $a^2 = 9$ ga teng


ekanligi kelib chiqadi. Qiymatlarni o‘z o‘rniga qo‘ysak giperbola tenglamasi kelib chiqadi.

Javob: $\frac{x^2}{9} - \frac{y^2}{2} = 1$

2) Giperbolaning tenglamasi $9 \cdot x^2 - 16 \cdot y^2 = 144$. Buning $x = 8$ nuqtasining radius vektorlari aniqlansin.

Yechish: $9 \cdot x^2 - 16 \cdot y^2 = 144$ avval giperbola tenglamasini kanonik holatga keltirib olamiz. $9 \cdot x^2 - 16 \cdot y^2 = 144 \setminus :$

$$144 \quad \frac{9 \cdot x^2}{144} - \frac{16 \cdot y^2}{144} = 1 \quad \frac{x^2}{16} - \frac{y^2}{9} = 1$$



Giperbolaning radius vektorlari:
 $\begin{cases} r = ex - a \\ r_1 = ex + a \end{cases}$


Eksentriskiteti: $e = \frac{\sqrt{a^2+b^2}}{a}$ $e = \frac{\sqrt{16+9}}{4}$

Qiymatlarni o‘z o‘rniga qo‘yib qo‘ysak $\begin{cases} r = \frac{5}{4} \cdot 8 - 4 = 6 \\ r_1 = \frac{5}{4} \cdot 8 + 4 = 14 \end{cases}$

Javob: $\begin{cases} r = 6 \\ r_1 = 14 \end{cases}$

3) Giperbolaning tenglamasi $9x^2 - 16y^2 = 144$. Buning direktrisalarining tenglamalari topilsin.

Yechish: Avval giperbola tenglamasini kanonik holatga keltirib olamiz. $9x^2 - 16y^2 = 144 \setminus : 144 \quad \frac{9x^2}{144} - \frac{16y^2}{144} = 1 \quad \frac{x^2}{16} - \frac{y^2}{9} = 1 \quad a = 4 \quad b = 3$



$$16y^2 = 144 \setminus : 144 \quad \frac{9x^2}{144} - \frac{16y^2}{144} = 1 \quad \frac{x^2}{16} - \frac{y^2}{9} = 1 \quad a = 4 \quad b = 3$$


Giperbola direktasisi: $x = \pm \frac{a^2}{c}$ $a^2 + b^2 = c^2$ $x = \pm \frac{16}{\sqrt{16+9}} = \pm \frac{16}{5}$

Javob: $x = \pm \frac{16}{5}$

4) Giperbolaning asimptotalari $y = \pm \frac{2}{3}x$. Tenglamasi $x - 4 = 0$ bo‘lgan chiziq bunga urinma bo‘lmoqda. Giperbolaning tenglamasi tuzilsin.

Yechish: $\frac{x_1 \cdot x}{a^2} - \frac{y \cdot y_1}{b^2} = 1 \quad x = a^2 * x_1 = 4 \quad x_1 = 4 * a^2, y_1 = 0,$
 $y = \pm \frac{b}{a}x = \pm \frac{2}{3}x, \quad \frac{b}{a} = \frac{2}{3} \quad b = \frac{2}{3}a,$
 $\frac{x^2}{a^2} - \frac{y^2}{b^2} = 1 \quad \frac{16a^4}{a^2} = 1 \quad 16a^2 = 1$
 $a^2 = \frac{1}{16} \quad b^2 = \frac{1}{12} \quad 16x^2 - 12y^2 = 1$

Javob: $16x^2 - 12y^2 = 1$



Foydalanilgan adabiyotlar

1. T.N.Qori Niyoziy “Analitik geometriya asosiy kursi”- O‘zbekiston Fan nashriyoti
2. S.V. BAxvalov, P.S.Modenov, A.S.Parxomenko, Analitik geometriyadan masalalar to‘plami. Rus tilidan tarjima. Toshkent, universitet 2005

3. U.Xojixonov "Analitik geometriyadan misol va masalalar to‘plami" Namangan-2007
4. A.Ya. Narmanov "Analitik geometriya" Innovatsion rivojlanish nashriyot - matbaa uyi-2020
5. O.N.Tsuberbiller "Analitik geometriyadan masalalar va mashqlar to‘plami" O‘qituvchi nashriyoti
6. To’ychiyev.Sh.Sh, & A. (2022 г.30-апрел). BA’ZI NOAN’ANAVIY MASALALARING YECHIMLARI. Eurasian Journal of Mathematical Theory and Computer Sciences, ст: 65-68.
7. D. U. Madrahimov, T. S. (2022 г.9-сентябр).
8. D. U. Madrahimov, SUBSTANTIATION OF THE DIRECTION OF RESEARCH TO INCREASE THE PERFORMANCE OF LINTERS. 6. D. U. Madrahimov, T. S. (2022 г.9-сентябр). 2. D. U. MadrSUBSTANTIINNOVATIVE TECHNOLOGICA, 159-163 стр.

O'ZBEKISTONDA ELEKTRON DAVLAT XIZMATLARINING HUQUQIY ASOSLARI

Dilmurodova Nozimaxon

nozimaxondilmurodova@gmail.com

Toshkent davlat yuridik universitet

Ommaviy huquq fakulteti 1-kurs Vpatok 1-guruh talabasi

Annotatsiya. Ushbu tadqiqot elektronlashtirishning jamiyat va davlat hayotidagi ro'lini va huquqiy asoslarini o'rganishga qaratilgan. Davlat xizmatlarini raqamlashtirish va elektronlashtirish, xizmatlarni amalga oshirish usullari, uning asosiy funksiyalari va maqsadlari, tartibga soluvchi milliy va xalqaro huquqiy me'yorlar tahlil etilib, amaldagi qonunchilikning bu boradagi kamchiliklari va takomillashtirish yo'naliishlari yoritilgan. Shuningdek, maqolada fuqarolarning elektron xizmatlardan foydalanishdagi huquqlari va ushbu sohada ularga yaratilgan keng ko'lamli imkoniyatlar va amalga oshirilayotgan islohotlar ta'kidlab o'tiladi.

Kalit so'zlar. Elektron davlat xizmatlari, huquqiy asoslar, elektron xizmatlarning samaradorligi, huquqiy xizmat ko'rsatish saytlari, milliy va xalqaro me'yorlar.

1.Kirish

XXI asr "Axborot texnologiyalari asri". Hozirgi kunda zamonaviy texnologiyalar tez sur'atlarda rivojlanib bormoqda va jamiyatning har bir sohasiga o'z ta'sirini ko'rsatmoqda, jumladan xizmat ko'rsatish sohasiga ham. Tarixdan ma'lumki, davlatimiz ushbu sohada ham boshqa sohalar kabi, uzoq davrni bosib o'tdi va hozirgi darajaga yetib keldi. Mustaqillikka erishganimizdan so'ng fuqarolarga xizmat ko'rsatish tizimi Sovet davridagi holatga qaraganda ancha yaxshilandi, fuqarolarga xizmat ko'rsatish uchun ko'plab turdag'i davlat xizmatlari joriy etildi va yangi qonun hujjatlari qabul qilish orqali yanada mustahkamlandi. Keyingi yillarda O'zbekiston Respublikasi zamona so'rovini va xalq ehtiyojini hisobga olgan holda, axboratlashtirishdan raqamlashtirishga o'tdi hamda jamiyat va davlat hayotining har bir sohasini keng qamrab oldi.

2. Elektron davlat xizmatlari haqida asosiy tushunchalar.

2.1 Elektron davlat xizmatlari tushunchasi.

Elektron davlat xizmatlari (e-xizmatlar) – axborot-kommunikatsiya texnologiyalari qo'llanilgan holda jismoniy va yuridik shaxslarga, davlat tashkilotlariga ko'rsatiladigan davlat xizmatidir.

2.2 Elektron davlat xizmatlarining turlari.

Elektron davlat xizmatlari axborot va interaktiv davlat xizmatlari shaklida bo‘lishi mumkin.

Axborot davlat xizmati – ariza beruvchilarning axborotga bo‘lgan ehtiyojlarini qanoatlantirishga qaratilgan, davlat organining faoliyati to‘g‘risidagi axborotni e’lon qilish va boshqacha tarzda tarqatish yo‘li bilan ko‘rsatiladigan elektron davlat xizmatidir.

Interaktiv davlat xizmati – ariza beruvchiga ariza beruvchi va elektron davlat xizmati ko‘rsatuvchi davlat organi o‘rtasida ikki tomonlama elektron hamkorlik yo‘li bilan ko‘rsatiladigan elektron davlat xizmatidir.

2.3 Elektron davlat xizmatlariga qo‘yilgan talablar.

Har bir sohada uni yanada rivojlantirish va jamiyat talablariga mos bo‘lishi uchun ma’lum bir talablar belgilab qo‘yilgani kabi elektron davlat xizmatlariga doir talablar ham mavjud.

Axborot davlat xizmatlari to‘liq va ishonchli axborotni o‘z ichiga olishi kerak.

Interaktiv davlat xizmatlari:

- qonunchilik asosida va axborotni to‘plash, saqlash, unga ishlov berish, uni uzatish hamda almashish bo‘yicha texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlar asosida tashkil etilishi;
- elektron davlat xizmatlarining tasdiqlangan reglamenti asosida ko‘rsatilishi;
- shaxsga doir ma’lumotlarga ishlov berishni nazarda tutuvchi xizmatlardan ariza beruvchilarning xavfsiz foydalanishini ta’minlashi;
- so‘rov yuborish va elektron davlat xizmatining natijasini olish imkoniyatini ta’minlashi;
- to‘liq, ishonchli bo‘lgan va ruxsatsiz foydalanishdan himoya qilingan axborotni o‘z ichiga olishi kerak. (1)

Asosiy qism.

3. Elektronlashtirishning hayotga tatbiq etilishi.

Elektronlashtirishning joriy etilishi va qonun hujjatlari orqali mustahkamlanishini biz faqatgina inson uchun, uning manfaatlari yo‘lida amalga oshirilayotganligini ko‘rishimiz mumkin. Uning dalili sifatida barcha insonlar istalgan vaqtida, erkin foydalanishi mumkin bo‘lgan bir nechta saytlarning faoliyati yo‘lga qo‘yilganligini misol qilishimiz mumkin:

3.1 Elektronlashtirish maqsadida amalga oshirilgan yirik loyihamalar:

Yagona interaktiv davlat xizmatlari portalı (my.gov.uz)

Ochiq ma’lumotlar portalı (data.gov.uz)

Me’yoriy-huquqiy hujjatlar loyihamalarini muhokama qilish portalı (regulation.gov.uz)

“Litsenziya” axborot tizimlari kompleksi (license.gov.uz).

“Yagona darcha” markazlari faoliyatini avtomatlashtirish bo‘yicha axborot tizim (birdarcha.uz) (2)

Ushbu saytlar o‘z ichiga keng tarmoq yo‘nalishlarini qamrab oladi va xalq manfaatlari uchun doimiy ravishda xizmat ko‘rsatadi.

3.2 Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali (my.gov.uz) haqida.

Birgina my.gov.uz portalini oladigan bo‘lsak, hozirgi kunda jismoniy va yuridik shaxslarning davlat organlari bilan o‘zaro aloqasi hamda ushbu aloqalarni yanada samarali amalga oshirish uchun faoliyat ko‘rsatib kelayotganligi Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali (Yagona portal)ning o‘zida ham belgilangan. Ushbu portaldan uyda o‘tirgan holda ham erkin foydalanish mumkin. Buning uchun kerakli xizmatdan foydalanishga onlayn so‘rovnama yoki ariza to‘ldirishning o‘zi kifoya.

3.3 Yagona portalning maqsad va vazifalari

Yagona portalning maqsadlari:

ariza beruvchilarga davlat organlari tomonidan elektron davlat xizmatlarini ko‘rsatishni ta’minlovchi axborot tizimlarining sifatli va uzuksiz faoliyat ko‘rsatishini ta’minlash;

davlat organlari faoliyatining samaradorligini, tezkorligini va shaffofligini ta’minlash, aholi va tadbirkorlik subyektlari bilan axborot almashuvini ta’minlashning qo‘sishma mexanizmlarini yaratish orqali ularning mas’uliyatini va ijro intizomini kuchaytirish.

Yagona portal quyidagi vazifalarni amalga oshiradi:

- ariza beruvchilarga elektron davlat xizmatlaridan kafolatlangan va xavfsiz foydalana olishlarini ta’minlash;
- elektron davlat xizmatlari olish uchun so‘rovlarni va boshqa hujjatlarni yo‘llash hamda elektron davlat xizmatlari ko‘rsatish natijasini qabul qilish;
- davlat organlariga elektron davlat xizmatlaridan foydalanish yuzasidan so‘rovlarni qabul qilish, ko‘rib chiqish va natijasini ariza beruvchilarga yuborish imkoniyatini yaratish;
- to‘lov tizimlaridan foydalangan holda onlayn-to‘lov imkoniyatlarini amalga oshirish;
- elektron davlat xizmatlari ko‘rsatishning holati va borishini kuzatish;
- elektron hujjatlarni shakllantirish, saqlash va ularning haqiqiyligini tekshirish;
- kelib tushgan so‘rovlarni va ko‘rsatilgan elektron davlat xizmatlar asosida statistik ma’lumotlarni shakllantirish. (3)

Portalning Yagona deb nomlanishining ham bir nechta sabablari mavjud:

- Elektron xizmatlardan 24/7 tartibida foydalanish mumkinligi va bunda navbatlarning mavjud emasligi;
- Davlat xizmatlari uchun to‘lovlarga 10 foiz hamda I va II guruh nogironligi bo‘lgan shaxslarga 50 foizlik chegirmalarning mavjudligi;
- Soliq va jarimalar bo‘yicha qarzdorlikni aniqlash va to‘lash imkoniyati;
- 100ga yaqin kommunal va davlat xizmatlari uchun elektron to‘lovlarni amalga oshirish;
- Barcha xujjatlarning ximoyalangan QR-kod qo‘yilgan tartibda shakllanishi;
- Call-markaz 1242 qisqa raqami, elektron pochta va ijtimoiy tarmoqlar orqali fuqarolar bilan qayta aloqaning yo‘lga qo‘yilganligidir.(4)

4. Milliy huquqiy normalar.

Aholiga xizmat ko‘rsatishning samaradorligini oshirish, elektron hukumat sohasidagi munosabatlarni tartibga solish, elektron davlat xizmatlari tizimini yanada rivojlantirish shuningdek, mustahkamlash maqsadida bir nechta milliy-huquqiy qonun hujjatlari qabul qilingan.

1.O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qarori “Elektron davlat xizmatlari ko‘rsatish tartibini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”.(13.06.2016)

O‘zbekiston Respublikasining “Elektron hukumat to‘g‘risida”gi Qonuniga muvofiq, davlat xizmatlarining elektron shaklga sifatli o‘tkazilishini ta’minlash, elektron davlat xizmatlari ko‘rsatishning amaldagi tartibini takomillashtirish, shu jumladan davlat organlari hujjatlarining bixillashtirilishini ta’minlash maqsadida Vazirlar Mahkamasi qaror qildi. (5)

2.O‘zbekiston respublikasining qonuni “Elektron hukumat to‘g‘risida”.(11.06.2016)

Ushbu qonunning 1-moddasida “Ushbu Qonunning maqsadi elektron hukumat sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat.” deb belgilab qo‘yilgan. (6)

3“Davlat xizmatlari ko‘rsatishni soddalashtirish, byurokratik to‘siqlarni qisqartirish hamda davlat xizmatlari ko‘rsatish milliy tizimini rivojlantirishning qo‘sishcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Prezident farmoni.

“Shu bilan birga, aholiga davlat xizmatlarini qulay va oson shakllarda ko‘rsatish ko‘lamini oshirish va fuqarolarning idorama-idora sarson bo‘lib yurishining oldini olish, davlat organlari axborot tizimida mavjud ma’lumotlarni ishonchli himoya qilish bo‘yicha ishlarni izchil davom ettirish zarur” deb farmonda belgilab qo‘yilgan. (7)

4.1 Milliy qonunchilik hujjatlarining muhimlilik jihatlari.

Ushbu qonun hujjatlarining muhimlilik jihat shundaki, ularda eng asosiy qoidalar va tamoyillar belgilangan. Jumladan: “Elektron hukumat to‘g‘risida”gi qonunning 6-moddasini oladigan bo‘lsak, unda davlat organlari faoliyati elektron hukumat

sohasidagi qonunchilikka va unda belgilangan asosiy prinsiplarga muvofiq faoliyat yuritishi, ariza beruvchilarga xizmat ko'rsatish tartibining ochiqligi va murojaatlarning ko'rib chiqilishi holatini davlat organlarining rasmiy saytlari orqali kuzatish imkoniyatlari keltirilgan. Davlat organlari ariza beruvchiga murojaatnomaning ko'rib chiqilishi holati va xizmatlar ko'rsatilishi natijalari to'g'risidagi axborotni elektron shaklda yuborish yo'li bilan uning talabiga ko'ra taqdim etadi. Ushbu modda fuqarolar, tadbirkorlik subyektlari va davlat organlari o'rtasidagi munosabatlarda shaffoflikni oshirishga ya'ni, korrupsiya holatlarini oldini olishga xizmat qiladi.

5. Xalqaro standartlarning joriy etilishi.

Davlatimiz tomonidan xalqaro qonunchilik hujjatalari qabul qilingan shuningdek xalqaro tadqiqotlarni o'rgangan holda tajribalar orttirgan. Ularning eng asosiylariga quyidagilarni keltirish mumkin.

1.BMTning "Elektron hukumat rivojlanishi indeksi" (E-Government Development Index): Ushbu tadqiqotda BMT tomonidan har 2 yilda bir marotaba dunyo mamlakatlarining elektron hukumat tizimining rivojlanish darajasini uchta asosiy me'zon bo'yicha o'lchaydi. Indeksning ahamiyati shundaki, u davlatlar o'rtasida solishtirma beradi, hamkorlikni rivojlantirishga yordamlashadi va kamchiliklarni aniqlashga yordam beradi. O'zbekiston ham butunjahon miqyosida o'rnni yanada yaxshilash maqsadida qator choralarini amalga oshirmoqda.(8)

2.Yevropa Ittifoqining "eGovernment Action Plan "strategik harakat re'jasib, raqamli boshqaruvi tizimini rivojlantirish maqsadida qabul qilingan. U davlat xizmatlarini raqamlashtirish; ma'muriy to'siqlarni kamaytirish; raqamli ko'nikmalarni rivojlantirish; kiberxavfsizlikni ta'minlash kabi muhim maqsadlarni ko'zlaydi.(9)

3.OESDning "Digital Government Index" – bu mamlakatlarning raqamli hukumat sohasidagi yutuqlarini o'lchaydigan ko'rsatkich hisoblanadi. U 2019-yilda ishlab chiqilgan va bu indeks mamlakatlar uchun:

- Raqamli transformatsiya strategiyasini baholash
- Boshqa davlatlar tajribasini o'rganish
- Kamchilik va imkoniyatlarni aniqlash
- Rivojlanish yo'nalishlarini belgilash imkonini beradi. (10)

DGI ning muhim jihat shundaki, u davlatlarning boshqaruvida raqamli xizmat ko'rsatish tizimni nafaqat baholaydi, balki ularga boshqa davlatlarning tajribasidan foydalanish imkonini ham beradi.

6. Elektron davlat xizmatlari tizimida mavjud muammolar.

6.1 Amaliyotda yuzaga keladigan muammolar.

O'zbekiston respublikasida elektron davlat xizmatlarini keng miqyosda ommaga targ'ib qilinishi, shuningdek ushbu yo'nalish bo'yicha qonun hujjatarining qabul qilinganligi va mustahkamlanganligiga qaramasdan, elektron davlat xizmatlarini

amalga oshirish jarayonida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan muammolar yo‘q emas albatta. Ulardan asosiysi sifatida quyidagilarni keltirish mumkin.

1. Huquqiy asoslarning to‘liq shakllanmaganligi

Elektron davlat xizmatlari uchun zarur huquqiy normalar va qonunchilik bazasi hali to‘liq shakllanmagan. Bu qonunlar va qoidalar aniq belgilab qo‘yilmadi, bu esa xizmatlarni ko‘rsatishda noaniqlik va turli tushunmovchiliklarga olib keladi.

2. Texnologik infratuzilmaning yetarli emasligi

O‘zbekistonda elektron xizmatlar taqdim etish uchun zarur texnologik infratuzilma hali to‘liq rivojlanmagan. Internet tarmog‘ining qamrovi va tezligi darajasining pastligi mijozlarning ham, davlat xizmatchilarining ham faoliyatida qiyinchiliklar tug‘dirishi mumkin.

3 Bilim va ko‘nikmalarining yetarli emasligi

Elektronlashtirilgan tizimning aholi o‘rasida keng yoyilmaganligi uchun ba’zi hollarda, aholining ayrim qatlami elektron uskunalardan, zamonaviy gadjetlardan, shuningdek, elektron xizmatlardan foydalanish bo‘yicha bilim yoki ko‘nikmalari yetarli emasligi sababli, qiyinchiliklarga duch kelishi, imkoniyatlardan to‘liq foydalana olmasligi mumkin.

4. Maxfiylik va xavfsizlik muammolari

Shaxsiy ma'lumotlarning xavfsizligi va maxfiyligi eng muhim masalalardan biri hisoblanib, hozirda global muammolardan biri sifatida e’tirof etiladi. Har bir foydalanuvchi, o‘zining shaxsiy ma'lumotlari himoyasining kafolatlariga erishish va shu orqali konstitutsiyaviy huquqididan foydalanishi mumkin.

6.2 Yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan muammolarning qonunchilikda ta’kidlanishi.

Bundan tashqari, davlat xizmatlari ko‘rsatish tizimining yanada rivojlanishiga salbiy ta’sir ko‘rsatuvchi quyidagi tizimli muammolar “Davlat xizmatlari ko‘rsatish tizimini modernizatsiya qilish va jadal rivojlantirishning 2022 — 2026-yillarga mo‘ljallangan MILLIY STRATEGIYASI” ham belgilab qo‘yilgan.

• mavjud davlat xizmatlarining katta qismi hamon elektron shaklda ko‘rsatilmasdan an’anaviy shaklda aholiga taqdim etib kelinmoqda;

• tartib-taomillari o‘zaro o‘xshash bo‘lgan davlat xizmatlarini ko‘rsatish asoslarini belgilovchi normativ-huquqiy hujjatlarni tizimlashtirish ishlari lozim darajada amaliyotga tatbiq etilmaganligi qonunchilik hujjalarning soni sun’iy oshib ketishiga sabab bo‘lmoqda;

• davlat xizmatlari yagona reyestrda takrorlanuvchi, bir xizmatning tarkibiy qismi bo‘lgan bir nechta xizmatlar, o‘z ahamiyatini yo‘qotgan davlat xizmatlari saqlanib qolmoqda;

• vakolatli idoralar tomonidan davlat xizmatlarini ko'rsatishda to'lovlar ularning ushbu xizmatni ko'rsatish uchun sarf qiladigan xarajatlaridan ortiqcha miqdorlarda undirilmoqda;

• ayrim davlat xizmatlarini ko'rsatuvchi vakolatli organlar tomonidan davlat xizmatlarini ko'rsatish tartiblari muntazam ravishda buzilishi sabablari bartaraf qilinmasdan qolmoqda;

• vakolatli idoralar tomonidan davlat xizmatlarini ko'rsatish tartib-taomillari buzilganda ularning qonunga xilof xatti-harakatlari va qarorlari ustidan sudgacha shikoyat qilishning mexanizmlari yo'lga qo'yilmaganligi sababli jismoniy va yuridik shaxslarning buzilgan huquqlarini tiklash uzoq vaqt ni talab qilmoqda;

• bir qator vakolatli idoralarda davlat xizmatlarini ko'rsatishga aniq mas'ul bo'lgan xodimlar ajratilmaganligi yoki belgilanmaganligi ko'rsatilayotgan davlat xizmatlarining sifatiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda;

• shaxsni identifikatsiyalashning muqobil usullari joriy etilmaganligi sababli fuqarolar tomonidan davlat xizmatlaridan foydalanishda identifikatsiya jarayoni asosan elektron raqamli imzoga bog'lanib qolmoqda;

• davlat xizmatlarining mobil ilovasi talab yuqori bo'lgan xizmatlarni to'liq qamrab olmasligi, bu ilovadan xizmatning oxiriga qadar foydalanish imkoniyati mavjud emasligi sababli elektron davlat xizmatlaridan mustaqil foydalanish ko'لامi pastligicha qolmoqda;

• davlat xizmatlarini ko'rsatuvchi organlar tomonidan jismoniy imkoniyati cheklangan va nogironligi bo'lgan shaxslarga zarur infratuzilma yaratilmaganligi natijasida ariza beruvchilar ijtimoiy sohadagi xizmatlardan foydalanishda noqulayliklarga duch kelmoqda; (11)

2. Qiyoziy tahlil va muhokama.

O'zbekistonda elektron davlat xizmatlari sohasida afzalliliklar bilan bir qatorda kamchiliklarni ham uchratishimiz mumkin. Ushbu muammolarni xorijiy adabiyotlar va chet el davlatlari tajribasi misolida ko'rib chiqamiz.

Elektron davlat xizmatlarini tashkil etishning huquqiy asoslari bilan bog'liq masalalar ko'plab davlatlar uchun dolzarb hisoblanadi. Ushbu sohada xorijiy davlatlar tajribasi turli yondashuvlarni ko'rsatadi shuningdek, ushbu yondashuvlardan kelib chiqib elektron davlat xizmatlari sohasida qator yangiliklar olib kirish mumkin: **Estoniya** elektron davlat xizmatlari sohasida eng ilg'or davlatlardan biri hisoblanib, bu davlat "bir martalik ma'lumot talab qilish" va X-Road tizimini joriy etish kabi asosiy yondashuvlarni yoqlaydi. Bunda fuqarolar davlat idoralariga murojaat qilganda faqat bir marotabagina ma'lumotlarini taqdim etadi va davlat idoralarining bazalarida fuqaro ma'lumotlari o'zaro almashinadi. Bu yo'l orqali fuqaro o'zining shaxsiy

ma'lumotlarini boshqalardan himoya qilishi mumkin. Shuningdek, ushbu mamlakatda X-Road tizimi joriy etilgan bo'lib, bu idoralar o'rta sidagi ma'lumotlar almashinuvida tezlik va xavfsizlikni ta'minlaydi.(12) Davlat xizmatlarini raqamlashtirish bo'yicha katta tajribaga ega bo'lgan **Singapur** davlatini ko'radigan bo'lsak, ushbu davlat ham avvalo MyInfo platformasi orqali, fuqarolar uchun shaxsiy ma'lumotlarini bir martalik kiritish tizimini joriy etgan bo'lib, boshqa barcha davlat idoralari ham shu ma'lumotdan foydalanadi. (13) Bu fuqarolarga xizmat ko'rsatish jarayonini osonlashtiradi. Yana shuni ta'kidlash kerakki, Singapurda kiberxavfsizlik va maxfiylikka jiddiy yondashiladi va har bir fuqaroning ma'lumotlari maxsus kodlash tizimi orqali himoyalananadi. Shuningdek, jahoning Buyuk Britaniya, AQSH, Daniya, Germaniya kabi rivojlangan davatlari fuqarolarga elektron xizmat ko'rsatuvchi tizimlarida ma'lumotlar xavfsizligi davlat xizmatlaridan foydalanish tizimida alohida belgilab qo'yilganligi, ushbu tizimning muhim ahamiyat kasb etishini ko'rsatadi. O'zbekiston Respublikasida ushbu tizim to'liq rivojlanmagan. Lekin biz ham jahon tajribasini o'rgangan holda, tizimdagи xavflarni bartaraf etish, shaxsiy ma'lumotlarni himoyalash tizimini yanada rivojlantirish maqsadida, yangi dasturlar ishlab chiqsak va ularni qonunchiligidan tatbiq etsak ulkan natijaga erishishamiz.

8. Xulosa va taklif.

Hozirgi kunda bir qator muammolarga duch kelinayotgan bo'lsada, ushbu soha jamiyatimizga yaqinda kirib kelganligiga qaramasdan anchagina rivojlanishga va sezilarli siljishlarga erishildi. Amalga oshirilayotgan islohotlarning barchasi xalq uchun, uning manfaatlari uchun xizmat qilmoqda. Boshqacha qilib aytadigan bo'lsak, muhtaram prezidentimiz Sh.Mirziyoyev tomonidan ilgari surilgan "xalq davlat idoralariga emas, davlat idoralari xalqqa xizmat qilishi kerak" degan prinsipning yaqqol misoli deb aytish mumkin. O'zbekistonda «elektron hukumat» ni rivojlantirishda erishilayotgan muvaffaqiyatlar axborot jamiyatini shakllantirish va yanada takomillashtirishga yo'naltirilgan davlat islohotlarining samaradorligidan dalolat beradi, – deydi BMT Iqtisodiy va ijtimoiy masalalar departamentining «elektron hukumat» bo'yicha mintaqalararo maslahatchisi **Richard Kerbi**. (14) Albatta, bunday e'tirof ham davlatimizda elektronlashtirish sohasida islohotlar amalga oshirilayotganligidan dalolat beradi.

O'zbekistonda elektron davlat xizmatlari tizimini takomillashtirish va samaradorligini oshirish uchun bir nechta takliflar kiritish mumkin. Ushbu tizim davlat organlari va fuqarolar o'rta sidagi o'zaro aloqalarni soddalashtiradi, ma'lumotlar xavfsizligini ta'minlaydi va korrupsiyaning oldini olishga yordam beradi.

1.Davlat organlari va elektron xizmatlardan foydalanuvchilar o'rta sidagi aloqalarni soddalashtirish uchun vakolatli organlar tomonidan keng ko'lamli targ'ibot va tushuntirish ishlari olib borilishi kerak. Masalan, fuqaro my.gov.uz sayti bilan

tanish bo'lsa va uning imkoniyatlaridan to'liq foydalana olsa, vaqt va xarajat sarfini kamaytirishga, xizmat ko'rsatish jarayonini yanada soddalashtirishga erishadi.

2. Elektron davlat xizmatlaridan foydalanishda, shaxsiy ma'lumotlar xavfsizligiga erishish ham muhim masala hisoblanadi. Ushbu maqsadga erishish uchun xorijiy tajribalarni inobatga olgan holda, quyidagi chora-tadbirlarni taklif qilaman.

1. Shaxsiy ma'lumotlar shifrlash: Foydalanuvchilar ma'lumotlarini saqlash va almashish jarayonida shifrlash texnologiyalaridan foydalanish, bu ma'lumotlarning maxfiyligini oshiradi.

2. Authentikatsiya jarayonlarini kuchaytirish: Foydalanuvchilarni autentifikatsiya qilish jarayonini ikki faktorli autentifikatsiya (2FA) kabi usullar bilan kuchaytirish. Bu foydalanuvchini aniqlash va himoyalashni takomillashtirishga yordam beradi.

3. Tizimning doimiy yangilanishi: Davlat xizmatlari tizimlarining dasturiy ta'minotini doimiy ravishda yangilab turish, shu jumladan, xavfsizlik yamoqlarini o'z vaqtida qo'llash.

4. Ta'lim va o'qitish: Davlat xodimlari va foydalanuvchilarga kibermuhofaza bo'yicha treninglar o'tkazish, xavfsizlik qoidalari va eng yaxshi amaliyotlarni o'rgatish.

5. Texnologik yangiliklardan foydalanish: Kibermuhofaza uchun yangi texnologiyalarni, masalan, sun'iy intellekt va mashinani o'rganish usullaridan foydalanish.

6. Doimiy tekshiruvlar o'tkazish: Xavfsizlikni ta'minlashga qaratilgan har qanday yangi tadbirlarning samaradorligini baholash uchun doimiy ravishda tekshiruvlar o'tkazish.

Ushbu choralar elektron davlat xizmatlarining xavfsizligini oshirishda muhim ahamiyatga ega shuningdek, davlatning xizmat ko'rsatish yo'nalishida xalqning ishonchini qozonishga yordam beradi. (15)

Joriy tahlil. 18-modda Elektron davlat xizmatlarining turlari.

Elektron davlat xizmatlari axborot va interaktiv davlat xizmatlari tarzida bo'lishi mumkin.

Axborot davlat xizmati ariza beruvchilarning axborotga bo'lgan ehtiyojlarini qanoatlantirishga qaratilgan, davlat organining faoliyati to'g'risidagi axborotni e'lon qilish va boshqacha tarzda tarqatish yo'li bilan ko'rsatiladigan elektron davlat xizmatidir.

Interaktiv davlat xizmati ariza beruvchiga ariza beruvchi va elektron davlat xizmati ko'rsatuvchi davlat organi o'rtaida ikki tomonlama elektron hamkorlik yo'li bilan ko'rsatiladigan elektron davlat xizmatidir.

Tavsiya etiladigan tahrir.

Elektron davlat xizmatlarining **axborot, interaktiv va tranzaksion** shakllarda bo‘lsa maqsadga muvofiq bo‘lar edi.

Axborot davlat xizmati ariza beruvchilarning axborotga bo‘lgan ehtiyojlarini qanoatlantirishga qaratilgan, davlat organining faoliyati to‘g‘risidagi axborotni e’lon qilish va boshqacha tarzda tarqatish yo‘li bilan ko‘rsatiladigan elektron davlat xizmatidir.

Interaktiv davlat xizmati ariza beruvchiga ariza beruvchi va elektron davlat xizmati ko‘rsatuvchi davlat organi o‘rtasida ikki tomonlama elektron hamkorlik yo‘li bilan ko‘rsatiladigan elektron davlat xizmatidir.

Tranzaksion davlat xizmatlari – korporativ moliya faoliyatining bir turi hisoblanib, tadbirkorlik bitimlarini tuzishda professional xizmatlar firmasi tomonidan taqdim etiladigan uchinchi tomon xizmati. (16)

Asos.

Jamiyat va davlat hayotida tadbirkorlik alohida ahamiyat kasb etmoqda va kundan kunga davlatning ravnaq topishida muhim ro‘l o‘ynamoqda. Shu sababli ushbu sohani rivojlantirish uchun ko‘plab islohot dasturlari qabul qilinyapti. Qonunda tranzaksion davlat xizmatlari ko‘rsatilishining belgilab qo‘yilishi ham tadbirkorlarga keng imkoniyat eshigini ochadi. Tranzaksion xizmatlarning asosiy maqsadi foydalanuvchilarga moliyaviy operatsiyalar yoki ma’lum jarayonlarni amalga oshirish imkoniyatini berish bo‘lib, asosan shartnomalar tuzish, onlayn litsenziyalar va ruxsatnomalarni rasmiylashtirish, pul mablag‘larini o‘tkazish jarayonlarida yuzaga keladi.

Mana shu kabi normalarning qonunchilikka kiritilishi, elektron davlat xizmatlari sohasining hech qanday qiyinchiliklarsiz ishlashiga va davlatimizning raqamlashtirish siyosatida muhim o‘zgarishlar bo‘lishiga olib keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasining qonuni “Elektron hukumat to‘g‘risida”.(11.06.2016)
2. <https://daqn.uz/ozbekistonda-elektron-hukumatni-joriy-etish-va-rivojlantirish-holati/>
3. “O‘zbekiston Respublikasi Yagona interaktiv davlat xizmatlari portal to‘g‘risida” Nizom. 25.09.2017
4. <https://my.gov.uz/oz?id=13>
5. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qarori “Elektron davlat xizmatlari ko‘rsatish tartibini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”.(13.06.2016)
6. O‘zbekiston respublikasining qonuni “Elektron hukumat to‘g‘risida”.(11.06.2016)

7. “Davlat xizmatlari ko‘rsatishni soddalashtirish, byurokratik to‘siqlarni qisqartirish hamda davlat xizmatlari ko‘rsatish milliy tizimini rivojlantirishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Prezident farmoni.
8. BMTning "Elektron hukumat rivojlanishi indeksi" (E-Government Development Index)
9. Yevropa Ittifoqining “eGovernment Action Plan” (ResearchGate)
10. OESDning “Digital Government Index”(2019)
11. Davlat xizmatlari ko‘rsatish tizimini modernizatsiya qilish va jadal rivojlantirishning 2022-2026-yillarga mo‘ljallangan MILLIY STRATEGIYASI
12. <https://privacyinternational.org/case-study/4737/id-systems-analysed-e-estonia>
13. <https://sumsub.com/blog/singapore-my-info-singpass/>
14. <https://uza.uz/oz/posts/axborot-kommunikatsiya-sohasi-jadal-rivojlanmoqda-18-09-2015>
15. “Elektron hukumat va xizmatlar sohasini raqamlashtirish xususiyatlari” A.Abdiraimov (2022)
16. <https://cyberleninka.ru/article/n/o-zbekistonning-elektron-hukumatni-rivojlantirish-indeksidagi-o-rnini-xorijiy-tajribalar-asosida-yaxshilash-istiqbollari/viewer>

МАКТАБГАЧА ТА'LIM TASHKIOTLARDA SOG'LOM OVQATLANISHDA VITAMINLARNING АHAMИYATI

Rizayeva Zoxida Omanaliyevna

Toshkent amaliy fanlar universiteti

Maktabgacha ta'lism metodokasi kafedrasini o'qituvchisi

Annotatsiya: Maktabgacha ta'lism davri bolalar hayotidagi eng muhim bosqichlardan biridir. Ushbu davrda bolalar jismoniy va ruhiy jihatdan rivojlanadilar, shuningdek, ularning sog'lig'i va immuniteti shakllanadi. Sog'lom ovqatlanish, ayniqsa, vitaminlar bolalar organizmida muhim rol o'yinaydi. Vitaminlar, organizmning normal faoliyati uchun zarur bo'lgan organik birikmalar bo'lib, ularning yetishmasligi turli xil sog'liq muammolariga olib kelishi mumkin. Ushbu maqolada maktabgacha ta'lism tashkilotlarida sog'lom ovqatlanishda vitaminlarning ahamiyati, ularning turlari va bolalar organizmiga ta'siri haqida so'z yuritamiz.

Kalit so'zlar: vitaminlar, immun tizimi, maktabgacha ta'lism, sog'lom ovqatlanish, suvda eriydigan vitaminlar, jismoniy faoliyat.

Аннотация: Период дошкольного образования является одним из важнейших этапов в жизни детей. В этот период дети развиваются физически и умственно, формируется их здоровье и иммунитет. Здоровое питание, особенно витамины, играют важную роль в детском организме. Витамины – это органические соединения, необходимые для нормального функционирования организма, а их дефицит может привести к различным проблемам со здоровьем. В этой статье мы поговорим о значении витаминов в здоровом питании в дошкольных образовательных организациях, их видах и влиянии на детский организм.

Ключевые слова: витамины, иммунная система, дошкольное образование, здоровое питание, водорастворимые витамины, физическая активность.

Abstract: The period of preschool education is one of the most important stages in the life of children. During this period, children develop physically and mentally, and their health and immunity are formed. Healthy nutrition, especially vitamins, play an important role in children's bodies. Vitamins are organic compounds necessary for the normal functioning of the body, and their deficiency can lead to various health problems. In this article, we will talk about the importance of vitamins in healthy nutrition in preschool educational organizations, their types and effects on children's bodies.

Key words: vitamins, immune system, preschool education, healthy nutrition, water-soluble vitamins, physical activity

KIRISH

Vitaminlar ikki asosiy guruhga bo'linadi: yog'da eriydigan va suvda eriydigan vitaminlar. Yog'da eriydigan vitaminlar A, D, E va K vitaminlarini o'z ichiga oladi. Suvda eriydigan vitaminlar esa B guruhi vitaminlari va C vitaminini o'z ichiga oladi. Har bir vitamining o'ziga xos vazifalari bor va ularning yetarli miqdorda iste'mol qilinishi bolalar sog'lig'i uchun juda muhimdir. A vitamini ko'rish qobiliyatini saqlash, immun tizimini mustahkamlash va terining sog'lomligini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega. Bolalar uchun A vitamini yetarli darajada iste'mol qilinishi, ularning ko'rish qobiliyatini yaxshilaydi va infektsiyalarga qarshi kurashishda yordam beradi. D vitamini suyaklar va tishlarning rivojlanishi uchun zarurdir. U kaltsiy va fosforning organizmda yaxshi so'riliшини ta'minlaydi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA TADQIQOT METODOLOGIYASI

Maktabgacha yoshdagি bolalar uchun D vitaminining yetarli darajada olinishi, ularning suyak tizimining sog'lom rivojlanishi uchun juda muhimdir. E vitamini antioksidant sifatida tanilgan bo'lib, hujayralarni erkin radikallardan himoya qiladi. Bu vitamin bolalarning immun tizimini mustahkamlashda va terining sog'lomligini saqlashda muhim rol o'yнaydi. K vitamini qonning to'kilishini oldini olishda va suyaklarning sog'lom rivojlanishida muhim ahamiyatga ega. Bolalar uchun K vitaminining yetarli darajada olinishi, ularning sog'lom rivojlanishi uchun zarurdir. Suvda eriydigan vitaminlar ham bolalar organizmi uchun juda muhimdir. C vitamini immun tizimini mustahkamlash, temirning so'riliшини yaxshilash va terining sog'lomligini ta'minlashda muhim rol o'yнaydi. Bolalar uchun C vitaminining yetarli darajada olinishi, ularning sog'lom rivojlanishi va kasalliklarga qarshi kurashishda yordam beradi. B guruhi vitaminlari energiya ishlab chiqarish, nerv tizimining normal faoliyatini ta'minlash va metabolizm jarayonlarida muhim ahamiyatga ega. B1, B2, B3, B5, B6, B7, B9 va B12 vitaminlari bolalar uchun zarur bo'lib, ularning o'sishi va rivojlanishida muhim rol o'yнaydi.[4]

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Bolalar uchun vitaminlarning yetarli darajada olinishi, ularning ovqatlanishida turli xil mahsulotlarni kiritish orqali amalga oshirilishi mumkin. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarga sog'lom ovqatlar taklif etilishi juda muhimdir. A vitamini manbalari: sabzavotlar (masalan, sabzi, brokkoli), mevalar (masalan, shaftoli, mango), sut va sut mahsulotlari, tuxum. D vitamini manbalari: quyosh nuri, baliq (masalan, losos, makrel), tuxum, sut va sut mahsulotlari. E vitamini manbalari: yong'oqlar (masalan, bodom, kaju), urug'lar, sabzavotlar (masalan, brokkoli, ismalloq). K vitamini manbalari: yashil bargli sabzavotlar (masalan, ismalloq, brokkoli), karnabahar, soya mahsulotlari. C vitamini manbalari: mevalar (masalan, apelsin, limon, qulupnay),

sabzavotlar (masalan, pomidor, bulg'or qalampiri). B guruhi vitaminlari manbalari: don mahsulotlari, go'sht, tuxum, sut va sut mahsulotlari, sabzavotlar.[3]

Maktabgacha ta'lism tashkilotlarida bolalarning sog'lom ovqatlanishini ta'minlash uchun ovqatlanish dasturlari ishlab chiqilishi zarur. Ushbu dasturlar bolalarning yoshiga, jismoniy faoliyatiga va sog'lig'iga mos ravishda tuzilishi kerak. Ovqatlanish dasturlarida vitaminlarga boy mahsulotlar kiritilishi, bolalarning sog'lom rivojlanishi uchun zarurdir. Maktabgacha ta'lism muassasalarida ovqatlanish jarayonida bolalarga turli xil sabzavotlar, mevalar, don mahsulotlari va protein manbalarini taklif etish muhimdir. Shuningdek, bolalarga suv ichish odatini o'rgatish va shirin ichimliklardan cheklanish tavsiya etiladi. Sog'lom ovqatlanish bolalar salomatligini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega. Vitaminlar, minerallar va boshqa oziq moddalar bolalar organizmida energiya ishlab chiqarish, immunitetni mustahkamlash va o'sish jarayonlarini qo'llab-quvvatlashda muhim rol o'ynaydi. Maktabgacha ta'lism muassasalarida bolalarga sog'lom ovqatlar taklif etilishi, ularning jismoniy va ruhiy salomatligini yaxshilashga yordam beradi.[2]

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Avtomobil yo‘llarida inson xavfsizligini ishonchli ta’minalash va o‘lim holatlarini keskin kamaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risi”dagi PQ-190-son qarori, 04.04.2022 yil.
2. Beknazarov Sh.Yu., Lochinov F.N., Beknazarov J.Sh., Pulatov M.M. yo‘l-transport hodisalari oqibatida jarohatlanish va o‘limning sud-tibbiy tahlili. //TTA axborotnomasi. 37, 2024, 68-71 b.
3. Buxvalov S.A. Mediko-sotsialnie aspekti rasprostranennosti detskogo travmatizma (faktori riska, organizatsiya profilaktiki i lecheniya): Avtoref. diss. kand.

med. nauk. Rossiya. 2010.

4. G‘iyosov Z.A. Sud tibbiyoti //Tibbiyat oliv o‘quv yurtlari talabalari uchun darslik. - Toshkent, “Global Books” nashriyoti, 2018.
5. Indiaminov S.I., Shoyimov Sh.U., Azimov K.I. Ekspertnaya otsenka perelomov kostey nijnix konechnostey u detey-peshexodov pri avtomobilnoy travme. //Problemi biologii i meditsini. 2020, №5.1 (123), S. 169-172.
6. Kishishyan R.A. Detskiy dorozhno-transportniy travmatizm u detey: mediko-organizatsionnie aspekti problemi: Avtoref. diss ... dokt. med. nauk. Moskva. 2010.
7. Porodenko V.A., Anupriyenko S.A. Detskiy dorozhno-transportniy travmatizm v g. Krasnodare. Kubanskiy nauchnyi meditsinskiy vestnik. 2014;7:61-64.
8. Savenkova Ye.N., Yefimov A.A., Semjonova V.N. Osobennosti povrejdeniy u detey pri nekotorix vidax avtomobilnoy travmi so smertelnim isxodom. Problemi ekspertizi v meditsine. 2015;1(2):47-49.
9. Sudebnaya meditsina: natsionalnoye rukovodstvo /pod red. Yu.I.Pigolkina. - M.: GEOTAR-Media, 2018.
10. Mayakova M.V. Sudebno-meditsinskaya otsenka travmaticheskix povrejdeniy uchastnikov DTP (voditeley i passajirov perednego sideniya), voznikayushix v salone avtomobilya pri lobovom stolknovenii s dvijusheysya pregradoy // Aktualnie voprosi sudebno-meditsinskoy nauki i praktiki. - Kirov, 2010. - S. 245.
11. Shodihev G.B., Beknazarov Sh.Y., Lochinov F.N. O‘limga olib keluvchi avtojarohatlarni baholashning sud-tibbiy mezonlari. //TTA axborotnomasi. 2023, 270 b

UMUMTA'LIM MAKTABLARIDA "MATN PROTSESSORI" MAVZUSINI INNOVATSION METODLAR ORQALI O'QITISH

Mamatova Zilolaxon Xabibulloxon qizi

Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

To'ychiyeva Maftuna Baxtiyorjon qizi

Farg'onan davlat universiteti Amaliy matematika

Yo'nalishi 4-bosqich 21.08-guruh talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada umumta'lism maktablarida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish hamda "Matn protsessori" mavzusini innovatsion metodlar orqali o'qitish haqida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: Matn protsessori, hujjat, matn muharriri, MC Word, Win Word, Apple Macintosh, "Avtofokus" metodi, "Klaster" metodi, "Mening ismim" metodi, "3,4,5,6,7" metodi.

Bugungi kunda o'quvchining mustaqil o'zlashtirishi, bilim olishi va idrok etishi uchun sharoit yaratmasdan turib, ko'zlangan maqsadga erishish, o'qitish muammolarini hal etish mumkin emas. Zamonaviy o'qituvchining vazifasi mifik o'quvchilariga bilim berish emas, balki motivatsiya yaratish va o'zini o'zi tarbiyalash uchun ko'nikmalar to'plamini shakllantirishdir. Albatta, o'qituvchi yordamisiz o'quvchiga hech qanday mahorat kelmaydi. Bu o'qituvchining shaxsiy shakllanishiga va uning rivojlanishiga olib keladi. Ta'limning interfaol usullari o'qituvchiga o'quvchilarni dars bilan qiziqtirishga, ularni faol ishtirok etishga, natijalarga erishishga va jamoaviy ishslashga undashga yordam beradi.

Barchamizga ma'lumki, XXI asr – globallashuv davri, texnika asri deyiladi.. Bugungi kunda fan va texnika jadal suratda rivojlanib bormoqda, bu esa yangi texnologiyalardan foydalanib dars o'tishni taqozo etadi. Kelajagimiz bo'lgan yoshlarni yuksak madaniyatli, o'tkir bilimli qilib tarbiyalashda har bir pedagog xodim o'zini mas'ul shaxs ekanligini bilgan holda, dars samaradorligini oshirib borishi, yangi texnologiyalardan unumli foydalanishi dolzarb masala hisoblanadi.

O'zbekistonda umumiy ta'lim tizimida informatika fanini o'qitish va o'rghanish yigirma yildan ortiq tarixga ega. Kompyuter fanining nazariy fanidan boshlab, endi bizda informatika fanining ba'zi asosiy elementlari bo'lgan ko'plab fanlarni o'rghanishda axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan (AKT) foydalanish kombinatsiyasi mavjud.

Ta'limda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo'llaganda o'quvchi eshitish, ko'rish, ko'rghanlari asosida mustaqil fikrlash imkoniyatiga ega bo'ladi.

Ta'lim jarayonida axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda darslarni interfaol usullarda tashkillashtirish uchun ma'lum bir shart – sharoitlar mavjud. Shunday ekan, axborot kommunikatsion ta'lim texnologiyalaridan samarali foydalanish hozirgi zamon yutuqlariga asoslangan holda davr talabiga mos keladigan pedagogik mahoratning nazariy amaliy assoslarini hamda uning shakllanish jarayonini yaratish eng dolzarb vazifalardandir. Informatika kompyuter texnikasini qo'llashga asoslanib inson faoliyatining turli sohalarida axborotlarni izlash, to`plash, saqlash, qayta ishlash va undan foydalanish masalalari bilan shug'ullanuvchi fandir. Mamlakatimizda axborotkommunikasiya texnologiyalarini hayotimizning barcha jabhalari, jumladan, ta'lim jarayoniga keng tatbiq etishga katta e'tibor qaratilgan edi. Bu 2012 yil 21 martda qabul qilingan "Zamonaviy axborotkommunikasiya texnologiyalarini yanada kengroq joriy qilish va rivojlantirish chora-tadbirlari"ga oid qaror va "Axborotlashtirish to'g'risida"gi qonunda, belgilangan asosiy vazifalardan biridir. Zero, zamonaviy axborot texnologiyalarini samarali qo'llash talabalarga bilim berish sifatini oshirish, uning mazmun mohiyatini takomillashtirish, ta'limni zamonaviy o'quvchilar darajasida tashkil etish, ta'lim muassasalarida ta'lim samaradorligini oshirish maqsadida ta'lim-tarbiya jarayoniga yangi pedagogik, axborot texnologiyalarini joriy etish, ularda interfaol usul va vositalardan foydalanish ko'zda tutilgan. Shu sababli, bugungi kunda ta'lim muassasalarida faoliyat yuritayotgan "Informatika" fani o'qituvchilari oldida quyidagi muhim vazifalar turadi: - talabalarning mustaqil bilim olish, o'rghanish qobiliyatlarini shakllantirish va rivojlantirishda fanning o'rni va ahamiyatini oshirish; - mashg'ulotlarini zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etish va o'tkazish; - o'quvchilarning faolligini oshirish, o'zlashtirish darajalarini rivojlantirishga yo'naltirilgan metod va shakllarni qo'llash; - ta'lim jarayonida zamonaviy axborot texnologiyalaridan samarali foydalanish.

Bugungi kun talabi ta`limni sifat o'zgarishlariga olib keluvchi yangicha yondashuvlarni izlashga undamoqda va uni o'rghanishdagi yondashuvlar (metodlar) ham o'zgarmoqda. Ta`limda yangi bilimlarni amalda qo'llash natijasi innovatsiyalarga asoslangan yangi ta`lim yaratilishiga olib kelmoqda. Masalan "Matn protsessori mavzusini o'qitishda qanday innovatsion metodlardan foydalanish kerakligini ko'rib chiqsak:

Axborotlarni saqlashning eng qadimiyl usullaridan biri yozuv hisoblanadi. Qadimgi odamlar yashagan g'orlar devorlaridagi rasm va yozuvlar buning yaqqol isbotidir. Yozuv texnologiyasi asrlar davomida deyarli o'zgarmadi. Faqatgina yozish vositalari takomillashib bordi. Avval toshlarga o'yib yozilgan bo'lsa, keyinchalik turli bo'yoqlar yordamida yozildi. Xayvon terilariga ishlov berish natijasida toshlarga emas, teriga yozish yo'lga qo'yildi. Qog'oz ishlab chiqarilishi bilan yozish yanada

qulaylashdi. Shu bilan birga yozuv quroli xam takomillashib bordi. Yozish uchun toshlar, turli mo‘yqalam, qamish-perolar, g‘oz patlaridan foydalanildi. Patlar o‘rnini peroli ruchkalar, ularni avtoruchkalar, avtoruchkalar o‘rnini esa yozuv mashinkalari egalladi. Lekin asosiy jarayon - matnga o‘zgartirish kerak bo‘lsa uni qaytadan yozish zarurligi o‘zgarmadi. Bu juda ko‘p kuch va mehnat talab qiladi.

Kompyuterlar matn yozish texnologiyasini tubdan o‘zgartirib yubordi. Matnlarni yozish, saqlash, qayta ishlash, qog‘ozga chop etish kabi ishlarni bajarishga mo‘ljallangan ko‘plab dasturlar yaratildi. Bu dasturlar asosan ikki turga bo‘linadi: **matn muharrirlari** va **matn protsessorlari**. Ularning asosiy farqi kompyuterga kiritilgan matnning ko‘rinishiga bog‘liq.

Matn muharriri kompyuterda eng ko‘p ishlatiladigan dasturlar qatoriga kiradi. Ixtiyoriy rusumli kompyuterlar uchun matn muharrirlari yaratilgan. Xatto bir rusumli kompyuter uchun yaratilgan o‘nlab matn muharrirlarini ko‘rsatish mumkin. Masalan, Pravets kompyuterlarida "RED", "Volna", "Punktir", IBM kompyuterlarida "WD", "Foton", "Leksikon" va xokazo. Matn muharrirlarida asosan matnning mazmuniga etibor beriladi. Ularda matnning ekranidagi va qog‘ozdagi ko‘rinishi (bezagi) unchalik ahamiyatga ega bo‘lmaydi.

Matn protsessorlari matnning faqat mazmuni emas, balki tashqi ko‘rinishi xam katta axamiyatga ega bo‘lganda qo‘llaniladi. Matn protsessorlari matnning tashqi ko‘rinishiga ta`sir etish imkoniyatiga ega. Masalan, matnga turli rasm va jadvallar joylashtirish, belgilarning o‘lchami, rangi va ko‘rinishlarini o‘zgartirish va xokazo.

Matn protsessorlari odatda rasmiy hujjatlar tayyorlashda ko‘p qo‘llaniladi. Matn protsessori yordamida tayyorlangan matn hujjat deb yuritiladi. Matn protsessori yordamida xosil qilingan hujjat faqatgina matn emas, balki uning tashqi ko‘rinishi xaqidagi (shrift turi, o‘lchami, rangi va xokazo) axborotni xam o‘zida saqlaydi. Bu-lar maxsus kodlar bo‘lib, ekranda ham, qog‘ozda ham ko‘rinmaydi.

Turli matn portsessorlarida matnni bezatish uchun turli kodlar qo‘llaniladi. Bunday hollarda hujjatlar xar xil formatga ega deyiladi. Shu sababli formatlangan matnli hujjatlarni bir matn protsessoridan boshqasiga olib o‘tishga xar doim ham erishib bo‘lmaydi.

MICROSOFT WORD

Microsoft Word (qisqacha **MS Word**, **WinWord** yoki **Word**) – matnli ma’lumotlarni yaratish, ko‘rish va tahrir qilish uchun mo‘ljallangan matn muharriridir yoki matn protsessori. Microsoft korporatsiyasi tomonidan Microsoft Office paketi tarkibida chiqariladi. Ilk versiyasi Richard Brodi tomonidan 1983-yil IBM PC uchun yozilgan. Keyinroq Apple Macintosh (1984), SCO UNIX va Microsoft Windows (1989) uchun ishlab chiqilgan. Amaldagi versiyasi Windows va MacOS uchun mo‘ljallangan Microsoft Office Word 2021 hisoblanadi.

MS Word so‘nggi yillarda o‘z imkoniyatlarini kengaytirdi. Word 2003 versiyasidagi dastur asosiy ramzi Word 2007 versiyasida qisman o‘zgartirildi. Planshet, smartfon va boshqa qurilmalar uchun dastur sinxronlashtirildi. Dastur tarkibiga yangi shriftlar, turli format usullari, har bir obyekt uchun alohida sozlamalar qo‘sildi, dasturning internet orqali yangilanishi va qayta aloqa qilish tizimi takomillashtirildi. Mobil qurilmalar, planshetlar uchun Word dasturini Play Market, AppStory va boshqa internet do‘konlardan yuklab olish mumkin.

MC WORD matn protsessori interfeysi

WORD matn protsessori Microsoft firmasining maxsuli bo‘lib, u WINDOWS Operatsion sistemasi muxitida ishlaydi. U matnli va grafikli ma‘lumotlar ustida yuzlab amallar bajarish mumkin. Microsoft Word dasturini ishga tushirish uchun quyidagi buyruqlar ketma- ketligi bajariladi.

Пуск → программы → Microsoft Word

Microsoft Word dasturi ishga tushirilgandan so‘ng ekranda WORD oynasi hosil bo‘ladi. Microsoft Word dasturi ishga tushiriladi. Yuqorida matn protsessori haqida batafsil ma‘lumot berildi. Bu mavzunu tushunarli hamda o‘quvchilar yodida oson saqlab qolishi uchun qiziqarli hamda samarali metodlardan foydalanish lozim. Masalan quyidagi metodlarni dars davomida qo‘llashimiz mumkin:

Avtofokus metodi:

Ushbu metodni qo‘llashda bizga qizil va sariq rangdagi kartochkalar kerak bo‘ladi. Sinfdag‘i o‘quvchilarning har biriga ushbu kartochkalarni tarqatib chiqamiz. Albatta buni dars boshida amalga oshirish maqsadga muvofiq bo‘ladi. So‘ngra dars mobaynida to‘satdan savol beriladi demak savollar quyidagicha:

Qizil kartochkasi borlar o‘rnidan tursin va mavzu yuzasidan biror savolni turgan o‘quvchilardan istalgan biriga beramiz. Javob topa olishsa ushbu kartochkasi bor guruhga bir ball qo‘siladi. Keyin yana to‘satdan sariq kartochkasi borlar o‘rnidan tursin deymiz va yuqoridagi kabi, sariq kartochkasi bor o‘quvchilarga mavzu yuzasidan savol beriladi. Shu daraja darsning so‘ngigacha bir necha marta shunday usul qo‘llanadi.

Natijada dars mobaynida barcha o‘quvchilar hushyorlikda bo‘lishadi. Bu usul o‘quvchilarni harakatga keltirish o‘rinlaridan turish jarayonida darsga bo‘lgan qiziqish signallarini orttiradi. Qolaversa ,istalgan o‘quvchiga beriluvchi savollar barchani mavzu yuzasidan diqqat bilan eshitishga majbur qiladi. Bu jarayonda bellashuv ham ketmoqda! O‘quvchilar o‘zaro bellashish orqali ixtiyoriy darsga diqqatlarini qaratishadi.



U

- s 1. Microsoft Word nima?
- h 2. Word dasturining qanday asosiy funksiyalari mavjud?
- b 3. Microsoft Word dasturi nima uchun ishlataladi?
- u 4. Microsoft Word dasturida hujjatni qanday formatda saqlash mumkin? Va hokazo

Klaster metodi:

Klaster metodi - pedagogik, didaktik strategiyaning muayyan shakli bo'lib, u ta'lif olovchilarga ixtiyoriy muammo (mavzu)lar yuzasidan erkin, ochiq o'ylash va fikrlarni bemalol bayon etish uchun sharoit yaratishga yordam beradi. Mazkur metod turli xil g'oyalar o'rtasidagi aloqalar fikrlash imkoniyatini beruvchi tuzilmani aniqlashni talab etadi. Klaster metodi aniq obektga yo'naltirilmagan fikrlash shakli sanaladi. Undan foydalanish inson miya faoliyatining ishlash tamoyili bilan bog'liq ravishda amalga oshadi. Ushbu metod muayyan mavzuning ta'lif olovchilar tomonidan chuqur hamda puxta o'zlashtirilguniga qadar fikrlash faoliyatining bir maromda bo'lishini ta'minlashga hizmat qiladi. Bu metodda o'quvchilar mavzu bo'yicha olgan bilimlarini mustahkamlaydi. Ular mavzu davomida eslab qolgan atama yoki so'z birikmalarini quyidagi bog'lam ichiga joylashtirishadi. Bog'lam yoki tugun boshqacha ko'rinishda ham bo'lishi mumkin bu o'quvchilar yozadigan ma'lumotlarga bog'liq bo'ladi.


i

z

g

a

qo'llab o'quvchilarga mavzu bo'yicha quyidagi savollarni berishimiz mumkin:



Mening ismim metodi:

Bu metod o‘quvchilarni darsga bo‘lgan qiziqishlarini yanada orttiradi. Bu metodda o‘quvchilar o‘z ismlarini yozishadi va ismlaridagi har bir xarfga mavzuga doir bo‘lgan so‘z yoki atamalar yozishadi. Masalan:

M- matn

A- Alt (Klaviaturadagi “Alt” tugmasi ko‘plab funksiyalarni tezkor bajarish uchun ishlataladi)

F- format

T- tab (Tabulyator tugmasi, matnni ma‘lum bir joyga joylashtirish uchun ishlataladi.)

U- underline (matnni ostiga chizish “crtl+U” tugmalar birikmasi bilan amalga oshiriladi.)

N- normal (Word dasturida matnni odatdagি normal holatda formatlash usuli)

A- Autocorrect (Word dasturida avtomatik ravishda imlo xatolarini to‘g‘rilash funksiyasi)

Bu metod o‘quvchilarni dars mavzusini o‘z ismlari orqali yodda saqlashlariga xizmat qiladi.

3-4-5-6-7 методи

Bu metodni darsda qo‘llash o‘quvchilarni ziyrakliklarini oshiradi. Ularni topqirlik qobiliyatlarini yanada kuchaytiradi. Bu metodni o‘z nomi bilan ham qandayligini bilib olsak bo‘ladi. Bunda o‘quvchilar mavzuga doir 3 ta harfdan, 4 ta harfdan, 5 ta harfdan,

6 ta harfdan hamda 7 ta harfdan iborat bo‘lgan so‘zlarni topib yozishlari kerak bo‘ladi.
Masalan:

New- Yangi hujjat yaratish.”ctrl+N” tugmalar birikmasi yordamida amalga oshiriladi.

Text- Matn, Word dasturida ishlataladigan asosiy tarkib.

Table- Hujjatga jadval qo‘shish funksiyasi.

Insert- Hujjatga yangi elementlar qo‘shish(rasm, jadval, hyperlik va h.k).

Capture- Ekran tasvirini olish yoki Word hujjatida ma‘lumotni ko‘rish.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Ferberman.B.L. “Ilg‘or pedagogik texnologiyalar ”.T: 2001y.
2. Donald E. Knuth. “The Art of Computer Programming” (Informatikaning nazariyasi va metodlarini o‘rganish uchun ulkan asar)
3. Informatika fani o‘qituvchisi Xaytullayeva Nafisa Sahobiddinovna blogi
4. O‘quv jarayonida ilg‘or pedagogic va axborot texnologiyalarini qo‘llash yo‘llari.Uslubiy qo‘llanma. Akademik S.S.G‘ulomov umumiylahbarligi ostida.- T.;TDIU

BADIY ASARLARNI EKRANLASHTIRISH: O'ZBEK KINO SAN'ATINING ILK QADAMLARI

Sodiqov Elyor Turdibekovich

O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti

Xalq ijodiyoti fakulteti dekani

Annotatsiya: Maqolada o'zbek kinomotografiyasining shakillanishi o'ziga hos maktab bo'lib, Turkiston o'lkasi bo'y lab olingan kinolarda o'sha davir, zamon ruhini, nuqson va kamchiliklarni katta mahorat va qahramona ko'rsatildi va tomoshabinlarga yetkazilganligiga ahamiyat qaratilgan. Bizgacha yetib kelgan ilk o'zbek kinosida ko'tarilgan fikr, g'oyalar, siyosiy ko'rinishdagi johilliklar kabi tuyg'ularni mohirlik bilan ko'rsatilganligini maqola davomidagi kino va taxlil qismida kengroq yoritib, tahlil etilgan.

Kalit so'zlar: kino, san'at, adabiyot, obriz, teatr, kinomotografiya, film, sahna.

Аннотация: В статье акцентируется внимание на становление узбекского кинематографа, который представляет собой уникальную школу, а фильмы, снятые по всему Туркестану, с большим мастерством и героизмом показали дух той эпохи, раскрыли пороки и недостатки и донесли до зрителя. Первое дошедшее до нас узбекское кино умело показывает мысли, идеи и чувства невежества в политической форме.

Ключевые слова: кино, искусство, литература, образ, театр, кинематография, кино, сцена.

Abstract: The article focuses on the formation of Uzbek cinema, which is a unique school, and films shot throughout Turkestan showed the spirit of that era with great skill and heroism, revealed the vices and shortcomings and brought them to the viewer. The first Uzbek cinema that has come down to us skillfully shows thoughts, ideas and feelings of ignorance in a political form.

Keywords: cinema, art, literature, image, theater, cinematography, cinema, stage.

Kinomatografiyada adabiyot eng muxum o'rin egallaydi. Adabiy asrning to'g'ri tanlanishi va uni to'laqonli ekrandagi namoyishi ham doyimo o'z ma'romiga yetkazilmasligi gohida to'qima obrizlar va qo'shimcha ma'lumotlar qo'yilishiga sabab bo'ladi. Adabiyot san'at sohasida eng muxim o'ringa ega: adabiyotshunoslik, teatr, tasviriy san'at va hatto boyitilib yozilgan shunday asarlar bor-ki, ular asnosida me'morchilikning ravnaqiga hizmat qilgan. Har qanday turdag'i filmlarining yaratilishida badiiy-dramatruqyaning shrni katta bo'lib, ko'plab qiziqarli stinariylar,

hujjatli filmlar yaratilish asosidir.¹ Ularda har bir gavdalanadigan sahna. Dialoglar ketma-ketligi, holat, his-xayajon, qahramonlar harakteristikasi ochib beriladi. Bundan ko‘rinib turibdiki ko‘pincha kino senariylar adabiy asarlar negizida yaratiladi. Filmga badiiy adabiyotni moslashtirish bu - manbani qayta hikoya qilish, balki kino va boshqa san'at asarlar (nasr, dramaturgiya, she'riyat, qo'shiqlar, opera va baletlari) yordamida yangicha yoki aynan o‘zini talqin qilishdir.

Filmga badiiy asarni moslashitirishda rejissyor ikkinchi darajali hikoyalar, tafsilotlar va epizodik qahramonlardan voz kechishi yoki aksincha, ssenariyga asl asarda bo'lмаган, ammo rejissyorning fikriga ko'ra, asarning asosiy g'oyasini kinematografiya orqali yaxshiroq ochib beradigan epizodlarni qo'shishi mumkin. Aynan adabiy asarlar kino tushunchasi paydo bo'lganidan beri ekran tasvirlarining asosiga aylangan. Ilk ekranlashtirishlardan kinematografiya asoschilari Jorj Meles, Viktorina Jasse, Lui Feyadning, Swift, Defo, Gyote asarlarini ekranda namoyish etilgan. Shuni alohida takidlash kerakki, bu asarlar davr muhitini, asosiy g'oyalarin aks ettirish uchun bir qator o‘zgarishlarni (qahramon harakteri, libos, sahna loyihasi) ochib beriladi. Ilk ekron yuzini ko‘rgan kinomatografik asarlardan biri, Fransiyadagi qisqa metrajli “Ichkilik qo‘rboni” filmi bo‘lib, u 1902 yil rejisser Fernan Zak tomonidan Emil Zolning “G‘arbiy” romani asosida ishlangan. Fransuz yozuvchisining bu mavzudagi asari aynan botqoqlik sari yuzlanayotgan eng dahshatli illat va keltirib chiquvchi oqibatlarini ko‘rsatib berib, xushyorlikka chorlov vazifasini o‘tashi kerak edi. Eng qizig‘i shundaki g‘arb rejisseri rus yozuvchilar asarlarini ham katta ekranga chiqarishadi. Masalan, 1907 yilda bolalar rejisseri Viggo Larsen, 1909 yilda mashhur amarikalik Evid Uork Griff va 1910 yilda fransiyalik Andr Kalmettlar tomonidan ishlangan filmlar L.N.Tolstoyning “Yakshanba” (Voskresenie) asarini katta ekranga olib chiqadi. 1916 yil boshlariga kelib, umumjahon kinomatografiya olami hisobotini o‘rganishda qarib 250 ga yaqin adabiy asarlar katta ekranga chiqarildi.

1919 yilda Turkiston o‘lkasi halq maorif komissarligi tomonidan kino-foto bo‘limini tashkil etish haqida qaror qabul qiladi. 1920 yilga kelib turkuiston o‘lkasi bo‘ylab kino tarmoqlar soni 59 taga, 1921 yilda 70 taga yetkazildi. Bu davrdagi filmlar qisqa metrajli bo‘lgan.² 1925 yil O‘zbekiston xalq komissarlari Sovetining qaroriga binoan O‘zbekiston Davlat kino tashkiloti haqidagi Nizom tasdiqlandi. Nizomda mazkur tashkilotning O‘zbekiston hududida hizmat o‘taydigan Davlat kino idorasi ekani tasdiqlanadi. O‘zbekiston Davlat kino tashkilotining vazifasi badiiy va hujjatli filmlar shilab chakarish, shuningdek kino tarmoklarini kupaytirish, filmlarni prokat tayyorlash va shu soxada madaniy-mayishiy ishlar tashkil etishdan iborat eli.

¹ Алиев Мұхсин. Кино асослари. Т.: Үқитувчи, 1993. 13-бет.

² Б.Ахмедов. Телевизионное кино Узбекистана. Т-2009. 28-ст.

Shu tariqa “Buxkino”, “Vostokkino”, “Turkgosokino” singari mayda tashkilotlar tugatilib, yagona Davlat kniosi “O’zbekgosokino” ish ko’rsata boshlaydi. “O’zbekgosokino” tashkilotchilari va ijodkorlari oldida murakkab vazifalar turardi. Avvalo, kinoteatrлarning repertuarlari ko’ngildagidek emas edi. Ekranlarla asosan “Robin Gud”, “Bag’dod. o‘g‘risi”, “Hind tobuti” singari oldi-qochdi horijiy filmlar namoyish qilinardi. Bu filmlar ommannig etiborini muhim ishlardan chalg‘itishga xizmat qilardi, “O’zbekgosokino” prokat va reklama ishlarini yo‘lga qo‘ydi. Ekranlarda ilg‘or g‘oyalarni targ‘ib qiluvchi filmlar namoyish qilina boshladi. O’sha yillari sovet kino sanatinnig faxri bo‘lgan S. Eyzenshteynning “Potiomkii bronenosesi”, A. Pudovkinning “Ona” filmlari, shuningdek, “Nomus”, “Ayiq to‘ri”, “Shaharlar va yo‘llar” singari filmlarning namoyish qilinishi, buning ustiga filmlarda o‘zbekcha yozuvning paydo bo‘lishi katta ahamiyat kasb etdi.

Davlat kinosi ish boshlagan kezlarda maxalliy kadrlar deyarli yo‘q edi. O‘zbek kinosini rivojlantirishga rus va boshqa qardosh xalqlar kinematografirlarning xissalari katta. Ulardan K. Gertel, V. Viskovskiy, D. Bassaligo, V. Sobberey singari tajribali rejisserlar, ssenariychilar, operatorlar va akterlar bor edi. Ular dastlavki o‘zbek filmlarini yaratish bilan birga maxalliy kadrlar tayyorlashda ham yordam ko‘rsatdilar. “O’zbekgosokino” 1926 yilda va undan keyniroq suratga olgan filmlarda keyinchalik taqdirini batamom o‘zbek kino sanati bilan bog‘lagan, kino sanatimiz taraqqiyotiga ulkan xissa qo‘shgan kishilarning nomlarini uchratish mumkin. Bular orasida Nabi G‘aniev, Malik Qayumov, Sulaymon Xo‘jaev, Komil Ermatov, Yo‘ldosh Azamov, Rahim Pirmuhamedov, Ergash Hamroev, Sobirjon Iskandarov, Boriy Xaydarov, Mirshohid Mirokilov singari rejissyorlar, aktyorlar va operatorlar bor edi. O‘zbek kino san’ati tarixiniig ma’lum bosqichi mazkur namoyondalarning ijodi bilan chambarchas bog‘liqdir.

O‘zbek kinosi o‘sha davrdan buyon sermazmun va sharafli yo‘lni bosib o‘tdn. Bu davr ichida u o‘sdi, ulg‘aydi va olamga mashhur bo‘ldi. O‘zbek kino san’ati ana shu yillar mobaynida ellardan-ellarga, dillardan-dillarga o‘tib, o‘z ijodkorlariga tengsiz sevinib, quvonch bag‘ishladi. “Alisher Navoiy”, “Toxir va Zuxra”, “Nasriddnni sarguzashtlari”, “Osnyo ustida buron”, “Toshkent — non shaxri”, “Ulug‘bek yulduzi”, “O‘tgan kunlar”, “Sevishganlar”, “Sen yetim emassan”, “Leningardliklar-jigarbandlarim”, “Favqulotda komissar”, “Abu Rayxon Beruniy”, “Muxabbat va nafrat”, “Alibobo va qiriq qaroqchi”, “Uzun va qisqa xayot”, “Olovli yo‘llar”, “Odamlar tashvishida”, “Qo‘qon vokeasi”, “Chinor” kabi o‘nlab filmlar. Bolgariya, Ruminya, Germaniya, Polsha, Jugoslaviya, Mo‘g‘iliston, Angliya, Fransiya, Italiya, Daniya, Yaponiya, Pokiston, Xindiston, Turkiya singari mamlakatlarda zo‘r muvaffaqnyat bilan namoyni qilindi.

Bu yutuqlarning xammasi o‘z-o‘zidan qo‘lga kiritiltani yo‘q. Respublika

xukumatining rag‘barligi va doyimiy g‘amxurligi kino xodimlariga kuch-kuvvat barishlab, ularni yangi-yangi zafarlar sari boshladi. Filmlarning asosiy yutuqlari aktyorlarning qahramonlariga to‘g‘ri tanlanganligi. Qahramondagi xis-tuyg‘ular, kechirmalar, zamon voqiyliklarini ochib bera olish kabi yuksak tajriba bilan tomoshabinga yetkazilishi kino saviyasini baholashda katta hissa qo‘shti. Mahoratli aktyorlarning qarashlari, hatti-xarakatlari-yu, kayfiyati, atrof-muhit kabi bir qator jarayonlarni operatorning maxoratisiz erishish qiyin edi. Kino sarviyasiining yuqori baholanishda albatta rejisyorning ham mahorati beqiyosdir. Bundan ko‘rinib turibdiki kuchli mutaxassislardan jamoa tashkil topgani va ular bir guruh, oila kabi faoliyat olib borishgani sezilib turadi.

Film boshlanishida yoki oxirida (ayrim filmlarda prologdan so‘ng) o‘nlab ijodiy va ishlab chiqarish xodimlarining ism-familiyalarini o‘qiyimiz. Bular film ijodkorlari — ssenariy muallifi, rejissyor, operator, musavvir, bastakor, ijrochi aktyorlar, mamuriy xodimlar, ijodiy kuchlarning yordamchilari, assistentlar va boshqa xodimlardir.

Film yaratilishida, yuqorida znkr etilgan ijodi xodimlardan tashqari, yana o‘nlab ishchi va xizmatchilar ishtirok etadilar. Xar qanday film yaratilishida ularning xar biri o‘ziga yarasha xissa qo‘shti. Quynda ana shu ijodiy ishlab chiqarish xodimlarining film yaratishdagi o‘rni va vazifalari bilan tanishamiz.

Kino — sintetik sanat hisoblanib, uning asosini adabnyot, yani ssenariy tashkil etadi. Badiiy ssenariyda bo‘lajak filminig g‘oyaviy-badiiy yo‘nalishi va obrazlar yig‘indisi o‘z aksini topadi. Demak, ekranda talqin etishga mo‘ljallab yozilgan badiiy asar ssenariy deynladi.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Файзиева. Ф.Хужжатли кино режиссураси-Т: 2022.
2. Ефимов Э.М.Замисель фильм зритель. М.1987 г.
3. Убайдуллаев А. Ойнаи жаҳон истиқболлари Т.:1975
4. Жиль Делез. Кино. Ад Маргинем Пресс. 2013.
5. Хлои Дриё «Кино, нация, империя Узбекистан, 1919–1937» Россия. 2013
6. Малышев В.С. Кинематограф Узбекистана и ВГИК. С иллюстрациями. Всероссийский государственный институт кинематографии 2018

О'ZBEKISTON TARIXI DAVLAT MUZEYI MISOLIDA VAQTINCHALIK KO'RGAZMALAR FAOLIYATINING RIVOJLANISHI

Qayumov Suxrob Sobirovich

*Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn instituti
Muzeishunoslik kafedrasи o'qituvchisi*

Annotatsiya: Ushbu maqolada O'zbekiston tarixi davlat muzeyida vaqtinchalik tashkil etilgan ko'r gazmalar tahliliy tavsifiy bayoni va ularning jamiyatning madaniy-ma'rifiy rivojidagi o'rni asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: O'zbekiston tarixi davlat muzeyi, ko'r gazma, ekspozitsiya, eksponat, galereya, fond, vaqtinchalik ko'r gazmalar, madaniy-ma'rifiy faoliyat.

Аннотация: В данной статье дается аналитическое описание временно организованных выставок в Государственном музее истории Узбекистана и обоснована их роль в культурно-просветительском развитии общества.

Ключевые слова: Государственный музей истории Узбекистана, выставка, экспозиция, экспонат, галерея, фонд, временные выставки, культурно-просветительская деятельность.

Abstract: This article provides an analytical description of temporary exhibitions at the State Museum of History of Uzbekistan and substantiates their role in the cultural and educational development of society.

Keywords: State Museum of History of Uzbekistan, exhibition, exposition, exhibit, gallery, collection, temporary exhibitions, cultural and educational activities.

Ko'pchilik tomoshabinlar odatda muzey, galereyalarga ko'r gazmani, yoki kolleksiyalarni bir marta ko'r ish maqsadida tashrif buyuradilar. Insonlar yashab turgan dunyo to'g'risida bor haqiqatni bilishni hohlaydilar. Davrning moddiy va ma'naviy boyliklari haqidagi asori-atiqalar faqat muzeylarda namoyish etilishi mumkin. Bu narsa, hech bir radio, televidenie, kinolarda ham bo'lmasligi aniq. Bu borada ko'r gazmalar bizga etarlicha, to'liq ma'lumot olish imkonini beradi. Eksponatlarni – predmetlar, rangtasvir asarlari, tasviriy va amaliy san'at asarlari namunalari tashkil etib, ular xalqning moddiy va ma'naviy rivojlanganlik darajasini belgilab beradi. Ommabop namoyishlar va ko'r gazmalar ko'pchilik muzeylar uchun odatiy hol hisoblanadi. Bu borada tomoshabin o'z yoshiga monand ko'r gazmadan ma'no, mazmunni teran holda qabul qilishi muhim ahamiyat kasb etadi.

Muzeishunos olim Belcher o'zining kitobida ko'r gazma to'g'risida shunday deydi: "Ko'r gazma bu - aniq belgilangan joyda, ma'lum konsepsiya asosida yozilgan, namoyish etilayotgan eksponatlar va qo'shimcha materiallar orqali yangi

interpretatsiya usullari va bilim olish manbai hisoblangan muzey kommunikatsiyasi muhitidir. Ko‘rgazmalar “doimiy” va “vaqtincha” shaklida tashkil etiladi.

O‘zbekiston tarixi davlat muzeyida 2022-yil mobaynida bir qancha vaqtinchalik ko‘rgazmalar tashkil etilgan bo‘lib, ularning tematikasi rang barangdir. 2022-yil rejasi bo‘yicha muzeyda 10 ta tadbir va ko‘rgazmalar o‘tkazilishi rejalashtirilgan bo‘lib, amalda 21 ta ko‘rgazma va tadbirlar o‘tkazildi.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 193-sonli majlis bayoni (№ 01-30/1-764 28.10.2021 y.) ijrosini ta’minlash bo‘yicha Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi, O‘zbekiston Badiiy akademiyasi, Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi bilan hamkorlikda “Jaloliddin Manguberdi mardlik va vatanparvarlik timsoli” ko‘rgazmasi o‘tkazildi. Ko‘rgazmada Jaloliddin Manguberdi hayoti va faoliyatiga bag‘ishlangan rassom To‘ra Kuryazovning 40 dona asarlari, A. Navoiy nomidagi milliy kutubxonasining 15 dona kitoblari namoyish qilindi. Ushbu ko‘rgazma muhitida namoyish etilgan To‘ra Kuryazovning asarlarida me’moriy yodgorliklarimiz, yurtimiz tabiatni, uning in’omlari va mamlakatimizning tarixiy shaxslarini ko‘plab portretlarini uchratish mumkin. Ularning orasida buyuk siymolardan “Feruz”, “Bibixonim”, “Ogahiy”, “Olloqulixon”, “Islom Xo‘ja”, “Sevim Bika”, “Zaradushtra”, “Jaloliddin Manguberdi”, “Al-Xorazmiy”, “To‘maris”, “Nodirabegim” dan tortib to zamondoshlar portretlarigacha ko‘rish mumkin. Asarlarda tarixiy-epik janr, mifologik mavzu, shuningdek, realistik portret, natyumort, manzaralar keng taqdim etilgan. Katta mahorat bilan ishlangan Jaloliddin Manguberdi obrazi O‘zbekistonning milliy qahramoni namunasiga aylanib bo‘lgan. Ushbu asar Manguberdi tavalludining 800 yilligini nishonlanish arafasida o‘tkazilgan tanlovda g‘olib deb topilib, etalon sifatida qabul qilindi. Rassom ushbu asarlari orqali madaniyatimizning eng yaxshi an’analarini taqdim etadi. Xalfachilik, baxshichilik Xorazm hududida keng tarqalgan mahalliy og‘zaki ijodi hisoblanadi. T.Kuryazov ularning ijodini chuqur o‘rganib, uzoq izlanishlar natijasida bir necha baxshi hamda xalfachilik san’atiga doir asarlar yaratdi. Ko‘rgazmadan o‘rin olgan “Xonum Xalfa”, “Lazgi”, ”Nazira xalfa”, “Onajon xalfa”, “Suvora”, “Xalfalar II – triptix”, “Ojiza”, “Shukur xalfa” kartinalari shular jumlasidandir. To‘ra Kuryazov nomi O‘zbekiston san’ati tarixi sahifalarida o‘zining munosib o‘rniga ega. T. Kuryazovning asarlari nafaqat respublikamizning nufuzli muzeylarida balki, Italiya, Angliya, AQSh, Turkiya, Rossiya, Fransiya, Malayziya, Hindiston, Bolgariya va Yaponiya kabi mamlakatlarning shaxsiy kolleksiyalaridan ham o‘rin egallagan.

“Alisher Navoiy va Bobur ijodi” ko‘rgazma va tadbirida mutafakkir va davlat arbobi Nizomiddin Mir Alisher Navoiy hamda, shox va shoir Zahiriddin Muhammad Bobur tavallud ayyomlariga bag‘ishlandi. Ko‘rgazma va tadbir O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi Toshkent “Temurbeklar maktabi” harbiy – akademik

litseyi, A. Navoiy nomidagi davlat adabiyot muzeyi, A. Navoiy nomidagi milliy kutubxonasi bilan hamkorlikda o'tkazildi. Ko'rgazmada muzeyning "Badiiy asarlar" fondidan va A. Navoiy nomidagi milliy kutubxonasida saqlanayotgan qo'lyozma va zamonaviy usulda nashr etilgan kitoblar namoyish etildi.

"O'zbek badiiy filmlari vizual ifodasi tarixiy bosqichlari" nomli ko'rgazma esa mustaqil tadqiqotchi Qodirov Behzod bilan hamkorlikda o'tkazildi. Ko'rgazmada Behzod Qodirov tomonidan O'zbekiston kino san'ati muzeyida saqlanayotgan bir qancha o'zbek filmlaridan olib kelingan kadrlar namoyishi bo'lib o'tdi. Joriy yilda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyev Oliy Majlisga Murojaatnomasida kinematografiya sohasida badiiy jihatdan etuk asarlar yaratish, zamonaviy kinoindustriyani rivojlantirish, jumladan, yangi kinoteatrlar qurish lozimligini ta'kidlagan edi. Shu maqsadda sohaga katta mablag' yo'naltirildi. Xususan, "O'zbekfilm" dagi barcha pavilonlar ta'mirlanib, yangi kartinalar suratga olish uchun sharoit yaxshilandi. Ko'rgazmaning muhokama jarayonida ushbu masalalar tahliliga ham to'xtalib o'tildi.

"Ko'chma ko'rgazmalar" bo'limi rassomi F.Dedenyovaning shaxsiy ko'rgazmasi O'zbekiston Badiiy akademiyasi, O'zbekiston badiiy ijodkorlar uyushmasi bilan hamkorlikda Toshkent fotosuratlar uyida bo'lib o'tdi. Ko'rgazmada rassomning 168 dona badiiy kulolchilik buyumlari va ijodiy – pedagogik faoliyatiga aloqador 22 fotosuratlari taqdim etildi. F.Dedenyova 2016-yildan buyon O'zbekiston tarixi davlat muzeyining "Mo'jizalar olamida" bolalar muzeyining "Yosh arxeolog" va "Yosh kulol" to'garaklarini boshqarib kelmoqda. U bolalar bilan hamkorlikda yaratilgan ijodiy ishlarini ushbu ko'rgazmada namoyish etdi.

Jamiyat taraqqiyoti va farovonligi millatlararo, dinlararo o'zaro bag'rikenglik va totuvlik hamisha muhim ahamiyat kasb etadi. O'zbekistonda 130 dan ortiq millat va elat vakillari turli dinlarga e'tiqod qiluvchi xalqlar bo'lib, ular tinch-omon, ahil-inoq yashab kelmoqdalar. Ana shu ezgulik va tinchlik-osoyishtalik omili bo'lgan diniy bag'rikenglik tamoyillarini yanada mustahkamlash va rivojlantirishga diyorimizda alohida e'tibor qaratib kelinmoqda. Hozirda bu g'oya ezgulik yo'lida nafaqat dindorlar, balki jamiyatning barcha a'zolari hamkorligini nazarda tutadi. Diniy bag'rikenglik tinchlik va barqarorlikni mustahkamlash, ozod va obod Vatan qurishning muhim shartidir. "O'zbekistonda yahudiylar hayoti: tarixiy davrlar kesimida" nomli ko'rgazma O'zbekiston Respublikasi va Isroil davlati o'rtaida diplomatik aloqalar o'rnatalganining 30 yilligini nishonlash doirasida O'zbekiston Respublikasining Isroil Davlatidagi Elchixonasining tashabbusiga ko'ra O'zbekiston Respublikasi "O'zarxiv" agentligi, O'zbekiston tarixi davlat muzeyi va O'zbekiston yahudiylar milliy madaniy markazi bilan hamkorlikda o'tkazildi. Ko'rgazmada "O'zarxiv" agentligi va O'zbekiston tarixi davlat muzeyi tomonidan berilgan 66 dona kinofotofono hujjalari

va materiallari, shuningdek, O'zbekiston yahudiylar milliy madaniy markazi tomonidan berilgan 6 dona yahudiylarning milliy liboslari, O'zbekiston tarixi davlat muzeyi fondlarida saqlanayotgan nodir adabiyotlar va yahudiylarning tavrotlari namoyish etilgan.

O'zbekiston tarixi davlat muzeyi direktorining 2022-yil 6-maydag'i № 21 sonli ichki buyrug'iga asosan "Hech qachon hech narsa unutilmaydi" nomli ko'rgazmasi tashkil etildi. Ko'rgazma 2022-yil 9-may Xotira va qadrlash kuni munosabati bilan muzey fondlaridan olingan plakatlar, kitoblar, tasviriy san'at asari va arxiv xujjatlari asosida tashkil etildi. Ko'rgazma uchun "Hujjatlar" fondidan 52 dona plakatlar va xujjatlari, "Tabarruk buyumlar" fondidan 19 dona eksponatlar, "Arxivning fototeka" fondidan 15 dona buyumlar, "Badiiy asarlar" fondidan 1dona asar va muzey kutubxonasidan 6 dona kitoblar olindi.

1977-yildan buyon dunyoda an'anaviy tarzda 18 may "Xalqaro muzeylar kuni" sifatida keng nishonlanib kelinmoqda. Bu haqda "Xalqaro muzeylar maslahati" (International Council of Museums, ICOM) tashkilotining 1977-yildagi yig'ilishida qaror qabul qilingan. Har yili ushbu bayram muzeylar faoliyatiga bag'ishlangan o'zining ma'lum bir mavzusiga ega bo'ladi. Darhaqiqat, muzeylar ma'naviy va ma'rifiy ilm o'chog'i sifatida doim taraqqiyotda, rivojlanish va o'zgarishda. Ularni boyitib borish, boy me'moriy obidalarni kelajak avlodlarga etkazish, asrab-avaylash har birimizdan alohida mas'uliyat talab etadi. Shu munosabat bilan 10 dan ortiq tashkilotlar bilan aloqalar qilindi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Millatlararo munosabatlar va xorijiy mamlakatlar bilan do'stlik aloqalari qo'mitasining Madaniy markazlarining Qozoq va Turkman madaniyat markazlari o'zlarining milliy ko'rgazmalari bilan faol qatnashdilar. Koreys va Uyg'ur madaniyat markazi a'zolari milliy qo'shiqlari bilan qatnashdilar. Hunarmand uyushmasi o'zining milliy hunarmandchilik namunalari bilan, "Sharq ziyokori" MChJ tashkiloti va "O'zbekiston nashriyoti" matbaa uyining tarixiy, adabiy va badiiy kitoblar ko'rgazmasi bilan tadbirda faol ishtirok etdilar. Shuningdek, O'zMU va K.Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn instituti talabalarining ko'rgazmali va ijodiy chiqishlari, Respublika dizayn maktabi o'quvchilarining "Milliy kiyimlar namoyishi", O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi Toshkent "Temurbeklar maktabi" harbiy-akademik litseyi o'quvchilar, 17 sonli bolalar musiqa va san'at maktab internati, 260 sonli maktab o'quvchilar va Barkamol avlod bolalar ijodiyoti markazi o'quvchilar o'zlarining ijodiy chiqishlari bilan ishtirok etdilar.

"Bolalarni himoya qilish kuni" bayramining maqsadi ham keng jamoatchilik diqqatini bolalarning muammolariga, ularning huquqlarini himoya qilishga, himoyalangan dunyoda yashash imkoniyatlariga, baxtli bolalikka ega bo'lishlariga va o'z mamlakatining to'la-to'kis va xotirjam fuqarosi bo'lib o'sishlariga qaratilgandir.

Shuningdek, bayramni nishonlash orqali ulg‘ayib kelayotgan yosh avlodni keljakda ma’nan boy, jismonan sog‘lom va ahloqan pok bo‘lib voyaga etkazishdir. 2022-yil 28-may kuni O‘zbekiston tarixi davlat muzeyida Xalqaro bolalarni himoya qilish kuniga bagishlangan “Yosh iste’dodlar ijodi” nomli ko‘rgazmasi o‘tkazildi. Yil davomida “Bolalar muzeyi”ga tashrif buyurgan bolalarning 100 dan ortiq ijodiy ishlari ko‘rgazmada namoyish etildi. Ko‘rgazmada namoyish etilgan tasviriy san’at asarlari turli yo‘nalishlarda chizilgan bo‘lib, muzeyga tashrif buyurgan turli yoshdagi tomoshabinlarni befarq qoldirmadi. “Bolalarga bering dunyoni” nomli tadbiri “1-iyun Xalqaro bolalarni himoya qilish kuni” munosabati bilan 29-may kuni muzeyda “Bolalarga bering dunyoni” nomli tadbiri o‘tkazildi. Tadbirda 260-maktab, 17-maktab va 5-maktab o‘quvchilari ijrosida badiiy chiqishlar namoyish etildi.

O‘zbekiston Respublikasi Mustaqilligining 31 yilligi munosabati bilan 5-sentabr kuni O‘zbekiston tarixi davlat muzeyida “Foto san’ati – davrlar kesimida” nomli ko‘rgazma tashkil etildi. Ko‘rgazma muzeyning “Tabarruk buyumlar” fondida saqlanayotgan noyob fotoapparatlardan tashkil topgan. Unda 1940-yildan boshlangan fotoapparatlar evolyutsiyasi namoyish etilgan. Shuningdek muzey kutubxonasidan ham bir qancha kitoblar namoyishi bo‘lib o‘tdi. 2-8-sentabr “Muzeylar haftaligi” doirasida “ochiq eshiklar” kuniga bag‘ishlab, “Moziyga sayohat” ruknida turli tadbirlar va ko‘rgazmalar bo‘lib o‘tdi. TIQXMMI milliy tadqiqot universiteti o‘qituvchilari G.Ravshanova, O‘.Akilovalar “Yangi O‘zbekistonda el Aziz inson Aziz” mavzusida davra suhbati o‘tkazdilar.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 27-maydagи “Muzeylarda xizmatlar sohasini rivojlantirish chora tadbirlari to‘g‘risida” PQ 261-son qarori 8-bandiga muvofiq “Milliy merosga menin hissam” nomli ko‘rgazma tashkillashtirildi. Ko‘rgazma 7-sentabr kuni O‘zbekiston tarixi davlat muzeyining ko‘rgazmalar zalida bo‘lib o‘tdi. Bu ko‘rgazma aksiya doirasida muzey fondiga yig‘ilgan yuksak badiiy qiymatga ega bo‘lgan tasviriy va amaliy san’at asarlaridan namoyish etilgan. Unda muzeyga sovg‘a qilingan qadimiy taqinchoqlar, hunarmandchilik namunalari, qo‘g‘irchoqlar kompozitsiyasi, pichoqchi ustanning ish dastgohi va ish qurollari va amaliy san’at asarları mujassamlagan. Ko‘rgazmaning tashkiliy ishlarini tuzilishi, eksponatlarni qabul qilib olish va topshirish dalolatnomalari va etiketajlari tayyorlandi.

Muzeylardagi turli mavzulardagi ko‘rgazma muhiti inson kayfiyatiga katta ta’sir o‘tkazib, uning ichki dunyosini boyitadi. O‘zbekiston tarixi davlat muzeyidagi turli mavzular asosida tashkil etilgan ko‘rgazmalar tomoshabinni doimiy ekspozitsiya muhiti bilan tanishtirishdan tashqari jamiyatning global rivojlanish jarayonlari bilan tanishishga ham imkon yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. А.А.Шпак. “Роль куратора в современном художественном пространстве”. Красноярск, 2016 г.
2. Виктор Мизиано. “Пять лекций о кураторстве”. Москва, 2014.
3. Гусев Э.Б., Прокудин В.А., Салащенко А.Г. Выставочная деятельность в России и за рубежом. Учебно-методическое пособие. М.:“Дашков и К”-2004.(электронная версия).
4. Ismailova J. “Zamonaviy jahon muzeyshunosligi”. [Matn] /J.Ismailova, M.Muxamedova. “PREMIER PRIENT”. MCHJ. Toshkent. 2013. – 312 b.
5. Р.Арнхейм. Искусство и визуальное восприятие. Перевод с англ. Самохина В. Л. Общая редакция Шестакова В. П. М., Прогресс, 1974, 392 с.
6. Ф.Перрен “Экономия выставки”. Terra Incognita: Теория и практика выставочного дела. 1995, №3-4.

MUZEY EKSPOZITSIYASIDA SUN'iy INTELLEKTDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI

Sadikova Nasiba Baxtiyorovna

*Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn instituti
Muzeyshunoslik kafedrasи o'qituvchisi*

Annotatsiya: Mazkur maqolada muzey ekspozitsiyalarida sun'iy intellekt texnologiyalarini joriy etish imkoniyatlari tahlil qilinadi. Muzey tashrifchilarining qiziqishlarini tahlil qilish, eksponatlarni personallashtirilgan tarzda taqdim etish va ular bilan interaktiv muloqot o'rnatish imkoniyatini ochib beradi. Shuningdek, sun'iy intellekt yordamida muzeylar ma'lumotlari bazasini boshqarish, virtual gidlar yaratish va eksponatlar tarixini chuqurroq yoritishda foydalanib, tomoshabinlarni qiziqtirish metodlari ishlangan. Sun'iy intellektning yutuqlari bilan birga uning kamchilik va xatarlari to'g'risida ham fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: Muzey, ta'lim, eksponat, ekspozitsiya, zamonaviy muzey, personalallashtirish, sun'iy intellekt, 3D model, QR-kod.

Аннотация: В данной статье анализируются возможности внедрения технологий искусственного интеллекта в музейные экспозиции. Искусственный интеллект позволяет анализировать интересы посетителей музея, представлять экспонаты в персонализированном формате и устанавливать с ними интерактивное взаимодействие. Кроме того, рассматривается использование искусственного интеллекта для управления базами данных музеев, создания виртуальных гидов и более глубокого освещения истории экспонатов. В статье также обсуждаются преимущества технологий искусственного интеллекта, а также их недостатки и потенциальные риски.

Ключевые слова: музей, образование, экспонат, экспозиция, современный музей, персонализация, искусственный интеллект (ИИ), 3D-модель, QR-код.

Abstract: This article analyzes the possibilities of integrating artificial intelligence (AI) technologies into museum exhibitions. AI enables the analysis of museum visitors' interests, presenting exhibits in a personalized format, and establishing interactive engagement with them. Additionally, the use of AI for managing museum databases, creating virtual guides, and providing deeper insights into the history of exhibits is considered. The article also discusses the advantages of AI technologies, as well as their drawbacks and potential risks.

Keywords: museum, education, exhibit, exposition, modern museum, personalization, artificial intelligence (AI), 3D model, QR code.

Hozirgi zamonda muzeylar nafaqat tomosha qilish joyi, balki ta'lim beruvchi, ilmiy tadqiqotlar olib boruvchi maskan sifatida ham faoliyat yuritmoqda. Sun'iy intellekt (SI) texnologiyalarining muzeylar sohasiga kirib kelishi bu sohani yanada rivojlantirishga katta yordam bermoqda. Ushbu maqolada sun'iy intellektning muzeyda qanday ishlatilishi va uning imkoniyatlari tahlil etiladi.

Ekspozitsiyalarni personallashtirishda sun'iy intellekt (SI) texnologiyalaridan foydalanib, tomoshabinlarning qiziqishlariga asoslangan ekspozitsiyalarni taklif etish imkonini ko'rishimiz mumkin. Tashrifchilarning yo'nalishlarini kuzatib, qiziquvchanlik darajasiga mos turdagи ma'lumotlar taqdim etish. Bunda muzey ekskursavodlarining tashrifchi guruhi haqida qisqa ma'lumotlarga ega bo'lishi (ma'lumoti, qaysi soha vakillari ekani, yosh doirasi, maxalliy-xorijiy fuqaroligi) kerak. Shundan kelib chiqib kiritilgan ma'lumotlar asosida yaratilgan tayyor matindan tashrif buyurgan guruhga qiziqarli ma'ruza tayyorlanadi, xatto ma'ruza necha soat yoki daqiqa davomida bo'lishi kerakligini ham sun'iy intellektga ko'rsatish mumkin bo'ladi. Bu o'z o'rnida kelgan tashrifchini to'laqonli maruzaga qiziqtirish, vaqtini mazmunli o'tkazishni ta'minlaydi. Bu jarayonlar hozirda horij muzeylari tajribasida bo'lib, uning qulayliklari nafaqat tashrifchilariga balkim muzey gidlari uchun ham engillik yaratmoqda. Biroq statistik taxlillarda ekspozitsiyalarni personallashtirishda sun'iy intellektning xatari mavjud bo'lishi mumkinligi haqida bang urilmoqda. Sizga yaxshi ma'lumki elektron gidlar rivojlangan. Bunday tanlovlardan jonli gidlarning o'rnini egallashi bu esa ish o'rnini kamayishi va ilmiy o'sish darajasini sun'iy intelekt qo'lida qolishiga olib keladi.

QR-kodlar va mobil ilovalar orqali interaktiv ma'lumot berish – tashrifchilarga muzey ekspozitsiyalari haqida qo'shimcha ma'lumot taqdim qilishning zamonaviy va samarali usuli hisoblanmoqda. Bu texnologiya tashrifchilarning qiziquvchanligini oshirib, muzey tajribasini individuallashtiradi. **QR-kodlar** – maxsus kodlangan ramzlar bo'lib, ularni smartfon yoki planshet kamerasi orqali skaner qilib, ma'lumotga tezkor kirish imkonini beradi. Ushbu dasturni ishlatish jarayoni quyidagi tashkil etidi:

1. Muzey eksponati yoki ekspozitsiyasi yonida QR-kod joylashtiriladi.
2. Tashrifchi smartfoni orqali kodni skaner qiladi.
3. Sistema tashrifchini maxsus veb-sahifa yoki ilovaga yo'naltiradi. U erda: eksponat haqida qo'shimcha ma'lumot oladi. 3D modellar, videolar yoki audio-fayllarni ko'rish imkonini beradi. Til tanlash imkoniyati (bir necha tilda ma'lumot berish) ma'lumotlani o'qish mukin bo'lidi.

Tashrifchi QR-kodni skanerlab, eksponatning tarixi, yaratilishi jarayoni yoki uning yozuvchilari haqidagi qiziqarli ma'lumotlar bilan tanishadi va hatto ularni bosqichma-bosqich rivojlanish tartiblarini ham ko'rish mumkin bo'ladi.

Zamonaviy muzeyshunoslikda ekspozitsiyalarni personallashtirish muzeylarning tashrifchilarga moslashuvchan yondoshuv orqali ular uchun yanada qiziqarli va xotirada qoladigan tajriba yaratishga qaratilgan. Sun'iy intellekt (SI) bu jarayonlarni hal qiluvchi o'rinni tutib, quyidagi jihatlarda katta imkoniyatlar yaratadi: personallashtirilgan ma'lumot taqdimotini tashkil etishda, qidiruv va yo'nalishni avtomatlashtirishda, virtual reallik (VR) va qo'shimcha reallik (AR), ko'rgazmalarga bog'liq tavsiyalar berishda foydalanish, ko'rgazmalarning audio-vizual moslashuvini ta'minlash, emotsiyonal intellekt va foydali muloqtlarni tashkil etishda foydalanish imkoniyatlarini yaratadi.

Personallashtirilgan ma'lumot taqdimotini tayyorlashda sun'iy intellekt muzey tashrifchilarining qiziqishlarini o'rganib, ularga tegishli ma'lumotlarni taqdim etadi. Buni biz quyidagi usullarda ko'rishimiz mumkin.

Qiziqishlarni tahlil qilish: Tashrifchilarning kirishdagi anketa yoki mobil ilovalar orqali berilgan ma'lumotlarini tahlil qilib, ularning qiziqishlariga mos ekspozitsiya yo'nalishini tanlash. Bunda aniqlik bilan tomoshabinga yondoshish, uni qiziqtiradigan va qiziqtirish mumkin bo'lgan ma'lumotlarni taqdim etib, muzey ekspozitsiyasidagi yangi materiallar bilan tarishtirish imkonini beradi.

Interaktiv gidlar: SI asosida ishlovchi mobil ilovalar yoki ekranlar tashrifchilarning yoshi, tili yoki qiziqishlariga qarab ma'lumotni moslashtiradi. Misol tariqasida, bir oila bolalar bilan muzeyga keldi deylik. Sun'iy intellekt ular uchun bolalarga moslashtirilgan animatsiya va qiziqarli faktlardan iborat yo'nalish taklif qilishi mumkin. Bundan ko'rinish turibdiki bir oilaning har bir vakiligi individual yondoshuv va moslashuv jarayonlari bir necha soniyalarning o'zida amalga oshirilishini.

